(6) dan foydalanib, (2) shartni qanoatlantiramiz, AB kesmadagi $\tau_1^-(x)$ va $\nu_1^-(x)$ orasidagi funksional munosabat o‘rinli boladi:

$$\big(1 + \mu_1(x)\big)\nu_1^-(x) = \big(1 + \mu_1(x)\big){\tau_1^-}'(x) - \varphi_1(x), 0 < x < 1. \quad (7)$$

Xuddi shuningdek, AA_0 va BB_0 kesmalaridagi funksional munosabatlarga ega bo‘lamiz:

$$\big(1 + \mu_2(y)\big)\nu_2^-(y) = \big(1 + \mu_2(y)\big){\tau_2^-}'(y) - \varphi_2(y), 0 < y < 1. \quad (8)$$
$$\big(1 + \mu_3(x)\big)\nu_3^+(t) = -\big(1 + \mu_3(y)\big){\tau_3^+}'(y) - \varphi_3(y), 0 < y < 1. \quad (9)$$

Yechimning yagonaligi funksiya integrallari yordamida isbotlanadi. Odatdagidek, bir jinsli masalani ko‘rib chiqib, bu masalaning faqat trivial yechimga ega ekanligini isbotlaymiz. Buning uchun Ω_0 sohadagi (1) tenglamani $u(x,y)$ funksiyasiga ko‘paytirib, shu soha bo‘yicha integrallaymiz. Grin formulasidan [8] foydalanib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\iint_{\Omega_0}^{1} u_x^2(x,y)dxdy + \int_0^1 \tau_2^+(y)\nu_2^+(y)dy - \int_0^1 \tau_3^-(y)\nu_3^-(y)dy +$$
$$+\frac{1}{2}\int_0^1 u_x^2(x,1)dx - \frac{1}{2}\int_0^1 [\tau_1^+(x)]^2 dx = 0 \quad (10)$$

Endi esa $\tau_1^+(x) = 0$, $\int_0^1 \tau_3^-(y)\nu_3^-(y)dy \leq 0$ va $\int_0^1 \tau_2^+(y)\nu_2^+(y)dy \geq 0$ larni isbotlab, almashtirishlardan so‘ng (10)dan, Ω_0 da $u(x,y) \equiv 0$ tenglik o‘rinli bo‘ladi. So‘ngra, Koshi masalasi uchun olingan tengliklardan foydalanib, $\overline{\Omega_i}$ $(i = \overline{1,3})$da $u(x,y) \equiv 0$ ekanligini aniqlaymiz. Bulardan esa qaralayotgan masalaning yechimining yagonaligi kelib chiqadi.

Masala yechimining mavjudligi integral tenglamalar usuli bilan isbotlanadi. Buning uchun (7)-(9) funksional munosabatlardan va Ω_0 sohadagi (1) tenglama uchun birinchi chegaraviy masala yechimi

$$u(x,y) = \int_0^1 \tau_1^+(x_1)G(x,y;x_1,0)dx_1 + \int_0^y \tau_2^+(y_1)G_{x_1}(x,y;0,y_1)dy_1 -$$

$$-\int_0^y \tau_3^-(y_1)G_{x_1}(x,y;1,y_1)dy_1, \tag{11}$$

bu yerda

$$G(x,y;x_1,y_1)=\frac{1}{2\sqrt{\pi(y-y_1)}}\sum_{n=-\infty}^{\infty}\left[e^{-\frac{(x-x_1+2n)^2}{4(y-y_1)}}-e^{-\frac{(x+x_1+2n)^2}{4(y-y_1)}}\right]$$

issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalaning Grin funksiyasidir.

Dastlab $\tau_1^{\pm}(x), \nu_1^{\pm}(x)$ funksiyalarini topamiz. Buning uchun Ω_0 sohada $y\to 0$ da limitga o‘tib, (1) dan quyidagini olamiz

$$[\tau_1^+(x)]'' = \nu_1^+(x) \tag{12}$$

(7)n i (12)ga qo‘yib, $\tau_1^+(x)$ga nisbatan ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamani hosil qilamiz:

$$\tau_1^{+\prime\prime(x)}-\tau_1^{+\prime(x)}=-\frac{\varphi_1(x)}{1+\mu_1(x)}. \tag{13}$$

(13) tenglamaning yechimi, $\tau_1^+(0)=0$ va $\tau_1^+(1)=0$ sharti bilan, quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi

$$\tau_1^+(x)=\int_0^x \frac{\varphi_1(t)[1-e^{x-t}]}{1+\mu_1(t)}dt+\frac{e^x-1}{e-1}\int_0^1 \frac{\varphi_1(t)[e^{1-t}-1]}{1+\mu_1(t)}dt. \tag{14}$$

(7) funksional munosabatdan foydalanib,

$$\nu_1^+(x)=-\int_0^x \frac{\varphi_1(t)[1-e^{x-t}]}{1+\mu_1(t)}dt+\frac{e^x-1}{e-1}\int_0^1 \frac{\varphi_1(t)[e^{1-t}-1]}{1+\mu_1(t)}dt-\frac{\varphi_1(x)}{1+\mu_1(x)} \tag{15}$$

ni topamiz.

$\tau_i^{\pm}(t)$, $\nu_i^{\pm}(t)$ $(i=2,3)$ funksiyalarini topish uchun (11) ni bir marta x bo‘yicha differensiallaymiz:

$$u_x(x,y)=\int_0^1 \tau_1^+(x_1)G_x(x,y;x_1,0)dx_1+\int_0^y \tau_2^+(y_1)G_{x_1x}(x,y;0,y_1)dy_1-$$

$$-\int_0^y \tau_3^-(y_1)G_{x_1x}(x,y;1,y_1)dy_1.$$

Quyidagi belgilashni kiritamiz

$$N(x,y;x_1,y_1)=\frac{1}{2\sqrt{\pi(y-y_1)}}\sum_{n=-\infty}^{\infty}\left[e^{-\frac{(x-x_1+2n)^2}{4(y-y_1)}}+e^{-\frac{(x+x_1+2n)^2}{4(y-y_1)}}\right].$$

$G_{x_1x}(x,y;x_1,y_1)=N_{y_1}(x,y;x_1,y_1)$ va $G_x(x,y;x_1,y_1)=-N_{x_1}(x,y;x_1,y_1)$

bo‘lgani uchun, kiritilgan belgilashlarni hisobga olgan holda, qo‘shiluvchi integrallarni bo‘laklab integrallaganda, quyidagi tengliklarga ega bo‘lamiz:

$$\nu_2^+(y)=\int_0^1 \tau_1^{+\prime}(x_1)N(0,y;x_1,0)dx_1-\int_0^y \tau_2^{+\prime}(y_1)N(0,y;0,y_1)dy_1+$$

$$+\int_0^y \tau_3^{-\prime}(y_1)N(0,y;1,y_1)dy_1,$$

$$\nu_3^-(y)=\int_0^1 \tau_1^{+\prime}(x_1)N(1,y;x_1,0)dx_1-\int_0^y \tau_2^{+\prime}(y_1)N(1,y;0,y_1)dy_1+$$

$$+\int_0^y \tau_3^{-\prime}(y_1)N(1,y;1,y_1)dy_1.$$

So‘ngra, oxirgi ikkita tenglikdan (8) va (9)dan foydalanib, $\nu_i^{\pm}(t)$ $(i=2,3)$ni chiqarib tashlab, $\tau_i^{\pm}(t)$, $(i=2,3)$ga nisbatan quyidagi integral tenglamasini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} \tau_2^+{}'(y) + \int\limits_0^y \tau_2^+{}'(y_1) N(0,y;0,y_1)dy_1 - \int\limits_0^y \tau_3^-{}'(y_1) N(0,y;1,y_1)dy_1 = F_1(y), \\ \tau_3^-{}'(y) + \int\limits_0^y \tau_3^-{}'(y_1) N(1,y;1,y_1)dy_1 - \int\limits_0^y \tau_2^+{}'(y_1) N(1,y;0,y_1)dy_1 = F_2(y). \end{cases}$$

Bu yerda

$$F_1(y) = -\int\limits_0^1 \tau_1^+{}'(x_1) N(0,y;x_1,0)dx_1 + \frac{\varphi_2(y)}{1+\mu_2(y)},$$

$$F_2(y) = -\int\limits_0^1 \tau_1^+{}'(x_1) N(1,y;x_1,0)dx_1 + \frac{\varphi_3(y)}{1+\mu_3(y)}.$$

Xulosa. Integral tenglamalarning nazariyasiga ko‘ra [9], yuqorida keltirilgan Volterra tipidagi integral tenglamalar sistemasi bir qiymatli va qo‘shimcha shartlarsiz yechimga ega bo‘ladi.

Keyin masalaning yechimini Ω_0 soha ichida (11) formula orqali, qolgan sohalarda esa Dalamber formulasi yordamida Koshi masalasining yechimi sifatida topamiz. Teorema to‘liq isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бицадзе А.В., Самарский Л.Л. О некоторых простых обобщениях линейных эллиптических краевых задачах. ДАН СССР, 1969, т. 185, № 4, с. 739–740.

(2). Салахитдинов М.С., Мирсабуров М. Нелокальные задачи для уравнений смешанного типа с сингулярными коэффициентами. Ташкент, “Университет”, 2005, 250 с.; Джураев Т.Д., Сопуев А., Мамаджонов М. Краевые задачи для уравнений параболо-гиперболического типа. Ташкент, “Фан”, 1986, 220 с.

(3). Эгамбердиев У. Краевые задачи для смешанных параболо-гиперболических уравнений с двумя линиями изменения типа. Автореф. дис. ... канд. физ.-мат. наук, Ташкент, 1984.

(4). Ельсев В.А., Лесев В.Н. О двух краевых задачах для смешанных уравнений с перпендикулярными линиями изменения типа. Владикавказский математический журнал, 2001, № 4 (октябрь–декабрь). Т.3, с. 9–22.

(5). Berdyshev A.S., Karimov B.T. Some non-focal problems for the parabolic-hyperbolic equation with non-characteristic line of changing type// Central European Journal of Mathematics. 2006. 64 (2). p. 183–193.

(6). Berdyshev A.S., Rakhmatullayeva N.A. Noniocal problems with special gluing for a parsbolic-hyperbolic equation/Further progress in Analysis. Proceyedings of the 6 International ISAAC Congress. Ankara-Turkey, 2007, p. 727–734,

(7). Тихонов А.Н., Самарский А.А. Уравнения математической физики. М., изд-во МГУ, 1999, 799 с.

(8). Краснов М.Л. Интегральные уравнения. Введение в теорию. М., “Наука”, 1975, 303 с.

Zikrillaev Nurilla Fathullayevich (Toshkent davlat Texnika universiteti “Raqamli elektronika va mikroelektronika” kafedrasi professori),

Tursunov Orzibek Bahrom o‘g‘li (Toshkent davlat Texnika universiteti “Raqamli elektronika va mikroelektronika” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi)

MONOKRISTALL KREMNIYDA RUX VA SELEN ATOMLARINI DIFFUZION LEGIRLASH ORQALI Si_2ZnSe BINAR NANOKLASTERLARNI HOSIL QILISH VA ULARNING ELEKTROFIZIK XOSSALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada monokristall kremniy (Si) panjarasida rux (Zn) va selen (Se) kirishma atomlarini ikki bosqichli past haroratli diffuzion texnologiya yordamida kiritish asosida Si^2ZnSe tuzilishidagi nanoo‘lchamdagi binar birikmali elementar yacheykalarni shakllantirish natijalari bayon etilgan. Tajribalar KEF-100 ($N_P=4\cdot10^{13}$ sm^{-3}) va KDB-0,5 markali monokristall kremniyda T=1150°C haroratda, t=1÷4 soat davomida gaz fazasidan diffuziya usulida amalga oshirilgan. Skanerlovchi elektron mikroskop (SEM JSM-IT 200), rentgenfazaviy tahlil (XRD PANalytical Empyrean), Raman spektrometri va UV-1900i Shimadzu spektrofotometri yordamida olingan kremniy namunalarining element tarkibi va optik xossalari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *kremniy, diffuzion legirlash, ZnSe binar birikma, nanoklaster, taqiqlangan soha kengligi, fotoelektrik xossalar, infraqizil fotodetektor.*

ФОРМИРОВАНИЕ НАНОРАЗМЕРНЫХ БИНАРНЫХ СОЕДИНЕНИЙ Si_2ZnSe В МОНОКРИСТАЛЛИЧЕСКОМ КРЕМНИИ ПУТЕМ ВВЕДЕНИЯ АТОМОВ ПРИМЕСЕЙ ЦИНКА И СЕЛЕНА ПОСРЕДСТВОМ ДВУХСТАДИЙНОГО НИЗКОТЕМПЕРАТУРНОГО ДИФФУЗИОННОГО ПРОЦЕССА

Аннотация. *В данной работе описывается формирование наноразмерных бинарных соединений Si_2ZnSe в монокристаллическом кремнии путем введения атомов примесей цинка (Zn) и селена (Se) посредством двухстадийного низкотемпературного диффузионного процесса. Эксперименты проводились на кремнии марок KEF-100 ($NP=4\times10^{13}$ $см^{-3}$) и KDB-0.5 при температуре T=1150°C в течение t=1÷4 ч методом газофазной диффузии. Элементный состав и оптические свойства образцов изучались с помощью СЭМ (JSM-IT 200), рентгеновской дифракции (PANalytical Empyrean), рамановской спектрометрии и спектрофотометрии UV-1900i Shimadzu. Ширина запрещенной зоны Si2ZnSe, образованного на поверхности Si, была определена методом Таука и составила $Eg(Si_2 ZnSe)$ =1,24 эВ.*

Ключевые слова*: кремний, диффузионное легирование, бинарное соединение ZnSe, нанокластер, ширина запрещенной зоны, фотоэлектрические свойства, инфракрасный фотодетектор.*

FORMATION OF SI_2ZNSE BINARY NANOCLUSTERS IN MONOCRYSTALLINE SILICON BY DIFFUSION DOPING OF ZINC AND SELENIUM ATOMS AND THEIR ELECTROPHYSICAL PROPERTIES

Annotation*. This paper reports the formation of Si_2ZnSe nanoscale binary compound unit cells in monocrystalline silicon by introducing zinc (Zn) and selenium (Se) impurity atoms via a two-stage low-temperature diffusion process. Experiments were carried out on KEF-100 ($N_P=4\times10^{13}$ cm^{-3}) and KDB-0.5 grade silicon at T=1150°C for t=1÷4 h by gas-phase diffusion. The elemental composition and optical properties of the samples were studied by SEM (JSM-IT 200), XRD (PANalytical Empyrean), Raman spectrometry and UV-1900i Shimadzu spectrophotometry.*

Keywords: *silicon, diffusion doping, ZnSe binary compound, nanocluster, bandgap, photoelectric properties, infrared photodetector.*

Kirish. Zamonaviy nanoelektronika va fotoenergetika sohasida kremniy asosidagi yarim o‘tkazgich materiallarning elektrofizik va fotoelektrik parametrlarini kengaytirish dolzarb muammo sifatida kun tartibida turibdi. Elementar Si ning taqiqlangan soha kengligi (E_g = 1,12 eV) va spektral sezgirligi $\lambda < 1,1$ mkm oralig‘ida cheklangan bo‘lib, infraqizil (IQ) va ultrabinafsha (UB) nurlanish diapazonlarida ishlaydigan fotodetektor va fotoelementlar yaratishda bu holat asosiy cheklovchi omil hisoblanadi [1–3].

AIIBVI birikmali yarimo‘tkazgichlar, xususan, rux selenid (ZnSe, E_g=2,70 eV, to‘g‘ri zonaali o‘tish) — LED, lazerlash va IQ detektor texnologiyalarida muhim o‘rin tutadi [4,5]. Biroq ZnSe kristallini alohida substrat sifatida ishlab chiqarish texnologik jihatdan murakkab va qimmat. Shuning uchun Si kristall panjarasida ZnSe tuzilishidagi binar birikmali nanoklasterlarni hosil qilish ikkala material xossalarini birlashtirishning qulay va iqtisodiy maqsadga muvofiq yo‘lidir.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasiga ko‘ra, Hu va boshq. [6] Si/ZnSe qobiqli nanostrukturalarni sintez qilishdi. Baxodirxonov va boshqlar [7;8] kremniydagi II–VI guruh elementlari asosidagi birikmalarni o‘rganishdi; Saidov va boshqlar [9] $(Si^2)_{1-x}(ZnSe)_x$ qattiq eritma fotoelementlarini tahlil qilishdi.

Ushbu maqolaning maqsadi–(i) monokristall Si da ikki bosqichli past haroratli diffuzion texnologiya yordamida Si^2ZnSe binar nanoklasterlari hosil qilishning optimal shartlarini aniqlash, (ii) hosil bo‘lgan nanoklasterlarning element tarkibi, taqiqlangan soha kengligi va fotoelektrik parametrlarini zamonaviy tahlil usullari bilan eksperimental tasdiqlash.

Materiallar va usullar. Boshlang‘ich material sifatida n-turdagi KEF-100 ($N_P = 4\cdot10^{13}$ sm^{-3}) va p-turdagi KDB-0,5 ($N_B = 3\cdot10^{17}$ sm^{-3}) markali monokristall kremniy plastinkalari tanlab olindi. Namunalar STX-402 olmos ipli keskich bilan $10\times8\times1$ mm^3 o‘lchamda kesib olindi va M14/M5 olmos kukuni bilan mexanik ishlov berildi. Sirt tozalash uchun HNO_3:HF = 4,5:1 eritmasida kimyoviy yemirilish amalga oshirildi.

Kirishma atomlari sifatida kimyoviy tozaligi 99,99% bo‘lgan Zn va Se elementlari tanlandi. Diffuziya jarayoni vakuumli kvars ampulalarda ($P = 10^{-4}\div10^{-5}$ mm.sim.ust.) TK-2-3-17A2 markali gorizontal elektr pechda amalga oshirildi. Harorat ko‘tarilish tezligi: 5°C/min; diffuziya rejimlari: T = 900÷1250°C, t = 1÷10 soat.

Selen kirishma atomlarining Si sirtida kuchli eroziya hosil qilishi ma’lum muammo [10]. Uni bartaraf etish uchun M.K.Baxodirxonov ilmiy maktabida ishlab chiqilgan va ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan ikki bosqichli texnologiya quyidagicha amalga oshirildi:

1-bosqich. Harorat xona temperaturasidan T = 600÷700°Cgacha 5°C/min tezlik bilan oshirildi; Se atomlari sekin bug‘ga aylanib, Si sirtiga joylashdi.

2-bosqich. T = 1150°Cgacha tez (150÷200°C/min) ko‘tarilib, t = 1÷4 soat ushlab turildi. Kvars ampuladagi Se partsial bosimi Avogadro soni va massani o‘lchash orqali P ≈ 0,5 atm ga sozlandi. Natijada selen atomlarining gaz-bug‘ holatidagi bosimi boshqarildi va kremniy sirtida eroziya kuzatilmadi.

Olingan namunalar quyidagi zamonaviy usullar bilan tavsiflandi: skanerlovchi elektron mikroskopiya va EDS element tahlili (SEM JSM-IT 200, Carl Zeiss), rentgenfazaviy tahlil (XRD PANalytical Empyrean), Raman spektrometri (508 PV), UV-ko‘rinadigan nurlanish spektrofotometri (Shimadzu UV-1900i, λ = 190÷1100 nm), atom kuchlari mikroskopi (Core AFM), Van-der-Pau usulida elektrofizik parametrlar (Ecopia HMS-3000), taqiqlangan soha kengligi Taus formulasi [11] bilan:

$$E_g = 1240/\lambda^*, \quad \alpha = 2{,}303 \cdot \log(A/t), \ (\alpha h\nu)^2 = K(h\nu - E_g) \quad \ldots(1)$$

Bu yerda: α – nurni yutilish koeffitsiyenti, h – Plank doimiysi, ν – chastota, K – proporsionallik doimiysi.

Tajriba natijalari va muhokama. 1-jadval Si ga kiritilgan Zn va Se kirishma atomlarining T = 1150°C da turli diffuziya vaqtlarida kremniyga kirish chuqurliklarini ko‘rsatadi. Diffuziya koeffitsiyentlari: $D_{Se} = 4{,}01 \cdot 10^{-9}$ sm^2/s va $D_{Zn} = 1{,}2 \cdot 10^{-6}$ sm^2/s.

1-jadval. Kirishma atomlarining T=1150°C da kirish chuqurligi, mkm

Kirishma atomlari	60 s	600 s	900 s	1800 s	3600 s	D, sm²/s
Selen (Se)	7	17	21	27	37	$4{,}01 \cdot 10^{-9}$
Rux (Zn)	85	280	350	470	665	$1{,}2 \cdot 10^{-6}$

Mavjud diffuzion texnologiya bo‘yicha (bir bosqichli, harorat tez ko‘tarilgan holda) Si namunalari sirtida 5÷10 mkm chuqurlikkacha erozion yemirilish kuzatildi. Ikki bosqichli texnologiya bo‘yicha (harorat bosqichma-bosqich, 5°C/min tezlikda oshirilgan holda) eroziya deyarli bartaraf etildi; rux va selen kirishma atomlarining kremniydagi eruvchanlik konsentratsiyasi 1,5÷2 barobar oshdi.

Si_2ZnSe nanoklasterlari mavjud kremniy namunalarining element tarkibi JSM-IT 200 markali SEM-EDS qurilmasida o‘rganildi. 2-jadvalda namuna sirtidagi o‘rtacha qiymatlar keltirilgan.

2-jadval. Si sirtida hosil bo‘lgan ZnSe binar birikmali nanoklasterlarning element tarkibi (SEM-EDS)

Element	Massa ulushi, %	Atom ulushi, %
Si	93,58 ± 0,37	97,43 ± 0,39
Zn	2,52 ± 0,16	1,13 ± 0,07
Se	3,89 ± 0,39	1,44 ± 0,14
Jami	100,00	100,00

Atom foizlarida Zn:Se ≈ 1,13:1,44 ≈ 0,78 nisbat kuzatildi. Bu Si panjarasida ZnSe stexiometriyaga nisbatan Zn ning biroz kamligini ko‘rsatadi va asosiy birikmaning $Si_2Zn^-Se^{++}$ ko‘rinishidagi ion-kovalent bog‘lanishga mos keladi [12]. Kremniy sirtidan 5 mkm chuqurligida esa Zn:Se ≈ 30,5:29,5 (3-jadval) nisbatiga yaqin bo‘lib, bu diffuziya chuqurligida stexiometrik ZnSe tuzilishi shakllanganidan dalolat beradi.

3-jadval. Si sirtida Zn va Se kirishma atomlari boyitilgan qatlamining element tarkibi

Element	Massa ulushi, %	Atom ulushi, %
Si	20,58	40,0
Zn	36,65	30,5
Se	42,77	29,5
Jami	100,00	100,0

Raman spektrida (boshlang‘ich Si): 525 sm^{-1}da Si ning fonon cho‘qqisi kuzatildi. Zn va Se bilan legirlangan Si namunasida: 350 sm^{-1} va 950 sm^{-1} yaqinida yangi cho‘qqilar paydo bo‘ldi. Bu cho‘qqilar ZnSe va Si^2ZnSe birikmalarining hosil bo‘lishini tasdiqlaydi va sof ZnSe kristallining Raman spektri bilan mos keladi.

Shimadzu UV-1900i da xona haroratida (T = 300 K) o‘lchangan UV-ko‘rinadigan yutilish spektri asosida Taus grafikidan quyidagi qiymatlar aniqlandi:

4-jadval. Namunalarning taqiqlangan soha kengligi

Namuna	E^G (eV)	Izoh
Boshlang‘ich Si (KEF-100)	1,12	Adabiyot qiymati bilan mos [1]
Si (T=1150°C, t=2 soat, diffuziantsiz)	1,12	Harorat ta’siri sezilarli emas
Si_2ZnSe (Zn+Se, T=1150°C, t=2 soat)	1,24	Yangi birikma E^G > Si E^G
Sof ZnSe kristall (mos yozuv)	2,70	Madelung [14]

Si panjarasida hosil bo‘lgan Si^2ZnSe birikmalarining E_g = 1,24 eV – boshlang‘ich Si ning 1,12 eV va sof ZnSe ning 2,70 eV orasida joylashgan. Bu E_g qiymati Zikrillayev va boshqalar [15] tomonidan hisoblangan nisbiy og‘ish $\Delta r/r$ = 3,4% ga mos keladi (3.7-jadval: ZnSe juftligi uchun 1-toifa, eng mos juftlik). $(Si_{1-x})(ZnSe)_x$ qattiq eritmasining taqiqlangan soha kengligi x = 0÷0,1 oralig‘ida 0,25% dan oshmaydi – bu ZnSe birikmalarining Si panjarasiga integratsiyasi ketma-ket sodir bo‘lishining belgisidir.

Si kristall panjarasida II va VI guruh elementlari alohida atom holatida bo‘lganda: Zn ioni ikki karra manfiy zaryad (Zn^{--}), Se ioni ikki karra musbat zaryad (Se^{++}) hosil qiladi. Bu ionlar atrofida kuchli elektrostatik maydon paydo bo‘lib, Si panjarasini deformatsiya qiladi. Agar diffuziya shartlari maqbul bo‘lsa, Zn va Se ionlari Si panjarasida yonma-yon joylashib, Se^{++} ning ikkita qo‘shimcha elektroni Zn^{--} ga o‘tadi. Natijada elektroneytral ion-kovalent $Si^2Zn^-Se^{++}$ birikma hosil bo‘ladi.

Bu mexanizm uchun zaruriy shart: Zn va Se kovalent radiuslari yig‘indisining Si kovalent radiuslari yig‘indisidan og‘ishi $\Delta r < 0{,}2r_{Si}$ bo‘lishi [12]. ZnSe uchun: $r_{Zn} + r_{Se}$ = 2,42 Å, Δr = 0,08 Å, nisbiy og‘ish 3,4% – bu 1-toifaga kiradi va eng qulay juftlik hisoblanadi.

Shakllanish bog‘lanish energiyasi Arrhenius tenglamasi asosida T = 1150°C da E = 0,78 eV ga teng bo‘ldi. ZnSe va Si^2 izovalentlik va elektroneytrallik sharti: $Z_{Zn} + Z_{Se} = Z_{Si} + Z_{Si}$. Hosil bo‘lgan binar birikmalar: (a) Si kristall panjarasining ichki tetraedral bog‘lanishini buzmaydi; (b) taqiqlangan sohada chuqur energetik sathlar hosil qilmaydi; (c) qo‘shimcha erkin zaryad tashuvchilar yaratmaydi; (d) tizimning erkin energiyasini sezilarli kamaytiradi.

Xulosa. Ikki bosqichli past haroratli diffuziya texnologiyasida Se bug‘ bosimini boshqarish orqali monokristall Si sirti eroziyasi bartaraf etilib, kirishmalar eruvchanligi 1,5–2 barobarga oshirildi hamda tizimning erkin energiyasini kamaytirishga intiluvchi spontan mexanizm asosida o‘lchami D= 34 nm bo‘lgan ZnSe va Si_2ZnSe nanoklasterlari shakllantirildi. Ilk bor aniqlangan taqiqlangan soha kengligi E_g = 1,24 eV bo‘lgan ushbu yangi geterostruktura material hisobiga namunalarning spektral sezgirligi yaqin infraqizil λ = 1 -4 mkm sohasiga kengaydi, fototok miqdori 100 martadan ortiq o‘sdi va salt yurish kuchlanishi Us.yu. = 461 mV ga yetdi, bu esa kremniyli fotoelektrik qurilmalarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Sze S.M., Ng K.K. Physics of Semiconductor Devices. 3rd ed. Wiley-Interscience, Hoboken NJ, 2007, 815 p.

(2). Madelung O. (Ed.) Semiconductors: Data Handbook. 3rd ed. Springer, Berlin, 2004, 692 p.

(3). Stoneham A.M. Theory of Defects in Solids. Oxford Univ. Press, 2001, 955 p.

(4). Kolodziejski L.A., Gunshor R.L., Nurmikko A.V. Wide bandgap II–VI heterostructures for blue/green light emitters. Annu. Rev. Mater. Sci. 1995, vol. 25, p. 711–753.

(5). Morkoç H. et al. Large-band-gap SiC, III–V nitride, and II–VI ZnSe-based semiconductor device technologies, J.Appl. Phys. 1994, vol. 76, № 3, p. 1363–1398.

(6). Hu J.Q., Bando Y., Zhang J.H., Golberg D. Si/ZnS and Si/ZnSe core/shell nanocrystal structures. Appl. Phys. Lett. 2004, vol. 85, № 16, p. 3623–3625.

(7). Баходирхонов М.К., Зикриллаев Н.Ф., Исамов С.Б., Турекаев Х.С., Валиев С.А. Физика и техника полупроводников. 2022, т. 56, вып. 2, с. 199–203.

(8). Баходирхонов М.К., Кенжаев З.Т., Ковешников С.В., Усмонов А.А., Мавлонов Г.Х. Неорганические материалы. 2022, т. 58, № 1, с. 3–9.

(9). Saidov A.S., Usmonov Sh.N., Holikov K.T., Saparov D. Synthesis and characterization of $(Si_2)_{1-x-\gamma}(Ge_2)_x(GaAs)_\gamma$ solid solutions. Technical Physics Letters. 2007, vol. 33, № 8, p. 701–703.

(10). Zikrillaev N.F., Tursunov O.B. Study of silicon diffusionally doped with Zn and Se atoms. Alternative Energy and Ecology. 2022, № 6 (399), p. 36–39.

(11). Tauc J., Grigorovici R., Vancu A. Optical properties and electronic structure of amorphous germanium // Phys. Status Solidi. 1966, vol. 15, № 2, p. 627–637.

(12). Zikrillaev N.F., Tursunov O.B., Kushiyev G.A. Development and Creation of a New Class of Graded-Gap Structures Based on Silicon with the Participation of Zn and Se Atoms. Surface Engineering and Applied Electrochemistry. 2023, vol. 59, № 5, p. 670–673.

Inomova Ozodaxon Shavkatjon qizi (Namangan davlat universiteti talabasi;
https://orcid.org/0009-0007-1580-9178; e-mail: shavkatjonovna0217@gmail.com)

OMBORXONA LOGISTIKASIDA KO‘P ROBOTLI TIZIMLARNI TRANSPORT MASALASINI DINAMIK VAQT CHEKLOVLARI OSTIDA MODELLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada omborxona logistikasida ko‘p robotli tizimlarda vazifalarni taqsimlash masalasi transport masalasi asosida matematik modellashtirilgan. Modelda robotlar va vazifalar o‘rtasidagi moslik xarajatlar matritsasi orqali ifodalanib, vazifalarning bajarilishida vaqt cheklovlari (deadline va kechikish jarimalari) hisobga olingan. Taklif etilgan yondashuvda klassik transport modeli kengaytirilib, unga vaqtga bog‘liq cheklovlar va kechikish funksiyasi kiritilgan. Bu esa real omborxona sharoitida buyurtmalarni o‘z vaqtida bajarish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *omborxona logistikasi, ko‘p robotli tizimlar, shimoli-g‘arbiy burchak usuli, minimal elementlar usuli, potensiallar usuli, dinamik vaqt cheklovlari, kechikish jarimasi.*

Иномова Озодахон Шавкатжон кизи (студентка Наманганского государственного университета;
https://orcid.org/0009-0007-1580-9178; e-маил: shavkatjonovna0217@gmail.com)

МОДЕЛИРОВАНИЕ МНОГОРОБОТНЫХ СИСТЕМ В СКЛАДСКОЙ ЛОГИСТИКЕ В УСЛОВИЯХ ДИНАМИЧЕСКИХ ВРЕМЕННЫХ ОГРАНИЧЕНИЙ ТРАНСПОРТНОЙ ЗАДАЧИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается математическая модель распределения задач в многороботных системах складской логистики на основе транспортной задачи. В предложенной модели соответствие между роботами и задачами представлено в виде матрицы затрат, а также учитываются временные ограничения (дедлайны и штрафы за задержку) при выполнении задач. Предложенный подход расширяет классическую транспортную модель за счёт введения временно-зависимых ограничений и функции штрафа за задержку. Это позволяет эффективно использовать ресурсы и обеспечивать своевременное выполнение заказов в реальных условиях складской логистики.*

Ключевые слова: *складская логистика, многороботные системы, метод северо-западного угла, метод минимального элемента, метод потенциалов, динамические временные ограничения, штраф за задержку.*

Inomova Ozodaxon Shavkatjon qizi (Student of Namangan state university;
https://orcid.org/0009-0007-1580-9178; e-mail: shavkatjonovna0217@gmail.com)

MODELING OF MULTI-ROBOT SYSTEMS IN WAREHOUSE LOGISTICS UNDER DYNAMIC TIME CONSTRAINTS OF THE TRANSPORTATION PROBLEM

Annotation. *This article presents a mathematical model of task allocation in multi-robot systems in warehouse logistics based on the transportation problem. In the proposed model, the correspondence between robots and tasks is represented using a cost matrix, and time constraints (deadlines and delay penalties) in task execution are taken into account. The proposed approach extends the classical transportation model by incorporating time-dependent constraints and a delay penalty function. This enables efficient utilization of resources and timely completion of orders in real warehouse environments.*

Keywords: *warehouse logistics, multi-robot systems, northwest corner method, least cost method, potential method, dynamic time constraints, delay penalty.*

Kirish. Zamonaviy omborxona logistikasida avtomatlashtirilgan tizimlarning samaradorligi to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘p agentli tizimlarning (Multi-Agent Systems) muvofiqlashtirilgan ishlashiga bog‘liq [1]. So‘nggi yillarda omborxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ayniqsa robotlashtirilgan transport tizimlarini integratsiya qilish ishlab chiqarish unumdorligini oshirishning asosiy omiliga aylandi [4]. Biroq, dinamik o‘zgarib turuvchi muhitda robotlarning vaqt cheklovlari (Time Windows) ostida ishlashi logistika tizimlarining yuqori darajada moslashuvchanligini taqozo etadi [3].

Mavjud tadqiqotlar ko‘p agentli yo‘l qidirish (MAPF) muammolarini hal qilishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da [2], vaqt omilini aksariyat hollarda qat’iy cheklov (Hard Constraint) sifatida qarashadi. Bu yondashuv dinamik vaziyatlarda tizimning “yechim topa olmaslik” (infeasibility) holatiga tushib qolishiga olib keladi [5]. Hozircha vaqt cheklovlarini operatsion xarajatlar tarkibiga kiritib, uni dinamik jarima funksiyasi orqali optimallashtirish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Shu bois ushbu tadqiqotning maqsadi

– dinamik vaqt cheklovlari ostida robotlarning samaradorligini ta’minlovchi yangi matematik maqsad funksiyasini ishlab chiqishdir. Tadqiqot doirasida vaqt kechikishi va xarajat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi modelni shakllantirish hamda robotlarning dinamik muhitda ustuvorliklarini aniqlashda jarima funksiyasining rolini baholash vazifalari belgilandi. Ushbu ish doirasida ”Ko‘p agentli omborxona tizimlarida vaqt cheklovlarini qat’iy cheklov o‘rniga maqsad funksiyasining tarkibiy qismi sifatida kiritish, tizimning umumiy logistika samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?” degan tadqiqot savoliga javob izlanadi. Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, biz vaqt omilini tizimning statik cheklovi emas, balki dinamik xarajat o‘zgaruvchisi sifatida taqdim etuvchi yangi maqsad funksiyasi formulasini taklif qilamiz. Bu yondashuv tizimga murakkab sharoitlarda ham optimal yechim topish va robotlarning bo‘sh turish vaqtini kamaytirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Omborxona logistikasida avtomatlashtirilgan tizimlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha Fragapane va boshqalar [1] o‘z tadqiqotlarida ichki transport tizimlari va avtomatlashtirilgan saqlash hamda qidirish tizimlarini (AS/RS) integratsiya qilish omborxona unumdorligini tubdan oshirishini ko‘rsatib berishgan. Mualliflar tizimlarning o‘zaro bog‘liqligi logistika xarajatlarini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, Wang va uning hamkasblari [3] aqlli omborxonalarda vazifalarni dinamik taqsimlash va yo‘l rejalashtirishning murakkabligiga e’tibor qaratishadi. Ularning fikricha, dinamik muhitda robotlarning vazifalarini rejalashtirish statik modellarga qaraganda yuqori samaradorlik va moslashuvchanlikni talab qiladi. Vaqt cheklovlari (Time Windows) ostida robotlar harakatini rejalashtirish masalasi Zhang va boshqalar [4] tomonidan dinamik muhitlar misolida chuqur o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy qat’iy cheklovlar dinamik muhitdagi kutilmagan vaziyatlarda tizimning barqarorligini pasaytirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Chen va Li [5] o‘zlarining so‘nggi tadqiqotlarida omborxona robotlari uchun ko‘p maqsadli optimallashtirish (multi-objective optimization) tendensiyalarini tahlil qilganlar. Ular robotlarning energiya sarfi, vaqt samaradorligi va xarajatlarni muvozanatlashda yangi yondashuvlar zarurligini ta’kidlab, dinamik vaqt cheklovlarini optimallashtirish masalalarini kelajakdagi muhim tadqiqot yo‘nalishi sifatida belgilashgan. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar logistik operatsiyalarni optimal-lashtirishga qaratilgan bo‘lsa-da, vaqt omilini jarima funksiyasi orqali maqsad funksiyasining tarkibiy qis-miga aylantirish hali to‘liq hal etilmagan masala hisoblanadi.

Metodologiya. 3.1. Matematik modellashtirish. Ko‘p robotli tizimlarda transport masalasini dinamik vaqt ostida optimallashtirish uchun biz an’anaviy transport modelini jarima funksiyasi bilan kengaytiramiz. Taklif etilayotgan maqsad funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\min Z = \sum_{i=1}^{m}\sum_{j=1}^{n}(c_{ij}\cdot x_{ij}) + \sum_{i=1}^{m}\sum_{j=1}^{n}\left(\lambda\cdot\max\left(0,|\,t_{ij}-d_{ij}|\right)x_{ij}\right).$$

Bu yerda:

- $c_{ij}-A_i$ punktdan B_j punktga yetkazishning asosiy xarajati;
- $x_{ij}-$ yetkazilayotgan mahsulot miqdori;
- $t_{ij}-$ robotning A_i punktdan B_j punktga yetib borish vaqti;
- $d_{ij}-$ chegaralangan (belgilangan) muddat;
- $\lambda-$ belgilangan vaqtdan kech qolsa jarima koeffitsiyenti;
- R_i-A_i punktga biriktirilgan robot.

3.2. Algoritmik yondashuv. Masalani yechish uchun, dastlab, Shimoli-g‘arbiy burchak yoki minimal elementlar usullari orqali boshlang‘ich reja tuziladi [6]. So‘ngra potensiallar usuli yordamida jarima omillari inobatga olingan holda optimal yechim izlanadi.

Ushbu tadqiqotda omborxona logistikasida ko‘p robotli tizimlar (Multi-Agent Systems) uchun dinamik vaqt cheklovlari ostida optimallashtirish muammosini yechishga qaratilgan yangi matematik model taklif etiladi. Modelning asosiy yondashuvi – vaqt omilini qat’iy cheklov (Hard Constraint) sifatida emas, balki maqsad funksiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan dinamik jarima funksiyasi (Penalty Function) sifatida shakllantirishdan iborat. Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan maqsad funksiyasi vaqt cheklovlari va xarajatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash orqali omborxona robotlarining umumiy unumdorligini oshirishda samarali yechim bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar. Ushbu tadqiqotda taklif etilgan maqsadli funksiyaning samaradorligi robotlarning transport jadvalini shakllantirish jarayonida sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalar modelning nazariy va amaliy afzalliklarini quyidagi jihatlarda isbotlaydi:

Taklif etilgan model transport xarajatlari va yetkazib berish vaqti omillarini yagona maqsadli funksiyada birlashtirish imkonini berdi. Avvalgi usullardan farqli o‘laroq, bizning yondashuvimiz belgilangan deadlinelarni tizimning ajralmas qismi sifatida qabul qiladi. Bu esa robotlarning harakatlanish yo‘nalishini optimallashtirishda ikki tomonlama samaradorlikka erishishga olib keldi: eng arzon yo‘llarni tanlash bilan bir qatorda, tizim ortiqcha vaqt sarfini (jarimalarni) ham minimallashtiradi. Deadlinelarga amal qilish ko‘rsatkichi oshadi, chunki jarima funksiyasi robotlarni belgilangan vaqt doirasida ishlashga rag‘batlantiradi.

Taklif etilgan formula robotlarning ish unumdorligini pasaytirmagan holda, omborxonadagi resurslar taqsimotini maqbullashtiradi. Xulosa qilish mumkinki, xarajat va vaqt omillarining integratsiyasi nafaqat transport masalasini yechishda, balki ko‘p agentli (multi-agent) tizimlarni boshqarishda ham yuqori natijalar beradi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, dinamik vaqt cheklovlari ostida robotlar logistikasini modellashtirishda jarima funksiyasi yondashuvi qat’iy cheklovli modellarga qaraganda ancha yuqori moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Bizning tadqiqotimiz ushbu integratsiyani matematik jihatdan yanada chuqurlashtirib, robotlarning real vaqt rejimida qabul qiladigan qarorlariga iqtisodiy (xarajat-vaqt muvozanati) tus berdi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ushbu model hozirgi bosqichda nazariy xarakterga ega. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu matematik formulani yechish uchun enetik algoritmlar (Genetic Algorithms) yoki Mustahkamlovchi o‘qitish (Reinforcement Learning) usullarini qo‘llash orqali real vaqt rejimida yechim ishlab chiqish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, modelni juda katta hajmdagi (1000+ robot) omborxonalarda sinab ko‘rish orqali uning miqyoslanish imkoniyatlarini tekshirish maqsadga muvofiqdir. Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan yondashuv logistika tizimlarining avtonomligini va vaqt omiliga nisbatan tolerantligini oshirish uchun yangi nazariy poydevor yaratadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot dinamik vaqt cheklovlari ostida omborxona logistikasida ko‘p robotli tizimlarni modellashtirishning yangi yondashuvini taqdim etdi. Tadqiqot davomida an’anaviy qat’iy cheklovli modellarning cheklangan imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning o‘rniga vaqt omilini jarima funksiyasi orqali maqsad funksiyasining tarkibiy qismiga kirituvchi yangi matematik model ishlab chiqildi. Asosiy xulosa quyidagilardan iborat: taklif etilgan jarima funksiyasi yordamida robotlar dinamik muhitdagi kutilmagan o‘zgarishlarga (tirbandlik, kechikishlar) moslashib, yechim topa olmaslik holatidan qochish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Model nazariy jihatdan vaqt va xarajat o‘rtasidagi o‘zaro almashinuv muvozanatini saqlash orqali logistika tizimlarining avtonomligini ta’minlash uchun yangi poydevor yaratdi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dinamik jarima funksiyalaridan foydalanish robotlashtirilgan omborxonalarda operatsion samaradorlikni oshirishda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Kelgusidagi ishlar mazkur matematik modelni real vaqt rejimida yechuvchi meta-evristik algoritmlar (Genetik algoritmlar yoki Reinforcement Learning) bilan boyitish va yirik miqyosdagi avtomatlashtirilgan tizimlarda sinovdan o‘tkazishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Fragapane G., Hvolby H.-H., Sgarbossa F., Strandhagen J.O. Increasing warehouse efficiency by combining internal transport and automated storage and retrieval systems. International Journal of Production Economics. 2020, vol. 226, Art. 107629. DOI: 10.1016/j.ijpe.2020.107629.

(2). Palleschi A., Pollayil G.J., Pollayil M.J., Garabini M., Pallottino L. High-Level Planning for Object Manipulation With Multi Heterogeneous Robots in Shared Environments // IEEE Robotics and Automation Letters. 2022, vol. 7, № 2, p. 3138–3145. DOI: 10.1109/LRA.2022.3145987.

(3). Wang J., Zheng S. Research on Path Planning Algorithms of Multiple Mobile Robots in Intelligent Warehousing. Proceedings of ICAROB 2022. 2022, p. 313–317. DOI: 10.5954/ICAROB.2022.OS34-1.

(4). Huo J., Zheng R., Zhang S., Liu M. Multi-Robot Path Planning in Narrow Warehouse Environments with Fast Feasibility Heuristics. 41st Chinese Control Conference (CCC). 2022, p. 1840–1845. DOI: 10.23919/ CCC55666. 2022.9902480.

(5). Chen J., Chen W., Li J., Wei X. va boshq. Path Planning Considering Time-Varying and Uncertain Movement Speed in Multi-Robot Automatic Warehouses: Problem Formulation and Algorithm // 2022 IEEE 8th International Conference on Cloud Computing and Intelligent Systems (CCIS). 2022, DOI: 10.1109/CCIS57298. 2022. 10016376

(6). Inomova O.Sh. Transport masalasi yechimining avtomatlashtirilgan modeli. Python dasturlash tili asosidagi yondashuv. Yil tadqiqotchisi–2025. 2026, 2972–2984.-betlar URL: https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble/ article/ view/ 5029/ 7699 (murojaat sanasi: 13.06.2026).

Almuratov Shavkat Narpulatovich (f-m.f.b.f.d. dotsent, Renaissance University; almuratovshavkat11@gmail.com),
Butunov Jaxongir Ruziqulovich (Toshkent Kimyo-texnologiya instituti; j.butunov@tkti.uz),
Savenko Oksana Viktorovna (Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi; oksi_2005@mail.ru)

SIQILUVCHAN SUYUQLIK TO‘LDIRILGAN YUPQA DEVORLI SILINDRIK QOBIQLARNING ERKIN TEBRANISHLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Siqiluvchan suyuqlik to‘ldirilgan yupqa devorli silindrik qobiqning erkin tebranishlari tadqiq etildi. Tizim parametrlarining ba’zi qiymatlarida xususiy tebranish chastotalari aniqlandi, shuningdek, "silindrik qobiq–suyuqlik" tizimining geometrik va fizik parametrlarining silindrning erkin tebranishiga ta’siri o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *kuchlanish, tebranishlar, to‘lqin, chastota, zichlik, qobiq.*

АНАЛИЗ СВОБОДНЫХ КОЛЕБАНИЙ ТОНКОСТЕННЫХ ЦИЛИНДРИЧЕСКИХ ОБОЛОЧЕК, ЗАПОЛНЕННЫХ СЖИМАЕМОЙ ЖИДКОСТЬЮ

Аннотация. *Исследованы свободные колебания тонкостенной цилиндрической оболочки, заполненной сжимаемой жидкостью. Определены собственные частоты колебаний при некоторых значениях параметров системы, а также изучено влияние геометрических и физических параметров системы «цилиндрическая оболочка – жидкость» на свободные колебания цилиндра.*

Ключевые слова: *напряжение, колебания, волна, частота, плотность, оболочка.*

ANALYSIS OF FREE VIBRATIONS OF THIN-WALLED CYLINDRICAL SHELLS FILLED WITH COMPRESSIBLE FLUID

Annotation. *Free vibrations of a thin-walled cylindrical shell filled with a compressible fluid have been investigated. Natural frequencies of the system were determined for certain parameter values, and the influence of the geometric and physical parameters of the "cylindrical shell–fluid" system on the free vibrations of the cylinder was studied.*

Keywords: *stress, vibrations, wave, frequency, density, shell.*

Kirish. Qobiqlar mashina va inshootlarning elementlari sifatida aviatsiya, kemasozlik va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Shu sababli oxirgi vaqtlarda ish sharoitida tashqi muhit bilan kontaktda bo‘lgan yupqa devorli konstruksiyalarning dinamik holati bilan bog‘liq masalalar tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Qobiqlar nazariyasining dinamik kontakt masalalari orasida elastik qattiq muhit va suyuqlik bilan kontaktda bo‘lgan elastik yupqa qobiqlarning erkin tebranishlari haqidagi masalalar muhim o‘rin tutadi.

Elastik va suyuq muhitlar bilan kontaktda bo‘lgan sferik hamda silindrik qobiqlarning erkin tebranishlar chastotalari va shakllari tadqiq etilgan. Asimptotik metodlar yordamida ko‘rilayotgan tizimlarning tebranish shakllarini aniqlash va chastotasini hisoblash uchun soddalashtirilgan yaqinlashgan formulalar olingan bo‘lib, bu olingan natijalardan foydalanishni cheklaydi, chunki bir qator muhim holatlarda o‘rganilayotgan jarayonlarni sifat jihatidan tahlil qilish imkoniyatini istisno etadi [1,2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ishda siqiluvchan suyuqlik to‘ldirilgan yupqa devorli cheksiz silindrik qobiqning erkin aksial simmetrik (o‘qqa nisbatan simmetrik) tebranishlari ko‘rib chiqiladi. "Silindrik qobiq–suyuqlik" tizimining xususiy chastotalarini topish transsendent tenglamalarni yechish bilan bog‘liqligi sababli, suyuqliksiz qobiqning tebranish chastotasi tizim tebranish chastotasi orqali oshkor ko‘rinishda ifodalanadi. Bu esa tizim chastotalar spektrini ham tahliliy, ham grafik usulda tadqiq etish imkonini beradi.

Silindrik qobiqlarning radial tebranish tenglamalari quyidagi ko‘rinishga ega [3]:

$$\frac{\partial^2 u}{\partial\phi^2}-\frac{1-\mu}{2}\frac{\partial^2 u}{\partial\theta\partial\phi}-\left(\frac{1+\mu}{2}-\frac{1-\mu}{2}\beta^2\right)\frac{\partial^2 v}{\partial\theta\partial\phi}-\frac{\partial W}{\partial\theta}-\frac{1-\mu}{2}\beta^2\frac{\partial^3 W}{\partial\theta\partial\phi^2}-\frac{\rho r^2(1-\mu^2)}{2Eh}\frac{\partial^2 u}{\partial t^2}$$

$$\frac{1+\mu}{2}\frac{\partial^2 u}{\partial\theta\partial\phi}+\frac{\partial^2 v}{\partial\theta^2}-\left(\frac{1-\mu}{2}-(1-\beta^2)\right)\frac{\partial^2 v}{\partial\phi^2}+(1+\beta^2)\frac{\partial^3 v}{\partial\theta^2\partial\phi^2}+$$

$$+\frac{\partial W}{\partial\phi}+\frac{\beta^2}{3}\frac{\partial^3 W}{\partial\phi^3}-\frac{3-\mu}{2}\beta^2\frac{\partial^3 W}{\partial\theta^2\partial\phi}-\frac{\rho r^2(1-\mu^2)}{2Eh}\frac{\partial^2 v}{\partial t^2}$$

$$\mu\frac{\partial u}{\partial\phi}-\frac{\partial V}{\partial\theta}-\beta^2\frac{\partial^3 v}{\partial\theta\partial\phi^2}-2\frac{\partial^2 W}{\partial\phi^2}-\frac{\beta^2}{3}\frac{\partial^4 W}{\partial\phi^4}-\frac{\rho r^2(1-\mu^2)}{2Eh}\left(\frac{\partial^2 W}{\partial t^2}-p\right)$$

bunda

$$\xi = \frac{x}{r}, \quad \beta^2 = \frac{h^2}{r^2}. \tag{1}$$

Suyuqlik harakatini potensialli deb hisoblab va suyuqlik harakati tenglamalaridagi konvektiv hadlarni e'tiborsiz qoldirib (inkor etib), quyidagilarni qabul qilish mumkin:

$$p = -\rho_{liq} \frac{\partial \Phi}{\partial t} \tag{2}$$

Bunda: ρ_{liq} –suyuqlik zichligi, kg/m;^{3} p –qobiq sirtining birligiga nisbatan olingan tashqi yuklama (bosim), Pa; Φ –suyuqlik tezligi potensiali (o'lchamsiz).

Suyuqlik dinamikasi akustik qo'yilishda ko'rib chiqiladi. Suyuqlikning potensialli harakati holatida, tezliklar maydonini tavsiflash uchun faqat bitta skalyar to'lqin tenglamasiga ega bo'lamiz:

$$\Delta\Phi - \frac{1}{a^2}\frac{\partial^2 \Phi}{\partial t^2} = 0 \tag{3}$$

Potensial to'lqin tenglamasini qanoatlantirgan holatda, (3)-tenglamani silindrik koordinatalarda quyidagicha ifodalaymiz:

$$\frac{\partial^2 \Phi}{\partial r^2} + \frac{1}{r}\frac{\partial \Phi}{\partial r} + \frac{1}{r^2}\frac{\partial^2 \Phi}{\partial \varphi^2} - \frac{1}{a^2}\frac{\partial^2 \Phi}{\partial t^2} = 0 \tag{4}$$

Silindr va suyuqlik birgalikda (ajralmasdan) harakatlanadi deb faraz qilinadi. (1)-formuladagi suyuqlik bosimi, suyuqlik tezlik potensiali mavjudligi farazidan kelib chiqib, (2)-tenglikdan aniqlanadi; bu potensial suyuqlik va qobiq chegarasida harakatning birgalikda bo'lish shartiga (moslik shartiga) javob beradi:

$$\frac{\partial \Phi}{\partial r}\Big|_{r=a} = \frac{\partial W}{\partial t} \tag{5}$$

Silindrik qobiq yopiq deb qabul qilamiz. Ikkita parallel aylana bo'ylab tayanchga ega bo'lgan qobiqni ko'rib chiqamiz: $\zeta = 0, \frac{\partial \zeta}{\partial x} = 0$. Ushbu holatda, tayanchdagi sirpanishni hamda deformatsiya va eguvchi momentning yo'qligini hisobga olib, quyidagi shartlarga ega bo'lamiz:

$$\frac{\partial u}{\partial z} = 0, \quad V = 0, \quad W = 0, \quad \frac{\partial^2 W}{\partial z^2} = 0$$

U holda (1) tenglamalar tizimining yechimi quyidagi ko'rinishda ifodalanishi mumkin:

$$u = A\cos m\vartheta \sin n\varphi \sin \omega t, \quad V = B\sin m\vartheta \cos n\varphi \sin \omega t, \quad W = C\sin m\vartheta \sin n\varphi \sin \omega t \tag{6}$$

$$\Phi = D(r)\sin m\vartheta \sin n\varphi \cos \omega t \tag{7}$$

bunda

$$v = n\frac{r}{I}\pi\left(\frac{n}{I}x - v\zeta\right)$$

(2)ga muvofiq, (7)ni hisobga olgan holda, p bosimi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$p = \rho_{liq} D(r)\sin m\vartheta \sin n\varphi \sin \omega t \tag{8}$$

(7)ni (4)ga qo'yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$D''(r) + \frac{1}{r}D'(r) - \left(\frac{\omega^2}{a^2} - \frac{n^2}{r^2}\right)D(r) = 0 \tag{9}$$

Silindr ichida (9)-tenglamaning yechimi quyidagi ko'rinishga ega:

$$D(r) = D_c(r_m)J_1\left(\frac{\omega_l r_m}{a}\right) \tag{10}$$

(10)ni (7)da hisobga olib,

$$\Phi = D_c(r_m)J_1\left(\frac{\omega_l r_m}{a}\right)\sin m\vartheta \sin n\varphi \cos \omega t \tag{11}$$

va (5)da (6) hamda (11)ni qo'llab, quyidagini hosil qilamiz:

$$D_c = \frac{aC}{J_1\left(\frac{\omega_l r_m}{a}\right)} \tag{12}$$

(6) va (11)ni (1)ga qo‘yib, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$(m^2v^2 + \frac{1-\mu}{2}n^2)A + mvn\left(\frac{1+\mu}{2} - \frac{1-\mu}{2}\beta^2\right)B + \left(\mu mv - \frac{1-\mu}{3}\beta^3 mvn^2\right)C = -\frac{\omega^2}{b^2}A$$

$$\frac{1+\mu}{2}mvn + \left[\frac{1-\mu}{2}(1+\beta^2) + \left(1+\frac{\beta^3}{3}\right)m^2v^2\right]B + \left[n + \frac{\beta^3}{3}n^3 - \frac{3-\mu}{2}\beta^2 mvn\right]C - \frac{\omega^2}{b^2}B$$

$$mvn + \left[n + \frac{\beta^3}{3}n^3 - \frac{2-\mu}{2}\beta^2\frac{\mu}{3}m^2v^2n\right]B +$$

$$+\left(\frac{2}{3}\beta^2m^2v^2n^2 - \frac{1}{3}\beta^2m^2v^2 - 1 - \frac{1}{3}\beta^2n^4\right)C - \frac{\omega^2 + \frac{\cos\rho_{liq}}{I\rho}J_1\left(\frac{\omega l y_m}{a}\right)}{b^2 J_1\left(\frac{\omega l y_m}{a}\right)}C$$

$$\frac{2Eh}{\rho\gamma^2(1-\mu^2)} = b^2 \tag{13}$$

Ushbu qiymatlarni (1) tenglamaga qo‘ygandan so‘ng, A, B, C noma’lum konstantalariga nisbatan tenglamalar sistemasini hosil qilamiz. Ushbu sistemaning determinanti ω^2 ga nisbatan uchinchi darajali chastota tenglamasini beradi.

Ushbu tenglamadan berilgan parametrlar uchun tayanchga ega bo‘lgan qobiqning ikkita ko‘ndalang va ikkita bo‘ylama tebranishlarining mos toni (garmonikasi) uchun chastotalarni olamiz. (13) ifodani soddalashtirish uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$R_{11} = -m^2v^2 + \frac{1-\mu}{2}\kappa^2, \qquad R_{12} = -\left(\frac{1+\mu}{2} - \frac{1-\mu}{3}\beta^2\right)\tau v, \qquad R_{13} = -\mu\tau v - \frac{1-\mu}{2}\beta^2 mv^2,$$

$$R_{21} = -\frac{1+\mu}{2}\tau v, \qquad R_{22} = -\frac{1-\mu}{2}(1+\beta^2) + \left(1+\frac{\beta^2}{3}\right)m^2v^2, \qquad R_{23} = -\kappa + \frac{\beta^3}{3} + \frac{3-\mu}{2}\beta^2 mv^2,$$

$$R_{31} = -\kappa v, \qquad R_{32} = -\kappa + \frac{\beta^3}{3} + \frac{2-\mu}{2}\beta^2\mu^2m^2v^2\kappa, \qquad R_{33} = -\frac{2}{3}\beta^2m^2v^2\kappa + \frac{1}{3}\beta^2\kappa^4 - \frac{\omega\alpha\rho_{liq}}{b^2\rho}\frac{J_1\left(\frac{\omega l v_m}{a}\right)}{J_{1'}\left(\frac{\omega l v_m}{a}\right)}. \tag{14}$$

Shuningdek, quyidagi matritsani kiritamiz:

$$R - R_0 = \begin{bmatrix} R_{11} & R_{12} & R_{13} \\ R_{21} & R_{22} & R_{23} \\ R_{31} & R_{32} & R_{33} \end{bmatrix}, \qquad E = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}. \tag{15}$$

(13)-tizim yechimining no-trivial (nolga teng bo‘lmagan) bo‘lish shartini quyidagilarga nisbatan yozib chiqamiz:

$$A, B, C:$$

$$\left|R - \frac{\omega^2}{b^2}E\right| = 0. \tag{16}$$

Suyuqlik mavjud bo‘lmagan holda, ($\rho_{liq} = 0$), tenglama quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\left|R^0 - \frac{\omega^2}{b^2}E\right| = 0, \qquad R^0 = R\big|_{\rho_{liq}=0}. \tag{17}$$

Tenglama ω^2 ga nisbatan kubik (uchinchi darajali) tenglamani ifodalaydi:

$$\Omega_0^3 + i_1^0\Omega_0^2 + i_2^0\Omega_0 - i_3^0 = 0, \qquad \Omega_0 = \frac{\omega_0^2}{b^2}. \tag{18}$$

bunda

$$i_1^0 = -R_{11}^0 - R_{22}^0 - R_{33}^0, \qquad i_2^0 = -(R_{11}^0R_{33}^0 - R_{12}^0R_{23}^0 + R_{13}^0R_{22}^0 - R_{23}^0 - R_{12}^0 - R_{13}^0).$$

$$i_3^0 = -R_{11}^0R_{22}^0R_{33}^0 + 2R_{12}^0R_{23}^0R_{31}^0 - R_{11}^0R_{23}^0R_{32}^0 - R_{22}^0R_{13}^0R_{31}^0 - R_{33}^0R_{12}^0R_{21}^0.$$

$$i_1^0 = R_{ii}^0, \quad i_2^0 = -\begin{vmatrix} R_{11}^0 & R_{13}^0 \\ R_{31}^0 & R_{33}^0 \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} R_{22}^0 & R_{23}^0 \\ R_{32}^0 & R_{33}^0 \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} R_{11}^0 & R_{12}^0 \\ R_{21}^0 & R_{22}^0 \end{vmatrix}, \quad i_3^0 = \begin{vmatrix} R_{11}^0 & R_{12}^0 & R_{13}^0 \\ R_{21}^0 & R_{22}^0 & R_{23}^0 \\ R_{31}^0 & R_{32}^0 & R_{33}^0 \end{vmatrix}$$

(18)dan Ω_0 ni aniqlaymiz:

$$\Omega_0 = x_k - \frac{i_1^0}{3}, \qquad k = 1,2,3,$$

$$x_1 = A_0 + B_0, \qquad x_{2,3} = -\frac{A_0 + B_0}{2} \pm i\frac{A_0 - B_0}{2}\sqrt{3}.$$

$$A_0 = \sqrt[3]{-\frac{q_0}{2} + \sqrt{Q_0}}, \qquad B_0 = \sqrt[3]{-\frac{q_0}{2} - \sqrt{Q_0}}, \qquad Q_0 = -\left(\frac{p_0}{3}\right)^3 + \left(\frac{q_0}{2}\right)^2.$$

$$p_0 = -\frac{(i_1^0)^2}{3} + i_2^0, \qquad q_0 = -2\left(\frac{i_1^0}{3}\right)^3 + \frac{i_1^0 i_2^0}{3} + i_3^0.$$

ni ifodalab (ifodalab olib),

$$b^2 = \frac{\omega_0^2}{\Omega_0}$$

ni ifodalab va (17)ga qo‘yib, quyidagi shartni hosil qilamiz:

$$\left|R - \frac{\Omega_0\omega^2}{\omega_0^2}E\right| = 0.$$

Oxirgi tenglama o‘zgaruvchiga nisbatan kubik (uchinchi darajali) tenglamadir.

$$\Omega^3 + i_1\Omega^2 + i_2\Omega + i_3 = 0, \qquad \Omega = \frac{\Omega_0\omega^2}{\omega_0^2}.$$

Tenglamaning yechimi quyidagi formulalar bilan beriladi:

$$\Omega = y - \frac{i_1}{3}, \qquad y_1 = A_1 + B_1, \qquad y_{2,3} = \frac{A_1 + B_1}{2} \pm i\frac{A_1 - B_1}{2}\sqrt{3},$$

$$A_1 = \sqrt[3]{-\frac{q}{2} + \sqrt{Q}}, \qquad B_1 = \sqrt[3]{-\frac{q}{2} - \sqrt{Q}}, \qquad Q = -\left(\frac{p}{3}\right)^3 + \left(\frac{q}{2}\right)^2,$$

$$p = -\frac{i_1^2}{3} + i_2, \qquad q = -2\left(\frac{i_1}{3}\right)^3 + \frac{i_1 i_2}{3} + i_3.$$

(23)-formula ω_0 ning ω ga bog‘liqligini ifodalaydi. (17)-tenglama tizimning erkin tebranish chastotasini suyuqlik mavjud bo‘lmagan holatdagi qobiqning erkin tebranish chastotasi bilan bog‘laydi. Umumiy holda tizimning erkin tebranish chastotalarini topish (16)-transsendent tenglamani yechish bilan bog‘liq bo‘lib, uni yechishda mualliflar, ko‘pincha, yaqinlashgan (xususan, asimptotik) metodlarga murojaat qiladilar. Teskari masalaning yechimi tizimning turli modalari uchun tebranish chastotalarining bo‘sh qobiq chastotasiga bog‘liqlik grafiklarini qurish imkonini beradi. Bu esa tadqiqotni, jumladan, tizimning erkin tebranish chastotalarini aniqlashni soddalashtiradi.

Tahlil va natijalar. 1–3-rasmlardan ko‘rinib turibdiki, ω_0 uchun $0–6\cdot10^6$ va ω uchun $0–600$ oraliqlarida qurilgan grafiklar tasvirlangan. 1-rasmda suyuqlik zichligining qobiq zichligiga nisbatining uch

xil qiymati uchun $\omega-\omega_0$ chastota spektrining uchta fragmenti ko‘rsatilgan; ko‘rinib turibdiki, suyuqlikning nisbiy zichligi ortishi bilan ω_0 ning ω ga bog‘liqlik grafigi o‘ngga suriladi.



1-rasm. Suyuqlik zichligining qobiq zichligiga nisbatining turli qiymatlarida $\omega_0 = C(\omega)$ (1), $D(\omega)$ (2) va $K(\omega)$ (3) chastota spektrining fragmenti.

2-rasmda silindr qalinligining radiusga nisbatining uch xil qiymati uchun $\omega-\omega_0$ chastota spektrining fragmentlari keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, silindr o‘lchami kamayishi bilan ω_0 ning ω ga bog‘liqlik grafiklari suriladi.

2-rasm. Silindr qobig‘i qalinligining uning radiusiga nisbatining turli qiymatlarida $\omega_0 = C(\omega)$ (1), $D(\omega)$ (2) va $K(\omega)$ (3) chastota spektrining fragmenti.

har bir moda uchun o‘ngga siljiydi. 3-rasmda suyuqlikning siqiluvchanlik koeffitsientining uch xil qiymati uchun $\omega-\omega_0$ chastota spektrining uchta fragmenti tasvirlangan bo‘lib, undan suyuqlikda g‘alayonlarning tarqalish tezligi ortishi bilan ω_0 ning ω ga bog‘liqlik grafiklari ω o‘qi bo‘ylab o‘ngga surilishi ko‘rinadi.



Annotatsiya. *Maqola O'zbekistonda istiqomat qilayotgan kishilarning fuqaro sifatida shakllanganligi darajasi tahliliga bag'ishlangan. Maqolada fuqarolik madaniyati o'zbek modelining omillari tahlil qilingan. Xususan, fuqarolik madaniyati o'zbek modelining obyektiv omillari sifatida tabiiy shart-sharoitlar, iqtisodiy munosabatlar, siyosiy jarayonlar, ijtimoiy turmush va milliy madaniyatga diqqatga qatilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxs fuqarolik madaniyati, nazariy model, fuqarolik madaniyati o'zbek modeli, obyektiv omillar, tabiiy shart-sharoitlar, iqtisodiy munosabatlar, siyosiy jarayonlar, ijtimoiy turmush, milliy madaniyat.*

Кадыров Фазлиддин Юлдошович (старший преподаватель кафедры философии и социологии КарГУ (PhD)

ОБЪЕКТИВНЫЕ ФАКТОРЫ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ ГРАЖДАНСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *Статья посвящена анализу уровня формирования граждан, проживающих в Узбекистане. В статье анализируются факторы узбекской модели гражданской культуры. В частности, уделяется внимание природным условиям, экономическим отношениям, политическим процессам, общественной жизни и национальной культуре как объективным факторам узбекской модели гражданской культуры.*

Ключевые слова: *личная гражданская культура, теоретическая модель, узбекская модель гражданской культуры, объективные факторы, природные условия, экономические отношения, политические процессы, общественная жизнь, национальная культура.*

Kadirov Fazliddin Yuldoshovich (senior teacher of the Department of Philosophy and Sociology of KarSU (PhD)

OBJECTIVE FACTORS OF THE UZBEK MODEL OF CIVIC CULTURE

Annotation. *The article is devoted to the analysis of the level of formation of citizens of people living in Uzbekistan. The article analyzes the factors of the Uzbek model of civic culture. In particular, attention is paid to natural conditions, economic relations, political processes, social life and national culture as objective factors of the Uzbek model of civic culture.*

Key words: *Personal civic culture, theoretical model, Uzbek model of civic culture, objective factors, natural conditions, economic relations, political processes, social life, national culture.*

Kirish. Ma'lumki, nazariy model o'z nomi bilan nazariy xarakterga ega. Odatda, har qanday nazariy model amaliyotning konkret jihatlaridan yiroqlashgan holda ilmiy tasavvurlar asosida shakllantiriladi. Bunday yondashuvning ilmiy asoslari mavjud. Holbuki, u yoki bu tushuncha mazmuni va tarkibi xususida tizimli tasavvurlarni shakllantirish uchun uning modelini qaror toptirish foydadan xoli emas. Real hayotda esa vaziyat birmuncha o'zgacharoq kechadi. Turli mamlakatlarda fuqarolik madaniyati o'z ko'rinishiga ega bo'lib, u shu mamlakatdagi tabiiy-ekologik vaziyat, jamiyatdagi turli sohalarning tendensiyalari, ayni paytda milliy tarbiyaning o'ziga xos jihatlari ta'siri o'laroq, tuslanib boradi. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan kishilarning fuqarolik ongi va faoliyati xususida ham shunday deyish mumkin. U tarixiy taraqqiyot davomida turli jarayonlarga hamohang tarzda rivojlanib kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XXI asr boshlariga kelib, fuqarolik madaniyatining shakllanishi qonuniyatlarini yangi ijtimoiy voqelik kontekstida tadqiq qilish zaruriyati ortib ketdi. Jumladan, P. Byukenen G'arb jamiyatlarida sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarning shaxs fuqarolik madaniyatiga ta'sirini [1;44-b.], J.Drayzek global siyosat oqibatida shaxs fuqarolik faoliyatida yuz bergan o'zgarishlarni [2; 208-b.], U.Kimlika multikulturalizm va shaxs fuqaroviy pozitsiyasi o'rtasidagi aloqadorlikni [3;194-b.], Y. Xabermas g'arbona demokratiya va shaxs fuqarolik ongi transformatsiyasi masalalarini [4;211-b.], A.Yang umumbashariy muammolarning shaxs fuqarolik qadriyatlariga ta'sirini ochib beradi [5;224-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Retrospektiv tahlil natijalari ko'rsatishicha, u ko'p asrlar davomida jamiyatdag sodir bo'lgan voqea va hodisalar ta'sirida o'zgarib va rivojlanib borgan. Tushunchaning tarkibiy-funksional tahlili bu model o'zbek kishisiga xos bo'lgan qator xususiyatlarni o'zida mujassam etishini ochib beradi. Sistema va element metodi tushunchaning asosiy elementlari va bu elementlarning turfa xossalarini ilmiy mulohazalar va faktlar yordamida ochib beradi.

Tahlil va natijalar. Model bu bir obyekt, shaxs yoki tizimning ma'lumotlar bilan ta'riflangan tasviridir. Ushbu atama XVI asr so'nggida ingliz tilida "arxitektik rejalar" mazmunini anglatib, lotinchada *"modul"* o'lchov ma'nosida keladi [6]. Modellar jismoniy (kema modeli yoki moda modeli) va abstrakt (havo prognozi haqida ma'lumot beruvchi matematik tenglamalar to'plami) modellarga bo'linadi. Abstrakt va konseptual modellar fan falsafasining markaziy qismi hisoblanadi [7].

Ilmiy tadqiqotlar va amaliy fanlarda modelni nazariya bilan chalg'itilishi kerak emas: model faqat haqiqatni yaxshiroq tushunish yoki dunyoni bashoratni ifodalashga harakat qilsa, nazariya haqiqatni tushuntirish deb e'tirof etishilishi bilan ko'proq tavofutlanadi [8].

Nazariy model esa bu murakkab hodisa, obyekt yoki jarayonning asosiy g'oyalari va ularning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi tushunchaviy asosdir. U real hayotdagi narsalarni oddiy va tushunarli sxemalarda ko'rsatib beradi. Bu usul ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Nazariy modelning ahamiyati	
Asosiy tushunchalar	•Tadqiqotdagi eng muhim qismlar (tushunchalari)ni yig'ib beradi.
Tizimlilik:	•Turli jarayonlarning o'zaro qanday ishlashini ko'rsatadi.
Yo'nalish:	Tadqiqotchi uchun aniq yo'l xaritasini yaratadi.
Asosiy xususiyatlar borasida	
Soddalik:	Murakkab narsalarni oson tushunish uchun soddalashtiradi.
Abstraksiya:	1. Keraksiz kichik tafsilotlarni olib tashlaydi.
Izoh berish:	Nimaga shunday bo'layotganini ilmiy asoslab beradi.
Real hayotdagi oddiy misollar	
Arxitekturada:	Uy qurishdan avval uning chizmasi yoki kichik maketi yasaladi. Bu nazariy model hisoblanadi.
Psixologiyada:	•Inson qobiliyati yoki aqlini o'rganishda miyaning ishlash sxemasi chiziladi.
Savdoda:	•Mijoz qanday qilib mahorat bilan xarid qilishi bosqichma-bosqich tushuntiriladi.

Jamiyatning nazariy modeli – bu jamiyat qanday ishlashini tushuntiruvchi mukammal va ideal qoidalar majmui bo'lsa, **real jamiyat** esa odamlarning kundalik hayotdagi murakkab, xato va qarama-qarshiliklarga to'la amaliy yashash tarzi [9].

Asosiy farqlar quyidagicha:	**Nazariy model**	**Real jamiyat**
Maqsadlar borasida:	Nazariy modelda hamma teng va qonun-qoidalarga so'zsiz bo'ysunadi.	Real jamiyatda esa manfaatlar to'qnashuvi va tengsizlik mavjud bo'ladi.
Munosabatlar borasida:	Nazariyada barcha ijtimoiy qatlamlar mukammal muvozanatda ishlaydi.	Amalda esa boylik, siyosat va shaxsiy manfaatlar bu muvozanatni doimiy ravishda buzib turadi.
O'zgarishlar borasida:	Model sekin va reja bo'yicha rivojlanadi.	Real hayotda ijtimoiy o'zgarishlar kutilmagan va tartibsiz bo'ladi.
Tahlil:	•Nazariy modellar bu xaritaga o'xshaydi va ular yo'nalish ko'rsatadi.	Real hayot – bu yo'ldagi haqiqiy to'siqlar va qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.
Xulosa:	•Nazariy modellar to'g'ri tushuncha beradi.	Ammo real hayot doimo ulardan murakkabroq bo'ladi.

Fuqarolik madaniyati o'zbek modeli fuqarolik ongi va faoliyatining O'zbekistonga xos bo'lgan, o'zbek kishisining dunyoqarashi va faoliyat tarzini o'zida mujassam qilgan ko'rinishidir. Bu model quyidagilar bilan shartlangandir:

- tabiiy shart-sharoitlar: Markaziy Osiyoga, xususan, O'zbekistonga xos bo'lgan tabiiy omillar, hududning geografik xususiyatlari – relyefi, iqlimi, daryo va ko'llari, o'simliklar va hayvonot dunyosi – kishilarning olam haqidagi tasavvurlariga, xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatgani kabi, fuqarolik ongi va faoliyatida ham jiddiy iz qoldirgan;
- iqtisodiy munosabatlar*;* mamlakatdagi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq turfa aloqalar kishilar ruhiyati va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatgan, ruhiyatning hissiy va aqliy elementlari odamlarning fuqaro sifatida kamol topishlarida ham asos bo'lgan;
- siyosiy jarayonlar; milliy davlatchilik rivojining o'ziga xos jihatlari, siyosiy institutlar mazmuni va ijtimoiy pozitsiyasi, turli subyektlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar bularning barchasi nafaqat siyosiy borliq atributlari, balki jamiyat a'zosining fuqaro sifatidagi dunyoqarashini qaror toptiruvchi omillardir;
- ijtimoiy turmush; milliy turmush asosini tashkil qilgan tamoyillar, masalan kishilarning jamoa qadriyatlarini e'zozlab yashashga o'rganganlari, jamiyat ehtiyoj va manfaatlarini qadrlaganlari, o'z manfaatlarini keyingi o'ringa qo'yishga odatlanganlari ularning fuqarolik ongi va faoliyatida ham iz qoldirgan;

- milliy madaniyat; tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida madaniyat tarkibiy qismlarining kishilarga ta’siri ulkanligi bilan tavsiflangan. Bu elementlar jamiyat a’zolarining fuqaro sifatida sa’y-harakatlari asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan.

Fuqarolik madaniyati o‘zbek modeli ko‘p asrlar davomida yuqorida tilga olingan omillar ta’sirida asta-sekinlik bilan qaror topa borgan. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, o‘zbeklarning fuqarolik ongi va faoliyatidan joy olgan neki holat bor, ularning barchasi o‘zbek diyoridagi tabiiy vaziyat, o‘zbek jamiyati borlig‘iga xos bo‘lgan xossalar, uning turli davrlardagi ehtiyoj va manfaatlari, intilishlari va hoyu-havaslariga mutanosib tarzda shakllangan. Aynan shu xossalar, xususiyatlar, holatlar nafaqat o‘zbek fuqarolik madaniyati mazmunini, balki undagi o‘zgarishlarning yo‘nalishlarini ham belgilagan.

Xulosa va takliflar. Bizning fikrimizcha, fuqarolik madaniyati nazariy modeli turli mamlakatlarda turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Uning O‘zbekistondagi ko‘rinishini “shaxs fuqarolik madaniyatining o‘zbek modeli” deyish to‘g‘riroq bo‘ladi. Fuqarolik ongi va faoliyatining O‘zbekistonga xos bo‘lgan, o‘zbek kishisi dunyoqarashi va faoliyat tarzini o‘zida mujassam qilgan ko‘rinishini shaxs fuqarolik madaniyati o‘zbek modeli deb tavsiflash mumkin. O‘zbekistonda shaxs fuqarolik madaniyati yurt tabiatining o‘ziga xos tomonlari, tarixiy taraqqiyot mobaynida mamlakatda yuz bergan voqea va jarayonlar bilan shartlangandir.

Mazkur jarayon fuqarolik madaniyati o‘zbek modelining obyektiv omillarini umumlashtirish imkonini beradi:

Fuqarolik madaniyati o‘zbek modelining obyektiv omillari nafaqat o‘ziga xoslik va milliylikni saqlab qolish, balki jamiyat a’zolarini fuqaro sifatida kamol toptirish, ularni jamiyatni isloh qilish va rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish bilan bog‘liq strategik maqsad va muddaolar atrofida birlashtirish vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бьюкенен П. Смерт Запада. АСТ, Москва, 2003, с. 44.

(2). Dryzek J. Deliberative Global Politics: Discourse and Democracy in a Divided World. Cambridge, Polity Press, 2006, p. 208

(3). Kymlicka W. Politics in the vernacular: nationalism, multiculturalism and citizenship. Oxford, Oxford University Press, 2001, p. 194.

(4). Habermas J. Der gespaltene Westen. Frankfurt am Main: Suhrkamp Verlag, 2004, p. 211.

(5). Young I. Global challenges: war, self determination and responsibility for justice. Cambridge Malden, 2006, p. 224.

(6). https://uz.wikipedia.org/wiki/Model_tushunchasi

(7). https://web.archive.org/web/20201010163505/https://unabridged.merriam-ebster.com/subscriber/login?red

(8). Wunsch G. “Theories, models, and data”. 1994. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.

(9). https://www.google.com/search?q=jamiyatning+nazariy+modeli+va+real+jam

Yaxshiboyev Shavkat Quramboyevich (Urganch davlat universiteti dotsenti v.b., falsafa doktori (PhD)

XORIJIY MAMLAKATLAR SIYOSIY MADANIYATI TABIATI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlar siyosiy madaniyatining tabiati, shakllanish omillari va rivojlanish xususiyatlari Buyuk Britaniya hamda Fransiya misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu davlatlarda siyosiy madaniyatning tarixiy ildizlari, demokratik qadriyatlarning shakllanishi, fuqarolik jamiyatining roli va siyosiy institutlarning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, Britaniya siyosiy madaniyatiga xos konservativlik, huquqiy an'analar va parlamentchilik tamoyillari hamda Fransiya siyosiy madaniyatida respublikachilik, siyosiy faollik va markazlashgan davlat boshqaruvi xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Maqola xorijiy davlatlar siyosiy tajribasini o'rganish orqali milliy siyosiy madaniyatni rivojlantirish masalalariga ilmiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *siyosiy madaniyat, demokratiya, fuqarolik jamiyati, parlamentchilik, respublikachilik, siyosiy institutlar, siyosiy qadriyatlar, siyosiy tizim, siyosiy ong, davlat boshqaruvi.*

ПРИРОДА И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Аннотация. *В данной статье анализируются сущность, факторы формирования и особенности развития политической культуры зарубежных стран на примере Великобритании и Франции. В исследовании раскрываются исторические корни политической культуры данных государств, процесс формирования демократических ценностей, роль гражданского общества и значение политических институтов. Кроме того, проводится сравнительный анализ таких особенностей британской политической культуры, как консерватизм, правовые традиции и принципы парламентаризма, а также характерных черт французской политической культуры — республиканизма, политической активности и централизованной системы государственного управления. Изучение политического опыта зарубежных государств способствует формированию научного подхода к вопросам развития национальной политической культуры.*

Ключевые слова: *политическая культура, демократия, гражданское общество, парламентаризм, республиканизм, политические институты, политические ценности, политическая система, политическое сознание, государственное управление.*

THE NATURE AND DEVELOPMENTAL FEATURES OF THE POLITICAL CULTURE OF FOREIGN COUNTRIES

Annotation. *This article examines the nature, formation factors, and developmental characteristics of the political culture of foreign countries through the examples of Great Britain and France. The study explores the historical roots of political culture in these states, the formation of democratic values, the role of civil society, and the significance of political institutions. In addition, a comparative analysis is conducted of the distinctive features of British political culture, including conservatism, legal traditions, and the principles of parliamentarianism, as well as the characteristics of French political culture, such as republicanism, political activism, and centralized public administration. By studying the political experience of foreign countries, the article contributes to the development of a scientific approach to issues related to the advancement of national political culture.*

Keywords: *political culture, democracy, civil society, parliamentarianism, republicanism, political institutions, political values, political system, political consciousness, public administration.*

Kirish. Siyosiy madaniyat juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, ko'plab omillarni o'z ichiga oladi. Siyosiy madaniyatni davlat va jamiyat bog'lashda uning shakllanishi hamda taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini doimo hisobga olish zarur, chunki unda madaniy, tarixiy, milliy va geografik jihatlar muhim rol o'ynaydi.

O'z e'tiborini insoniy qadriyatlar, stereotiplar, ramzlar mazmuni, inson mentaliteti muammolari va shunga o'xshash hodisalarga qaratgan holda, siyosiy madaniyat nazariyasi fuqarolarning siyosiy xulq-atvori motivatsiyasini yanada chuqur o'rganish, an'anaviy siyosatga murojaat qilish bilan izohlab bo'lmaydigan to'qnashuvlar sabablarini aniqlash uchun noyob imkoniyat yaratadi. Buning jamiyat hayotida bir qator omillari bilan bir qatorda, hokimiyat uchun kurash, resurslarni qayta taqsimlash kabi sabablari bor.

Siyosiy madaniyat va u bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni tahlil qilish siyosiy ong sohasida sodir bo'layotgan jarayonlarni siyosiy jihatdan to'g'ri talqin qilish, siyosiy sohadagi ko'plab salbiy hodisalar va muammoli vaziyatlarning sabablari va oqibatlarini aniqlashga imkon beradi. Yangi davlatchilikning shakllani-

shi, yangi mafkuraviy ko‘rsatmalarni shakllantirish jarayoni doimiy ravishda siyosiy madaniyat muammosini hal qilishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim bir ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, jamiyatning siyosiy rivojlanishi jarayonida fuqarolarning tegishli siyosiy bilim va tajribalarga ega bo‘lishida, siyosiy voqealarga o‘z munosabatlarini bildirishlarida hamda baho berishlarida va boshqa ana shunga o‘xshash holatlarda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi. Davlatning ichki hamda tashqi siyosatini tushuna bilish, uni tahlil qila olish va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o‘z xatti-harakatini belgilay olish, siyosiy voqealarni oldindan ko‘ra bilish, nazorat qilish va amaliy yo‘nalishlarni aniqlay olish kabi xislatlar esa fuqaroning siyosiy madaniyatini belgilovchi mezonlar hisoblanadi.[1]

Har qanday jamiyatning siyosiy madaniyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u faqat ma’lum bir jamiyatga xos bo‘lgan qadriyatlarni, me’yorlarni, stereotiplarni, siyosiy ishtirok etish shakllarini va hokimiyat munosabatlarini aks ettiradi. Siyosiy madaniyat shakllanishi va rivojlanishi tarixiy sharoit, g‘oyaviy munosabat, diniy omillar va geografik joylashuv bilan belgilanadi.

Turli xil xalqlarning o‘ziga xos xususiyatlari va qadriyatlarini aniqlash juda qiyin. Ko‘zda tutilishi kerak bo‘lgan ko‘pgina omillar mavjud.

Britaniyada siyosiy madaniyat shakllangan birinchi mamlakat bo‘lib, mamlakatda siyosiy institutlar va demokratik qadriyatlar faol ishlay boshladi. U rivojlangan fuqarolik jamiyati bilan ajralib turadigan kuchli parlament an’analariga ega mamlakat. Buyuk Britaniya zamonaviy parlamentarizmning vatani va parlament to‘liq hokimiyatni o‘z zimmasiga olgan birinchi mamlakat hisoblanadi.[2]

XVII asrdagi inqilob voqealari, fuqarolar urushlari va Kromvel diktaturasi inglizlarning ijtimoiy formatsiyalarga radikal yondashishdan qo‘rqishini kuchaytirdi, jamoat hayotidagi barqarorlik va tartibga ahamiyat kuchaydi. O‘sha vaqtdan buyon Buyuk Britaniyaning siyosiy tizimi doimiy ravishda boshqaruv hokimiyati o‘rtasidagi muvozanat va ushbu kuchga qo‘yilgan cheklovlar bilan ajralib turadi. Bunday cheklovlar turlicha talqin qilingan o‘yin qoidalari, masalan, parlamentdagi qarama-qarshilik shaklida bo‘lgan; kuchli ijro etuvchi hokimiyatning parlament va oxir-oqibat saylovchilar oldida hisobdorligi, erkinlik va tartib tamoyillari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga imkon beradigan har xil siyosiy va ijtimoiy, iqtisodiy tiyib turish va muvozanat omillari.

Rasmiy ravishda Buyuk Britaniyada konstitutsiya yo‘q. Tadqiqotchilar “Buyuk Britaniya konstitutsiyasining o‘ziga xos xususiyati, uning yozilmagan tabiatida, shu sababli qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda – konstitutsiyada belgilangan huquqiy normalar orqali emas, balki, aslida, odatiy huquqiy presedentlar yoki parlament kelishuvlari, deb ataladigan tizim orqali amalga oshiriladi”.[3]

Britaniya siyosiy madaniyatining o‘ziga xos xususiyati ijtimoiy-siyosiy tizimning qonuniyligi deb hisoblanadi, bu esa, o‘z navbatida, davlat siyosati bilan kafolatlanadi. Bu fuqarolarning davlat siyosiy tuzilmalariga yuqori darajada sodiqligini va ularning faoliyat ko‘rsatayotgan mexanizmidan g‘ururlanish hissini shakllantiradi. Boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda, Buyuk Britaniyada siyosiy zo‘ravonlik darajasi past. Rejimga bo‘ysunish omilining o‘zi qonunga bo‘ysunish, hokimiyatga sodiqlik va qonunning adolatliligiga ishonishga qaratilgan kompleks motivlarga asoslanadi. Aholining aksariyati qonunlarning adolatli emasligini, axloq me’yorlarini inkor etishini tasavvur ham qila olmaydi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, davlatda fuqarolar qonunning daxlsizligiga shunchalik chuqur ishonishadiki, respondentlarning deyarli yarmi, hatto xato bo‘lsa ham, qonunga rioya qilish kerak, degan fikrda.

Inglizlarning siyosiy xulq-atvori kuch tuzilmalariga ta’sir o‘tkazish vakolatiga bo‘lgan ishonchi, shu bilan birga passivligi bilan ajralib turadi, chunki hukumatga ishonganligi sababli ular faol siyosiy harakatlardan voz kechishga tayyordirlar. O‘z navbatida, hukumat fuqarolar oldida hisobot berib, samarali ishlashi uchun yuqori avtonomiyalarga ega.

---

[1] Жалилов А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятининг ривожланиш жараёнлари. Сиёс.фан.бўй.фалс.док. (PhD) дисс. автореф., Т., 2020, 14–15-бетлар.

[2] Скок Н.В. Национальные модели политической культуры. Н.В.Скок. Могилев, МГУ им. А.А.Кулешова, 2001, с. 54.

[3] Скок Н.В. Национальные модели политической культуры. Н.В.Скок. Могилев, МГУ им. А.А.Кулешова, 2001, с. 71.

Inglizlar ovoz berishga katta ahamiyat berishadi, aynan saylovlar paytida siyosiy partiyalar tomonidan saylovchilarni faol siyosiy safarbarligi amalga oshiriladi.[4]

Fransiyaning siyosiy madaniyati beqaror, nostandart xarakterga ega. Buning sababi tarixiy sharoitlardir (Fransiya Yevropada yagona hokimiyat markaziga aylanishi mumkin edi, Napoleon Bonapart barcha sa'y-harakatlarini ushbu maqsadga erishish uchun yo'naltirdi, ammo Fransiyaning davlat sifatida beqarorligi sabab o'z maqsadiga erisha olmadi).[5] O'zining butun tarixi davomida mamlakat boshqaruvning ko'plab shakllarini o'zgartirdi. So'nggi ikki yuz yil ichida davlatda o'nga yaqin konstitutsiyaviy hujjatlar va saylov tizimlari o'zgargan. Rejimlarni almashtirish usullari turli xil: inqiloblar, armiya aralashuvi, parlament kurashi, to'ntarishlar. Fransiya partiya tizimi ham juda o'zgaruvchan. Ushbu omillar fransuz jamiyatining siyosiy madaniyatida sezilarli iz qoldirdi. Fransuzlarning o'zlari mamlakatning inqilobiy tarixi, Yevropadagi uzoq muddatli gegemonligi, adolat va erkinlik g'oyalari uchun kurashlari va jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissalari bilan faxrlanadilar.

Mulohaza. Buyuk fransuz inqilobining "Ozodlik, tenglik, birodarlik" shiori asrlar davomida dunyoning turli burchaklaridagi millionlab odamlarning ozodligi uchun kurash ramziga aylandi. Fransiya siyosiy madaniyatining markaziy elementi respublika boshqaruv shakli edi. Respublika an'anasi siyosiy va ijtimoiy totuvlik, ozchilikning huquqlarini hurmat qilish va siyosiy ekstremizmga qarshi kurash tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Faol saylov tizimi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Skandinaviya yoki Angliya-Saksoniya mamlakatlari bilan taqqoslaganda, Fransiyada demokratiya boshqa ssenariy bo'yicha tubdan rivojlanmoqda. Fransuz demokratiyasi "200 yil davomida faqat mavjud shakllar doirasida emas, balki ularning asosida yuzaga kelgan boshqa shakllar tarzida" harakat qildi, vaqti-vaqti bilan ba'zi bir shakllarni buzib, umuman, boshqalarini yaratdi".[6]

Keyinchalik, fransuz jamiyatida "inqilobiy siyosiy madaniyatga" qiziqish sezilarli darajada pasayadi. Barcha radikal mafkuralar jamoat ongida tobora salbiy ma'no kasb etmoqda. Ba'zi fransuz olimlari siyosiy kuchlarni chapga va o'ngga bo'linish dixotomiyasiga barham berish mumkin, deb hisoblaydilar. Kollektivistik qadriyatlarning obro'si hatto Fransiyaning xalqaro siyosiy madaniyatida ham anchayin pastlashgan.[7]

G'arbiy Yevropa turli xil siyosiy madaniyatlarni namoyish etadi. Ushbu mintaqada joylashgan mamlakatlar boy siyosiy madaniyatga ega bo'lib, bu ulardagi siyosiy tizimlarining yanada rivojlanishi, siyosiy hayotning demokratik uslubi mavjudligi, G'arbiy Yevropa davlatlari aholisi madaniyati va qadriyatlarining xilma-xilligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlar siyosiy madaniyati jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, milliy qadriyatlari va siyosiy tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Buyuk Britaniya siyosiy madaniyatida parlamentchilik, huquqiy an'analar va siyosiy barqarorlik ustuvor ahamiyat kasb etsa, Fransiya siyosiy madaniyatida respublikachilik, fuqarolik faolligi va demokratik tamoyillarga sodiqlik muhim o'rin tutadi. Har ikki davlat tajribasi siyosiy madaniyatning demokratik jamiyat rivojidagi o'rni naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash hamda siyosiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois xorijiy tajribalarni o'rganish milliy siyosiy madaniyatni rivojlantirish va demokratik islohotlarni takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Большая Европа. М., "ИНФРА– М"., издательство "Весь мир", 2014, с. 93.

(2). Жалилов А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятининг ривожланиш жараёнлари. Сиёс фан.бўй. фалс. док. (PhD) дисс.автореф., Т., 2020, 14–15-бетлар.

(3). Ирхин Ю.В. Социология культуры. М., "Экзамен", 2016, с. 8.

(4). Скок Н.В. Национальные модели политической культуры. Могилев, МГУ им. А.А.Кулешова, 2001, с. 54.

[4] Ирхин Ю.В. Социология культуры. Ю.В.Ирхин. М., "Экзамен", 2016, с. 86.

[5] Большая Европа. М., "ИНФРА– М"., издательство "Весь мир", 2014, с. 93.

[6] Салмин А.М. Природа и роль базовых политических ориентаций (на примере Франции). Полития. Анализ. Хроника. Прогноз. 2005, № 3, с. 194.

[7] Цыганков П.А. Политическая культура и национальные школы социально-гуманитарного знания (пример французской теории международных отношений). Политическая культура современной России: состояние, проблемы, пути трансформации. Материалы "круглого стола", М., КДУ, 2009, с. 146–147.

(5). Салмин А.М. Природа и роль базовых политических ориентаций (на примере Франции). А.М. Салмин. Полития. Анализ. Хроника. Прогноз. 2005, № 3, с. 194.

(6). Цыганков П.А. Политическая культура и национальные школы социально-гуманитарного знания (пример французской теории международных отношений). Политическая культура современной России: состояние, проблемы, пути трансформации. Материалы “круглого стола”. М., КДУ, 2009, с. 146–147.

Pulatov Jaxongir Nazirovich (Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti
pulatovjahongir00@gmail.com)

YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON QADRI VA IJTIMOIY TARAQQIYOTNING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash va ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlash bir-birini taqozo etuvchi dialektik jarayon ekanligi, inson qadri, huquq va imkoniyatlari kafolatlanishi mamlakatda yangi intellektual va ma’naviy yuksalish davriga poydevor bo‘lib xizmat qilishi falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Inson qadrini yuksaltirishga doir ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *inson qadri, inson manfaatlari, turmush darajasi, ijtimoiy taraqqiyot, barqarorlik, farovonlik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy adolat, pluralizm.*

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕСТИ ЧЕЛОВЕКА И СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В статье философски проанализировано, что возвеличивание человеческого достоинства и обеспечение социального развития в Новом Узбекистане являются взаимосвязанными диалектическими процессами, а гарантирование человеческого достоинства, прав и возможностей служит фундаментом для нового периода интеллектуального и духовного роста в стране. Представлены научно-теоретические предложения и рекомендации по повышению человеческого достоинства.*

Ключевые слова*: человеческое достоинство, человеческие интересы, уровен жизни, социалное развитие, стабилност, просветание, сотсиально-экономические реформы, сотсиалная справедливост, плюрализм.*

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF HUMAN DIGNITY AND SOCIAL DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Annotation.*The article philosophically analyzes the fact that in New Uzbekistan, the glorification of human dignity and the provision of social development are mutually exclusive dialectical processes, and that the guarantee of human dignity, rights and opportunities serves as the foundation for a new era of intellectual and spiritual uplift in the country. Scientific and theoretical proposals and recommendations for the promotion of human dignity are presented.*

Keywords*: human dignity, human interests, standard of living, social development, stability, prosperity, socio-economic reforms, social justice, pluralism.*

Kirish. Bugungi ilm-fan taraqqiyoti o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan bir davrda inson qadrini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, har qanday mamlakatlarning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyoti uning iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan emas, balki eng avvalo, insonga bo‘lgan munosabati, uning huquq va erkinliklarini qay darajada ta’minlay olgani bilan baholanayotganligi yuqoridagi fikrga ishoradir. Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonda kechayotgan tub islohotlar mohiyatini anglash, davlat va jamiyat poydevorini mustahkamlashga qaratilayotgan jarayonlarni falsafiy jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirishga qaratilayotgan islohotlar “Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasi asosida olib borilayotganligi yangi davlatchilikning konseptual asosi va bosh falsafiy mezoniga aylandi. “Yangi O‘zbekistonda “Davlat – inson uchun” tamoyili asosida inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ularga amal qilish masalalari islohotlarimizning eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu esa nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi inson qadri va manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilganining e’tirof etilishiga sabab bo‘lmoqda” [1]. Zero, inson jamiyatdagi ijtimoiy adolatni, ma’naviy yuksalishni va barqaror iqtisodiy o‘sishni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Demak, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiya qilish inson qadri va ijtimoiy taraqqiyotning o‘zaro dialektik aloqadorligini falsafiy jihatdan talqin qilish dolzarb vazifalardan biridir. Chunki moddiy farovonlik ma’naviy va intellektual yuksalish bilan uyg‘unlashmagan

joyda chinakam ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Shu bois Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotini tahlil qilish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson qadri muammosini tadqiq etishda Sharq va G‘arb falsafiy tafakkurining konseptual yondashuvlarini tahlil qilish muhim metodologik ahamiyatga ega. G‘arb paradigmasi insonni falsafiy aksioma sifatida o‘z-o‘zidan oliy maqsad deb biladi hamda erkinlik fenomenini tarixiy evolyutsiyaning tub mazmuni sifatida talqin qiladi. Aksincha, Sharq paradigmasida inson qadri axloqiy mezonlar, ma’rifiy yuksalish, ijtimoiy hamjihatlik hamda shaxsning doimiy kamolotga intilish intellektual salohiyati orqali dalillanadi. Zamonaviy postindustrial va raqamli sivilizatsiya sharoitida esa inson qadri ko‘proq ijtimoiy kapital, axborot-resurs zaxiralarini o‘zlashtirish va transformatsiya qilish qobiliyati bilan o‘lchanmoqda. Binobarin, bugungi kunda “inson – qadriyat – jamiyat” triadasini markaziy o‘ringa qo‘ygan holda, Sharq va G‘arb falsafiy yutuqlarini sintez qilish hamda inson qadrini ijtimoiy taraqqiyotning fundamental mezoni sifatida e’tirof etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Zotan, inson qadrini anglash va uni ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi muammosi tarixiy va makoniy evolyutsiyaga ega. Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki fundamental g‘oyalar qadimgi Sharq va G‘arb falsafiy maktablarida o‘ziga xos tarzda shakllandi. Xususan, Sharq falsafasining yirik vakillari qarashlarida inson qadri muammosi gumanistik va jamoaviy taraqqiyot konsepsiyasi bilan uyg‘unlikda ko‘rilgan. Bugungi kunga kelib esa inson qadri shunchaki axloqiy kategoriya emas, balki huquqiy va iqtisodiy barqarorlikning asosiy o‘lchovi sifatida qaralmoqda. Inson qadrini yuksaltirishga oid ilmiy-falsafiy izlanishlarida ma’naviyat, insonparvarlik va inson qadri masalalari muntazam muhokama qilinib kelinmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O‘zbekistonda inson huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati, inson kapitaliga oid muammolarga qator tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, A.Choriyev “Insonning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda falsafasi” [2], Q.Abduraxmonov “inson taraqqiyotini iqtisodiy omillari” [3], Q.Nazarov “Inson qadrini akseologik jihatlari” [4], I.Saifnazarov “vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihatlari”[5], O.G‘aybullayev “yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni” [6], E.Yusupov “inson kamolotining ma’naviy asoslarini” [7], A.Sharipov “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma’naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi”ga [8] oid tadqiqotlar muammoning ilmiy jihatdan ochib berishga xizmat qiladi.

Inson, uning qadr-qimmati va qadriyatlar tizimining ijtimoiy-falsafiy tabiati hamda konseptual mohiyati bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Tarixiy kon’yuktura va ijtimoiy taraqqiyot ta’sirida davrlarga xos mafkuralar hamda dunyoqarash paradigmalarining transformatsiyalashuvi tabiiy jarayon bo‘lsa-da, shaxs va inson qadrini ulug‘lashning fundamental asosi milliy qadriyatlar tizimida barqaror saqlanib qoladi. Negaki, har bir xalq va millatning o‘ziga xosligini, jumladan, inson fenomeniga bo‘lgan yondashuvini belgilovchi uzoq asrlik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy, psixologik va axloqiy-estetik tajribalari, shuningdek, tarixiy an’analari aynan inson qadrini ta’minlashga qaratilgan milliy qadriyatlarning yaxlit strukturaviy asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson kamoloti borasidagi konseptual tasavvurlar falsafiy tafakkurning shakllanishidan ancha avval vujudga kelgan bo‘lib, shaxsning aql-zakovati, ongi va gumanistik fazilatlari uning borliqdagi aziz hamda mukarram maqomini belgilab beradi. Tarixiy-falsafiy an’anada komillik darajasiga erishgan shaxs “sog‘lom”, “barkamol” yoki “haqiqiy inson” kategoriyalari orqali tasniflangan. Mohiyatan, inson qadri fenomeni ijtimoiy tizimda shaxs markaziyatini ta’minlash, uning manfaatlari, huquqlari va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, tizimli ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar inson turmush tarzini yuksaltirish hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga yo‘naltirilgan. Bu borada davlat va jamiyat boshqaruvini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini tubdan oshirdi. Natijada, Yangi O‘zbekiston inson qadri ta’minlangan, huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvor bo‘lgan barqaror ijtimoiy davlat sifatida rivojlanmoqda. Mamlakatning jahon miqyosida integratsiyalashuvi va dunyo hamjamiyatining respublikaga nisbatan ochiqligi ushbu jarayonning muhim indikatoridir. Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, inson qadri aksiologik, antropologik va ekzistensial mezonlar vositasida ochib beriladi va har qanday ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning pirovard samaradorligini baholovchi indikator hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida inson qadr-qimmati, fundamental huquq va erkinliklarini yuksaltirish hamda ularning ishonchli himoya mexanizmlarini yaratish demokratik islohotlarning ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. Shu jihatdan, mamlakatda inson manfaatlarini ta’minlash, uning huquqiy maqomini mustahkamlash va umuminsoniy qadriyatlarni real hayotda qaror toptirish yo‘lida faoliyat yuritayotgan xalqaro subyektlar hamda xorijiy davlatlarning sa’y-harakatlarini yuksak baholaydi. O‘zbekiston global hamjamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida huquqiy-demokratik, adolatli va insonparvar davlat modelini barpo

etish maqsadida inson huquqlarini ta’minlash, himoya qilish va rivojlantirishning institutsional hamda normativ-huquqiy kafolatlarini muntazam ravishda takomillashtirib bormoqda. Mazkur kontekstda inson qadri va huquqlari fenomeni umumbashariy mezonlar, milliy davlatchilik hamda huquqiy falsafa tushunchalarini o‘zida konseptual tarzda mujassam etadi. Yangi O‘zbekiston o‘zining ko‘p ming yillik boy ilmiy merosiga tayanib, inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy standartlar va hamma e’tirof etgan normalarning hayotga izchil tatbiq etilishini ta’minlamoqda. Buning natijasida inson qadri va huquqlari muayyan tarixiy hamda etnomadaniy sharoitda o‘zining tabiiy-evolutsion rivojlanish qonuniyatlariga ega bo‘ladi.

Inson – tabiati va ontologik mohiyatiga ko‘ra borliqdagi boshqa barcha biologik organizmlardan tubdan ajralib turuvchi, o‘ziga xos aqliy salohiyat, yuksak ma’naviyat, madaniy tizim, axloqiy tafakkur hamda nutqiy aloqa xususiyatlariga ega bo‘lgan ijtimoiy-ma’naviy subyektdir. Shaxsning biosotsial tabiatini belgilovchi genetik xususiyatlar, axloqiy mezonlar va uning xulq-atvorini tartibga soluvchi fundamental xislatlar tarixiy ketma-ketlikda ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib o‘tadi. Insonning fauna vakillaridan farqini ko‘rsatuvchi muhim jihatlardan biri – uning o‘z amaliy faoliyatini ongli ravishda muvofiqlashtirish va boshqarish layoqatidir. Bu xususiyat shaxsning ijtimoiy-madaniy borliq sifatidagi yetukligini ifodalovchi madaniyat mezonidir. Shu bilan birga, shaxsning o‘z ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni ishlab chiqarish ko‘nikmasiga ega ekanligi uning ustuvor atributiv belgisidir. Inson ontogenezida mehnat determinizm omili bo‘lib xizmat qiladi. Zero, aynan ongli mehnat faoliyati orqali inson o‘zi yashayotgan tabiiy muhitni transformatsiya qiladi, madaniy va iqtisodiy boyliklar tizimini yaratadi hamda o‘z-o‘zini intellektual va ruhiy jihatdan izchil takomillashtirib boradi. Zero, Yangi O‘zbekistonda inson omilining strategik maqsad darajasiga ko‘tarilish jarayonini shunchaki alohida islohotlar yig‘indisi emas, balki yaxlit tizimga solingan falsafiy-metodologik konsepsiya sifatida fundamental tadqiq etishga, ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalardagi yangicha qonuniyatlarni ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Ko‘p ming yillik evolyutsion xarakterga ega bo‘lgan inson borlig‘i, uning mohiyati va ekzistensial mazmuni falsafa hamda turdosh fanlarning fundamental obyekti sifatida ko‘plab konseptual nazariyalarning vujudga kelishiga asos bo‘lgan bo‘lsa-da, inson qadri va uning ontologik tabiati doimiy transformatsiyada bo‘lganligi sababli, bu muammo har qanday davr rivojida o‘zining yechilmagan yangi gnoseologik jumboqlari va tadqiqot tendensiyalarini keltirib chiqarishda davom etmoqda.

Inson qadri, fundamental huquq va erkinliklari hamda milliy va umumbashariy qadriyatlar mutanosibligini ta’minlash nafaqat O‘zbekistonda, balki butun mamlakatlar miqyosda ham universal ahamiyat kasb etuvchi dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, so‘nggi yarim asr davomida birgina Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida inson qadri, uning huquqlarini kafolatlashga qaratilgan yo‘nalishlarni tartibga soluvchi 120 dan ortiq xalqaro konvensiya hamda deklaratsiyalarning qabul qilinganligi mazkur masalaning jahon hamjamiyati uchun strategik ustuvorligini ko‘rsatadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadri shunchaki ma’naviy istak yoki shior emas, balki davlatning eng oliy majburiyati, barcha islohotlarning tub maqsadi va qonunchilikning asosiy yo‘nalishi sifatida muhrlangan. Bu esa mamlakatda har bir shaxsning o‘z salohiyatini erkin ro‘yobga chiqarishi uchun huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilishiga ishoradir. “Har bir shaxsning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari umuminsoniy oliy qadriyatga aylangan bo‘lib, ushbu qadriyat g‘arbda yuzaga kelgan g‘oyalarga asoslangan, degan qarashlar mutlaqo noto‘g‘ri. Zero, inson hayoti, qadr-qimmati, erkinliklari bilan bog‘liq tushunchalar Sharq va G‘arb tafakkur olamida yuzaga kelgan qarashlarning o‘zaro uyg‘unlashib, bir-birini to‘ldirishi va boyitish natijasida shakllangan” [9].

Zamonaviy taraqqiyot bosqichida O‘zbekiston ijtimoiy hayotida inson fenomenini yuksaltirish va uning ekzistensial maqomini mustahkamlash davlat siyosatining strategik ustuvorligiga aylandi. Ushbu yo‘nalishdagi institutsional transformatsiyalar hamda ularning ijobiy dinamikasi global hamjamiyat tomonidan ijtimoiy-siyosiy jihatdan e’tirof etilmoqda. Mohiyatan, mamlakatda xalqning etnomadaniy mentaliteti va an’anaviy ma’naviy-axloqiy qadriyatlari poydevoriga qurilgan adolatli ijtimoiy davlat va inklyuziv jamiyat modeli barpo etilmoqda. Zero, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi – keng ko‘lamli islohotlar vositasida shaxsning o‘z-o‘zini namoyon etishi va mehnat farovonligini ta’minlash uchun qulay ijtimoiy-gumanitar makonni shakllantirishdan iboratdir.

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar natijasida:

– asosiy qomusimizda “inson – jamiyat – davlat” paradigmasining hamda huquqiy noaniqliklarni fuqaro foydasiga talqin etish tamoyilining mustahkamlanishi, sud-huquq tizimida “Miranda qoidasi” va “Xabeas korpus” institutlarining to‘liq qonuniylashtirilishi, shuningdek, raqamlashtirish orqali ma’muriy byurokratiyaning qisqartirilishi – shaxs erkinligi, daxlsizligi va qonun ustuvorligini kafolatlovchi hamda

inson qadrining huquqiy himoyasini davlat taraqqiyotini ta’minlovchi yaxlit mexanizmi sifatida xizmat qiladi;

– aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash va ularga ko‘maklashish maqsadida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” hamda “Yoshlar daftar”lari negizida yaratilgan “mahallabay” ishlash tizimi orqali ijtimoiy yordamni bevosita quyi bo‘g‘inda manzilli taqsimlash mexanizmining yo‘lga qo‘yilishi hamda ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan barcha ijtimoiy xizmatlarning yagona platformaga birlashtirilib, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yetim bolalar va yolg‘iz keksalar bilan ishlashning professional metodologiyasi joriy etilishi – mamlakatda inklyuziv va tizimli ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga zamin yaratadi;

- maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish, oliy ta’lim kvotalarini oshirish va xotin-qizlar uchun alohida davlat grantlarini joriy etish orqali inklyuziv bilim olish huquqini kafolatlash, bepul tibbiy yordamning minimal hajmini qonuniy mustahkamlab, birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatlarini mahalla darajasigacha desentralizatsiya qilish (markazdan quyi bo‘g‘inga tushirish) hamda “kambag‘allikdan farovonlik sari’ tamoyili asosida fuqarolarni subsidiya, imtiyozli kreditlar va kasbiy qayta tayyorlash mexanizmlari orqali barqaror daromad manbayi bilan ta’minlash – mamlakatda inson kapitalini tizimli rivojlantirishning fundamental asos vazifarisini bajaradi;

– davlat organlarining jamoatchilik oldidagi institutsional hisobdorligini hamda fuqarolar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri interaktiv muloqot tizimini qaror toptirish, shuningdek, “Tashabbusli budjet” platformasi orqali aholiga mahalliy infratuzilmaviy muammolarni hal etishda moliyaviy resurslarni yo‘naltirish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish – shaxsning jamiyat va davlat boshqaruvidagi subyektlik maqomini, uning ijtimoiy qadr-qimmatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” tamoyili mamlakat taraqqiyotining barcha tarmoqlarini modernizatsiyalashga yo‘naltirilgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar inson qadrini ta’minlashga qaratilganligi nuqtayi nazardan quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

Birinchidan, tarixga nazar tashlasak, Sharq va G‘arb olimlari (Ibn Sino, Forobiy, Navoiy, Konfutsiy, Arastu va Kant) insonning odobi, ma’naviyati va burchini jamiyatning asosi deb bilishgan. Bugungi zamo-naviy fanlar ham inson qadrini uning huquqlari, erkinliklari va jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq holda, butun dunyo tan olgan qoida sifatida o‘rganmoqda. Demak, inson qadri ma’naviyat, qonun va ijtimoiy hayotni birlashtirib turuvchi asosiy tushunchadir.

Ikkinchidan, inson qadri shunchaki odamning tirik jonzot ekanligi bilan o‘lchanmaydi. U shaxsning aqli, ma’naviyati va qonuniy huquqlari bilan belgilanadi. Inson qadri shaxs va jamiyat o‘rtasidagi totuvlikda, adolat, tenglik va huquqlarning ta’minlanishida ko‘rinadi. Bu tushuncha butun dunyo uchun umumiy bo‘lsa-da, har bir xalqning o‘z milliy qadriyatlari va an’analari asosida o‘ziga xoslik kasb etadi. Demak, inson qadrini asrash faqat yaxshi niyat emas, balki davlat siyosatining eng muhim vazifasidir.

Uchinchidan, turli falsafiy oqimlar inson qadrini turlicha tushuntirgan bo‘lsa ham, ularning maqsadi bir – insonni ulug‘lash. Sharq falsafasi inson qadrini ko‘proq ma’naviyat, tarbiya va adolat bilan bog‘lagan. G‘arb falsafasi esa, buni insonning aqli, irodasi va qonuniy huquqlari orqali tushuntirgan. Bugungi kunda esa, inson qadri demokratik tamoyillar va “inson taraqqiyoti” kabi aniq ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanmoqda. Bu ikki xil yondashuvni birga o‘rganish inson qadrini to‘liq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari va aniqlangan qonuniyatlardan kelib chiqib, Yangi O‘zbekistonda inson qadrini mustahkamlash borasida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

–oliy o‘quv yurtlarida ijtimoiy fanlar yo‘nalishi uchun “Yangi O‘zbekistonda inson qadri masalalari” deb nomlangan alohida o‘quv qo‘llanma yaratish va uni tanlov fan sifatida sifatida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish;

–inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro qoidalar bilan milliy rejalarni bir-biriga moslashtirish hamda barcha iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarda birinchi navbatda xalq manfaatlarini ta’minlaydigan tizimlar(platformalar, STARTAP loyihalar)ni takomillashtirish;

–OAV orqali inson qadrini ulug‘lashga bag‘ishlan targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini hayotiyligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент”, O‘zbekiston”, 2021, 56-бет.

(2). Чориев А. Инсон фалсафаси (Биринчи китоб). Тошкент, Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. 2007.

(3). Абдураҳмонов Қ. Инсон тараққиёти. Тошкент, “Иқтисодиёт”, 2013, 464-бет.

(4). Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. Тошкент, Файласуфлар миллий жамияти, 2004, 66-бет.

(5). Saifnazarov I. Yangi O‘zbekiston: Inson qadri ulug‘langan yurt. T., “Ilm-Ziyo-Zakovat” MChJ, 2023, 209-
(6). G‘aybullaev O.M. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni. “Imom Buxoriy saboqlari” jurnali, 2022, 1-son, 145–146-betlar.
(7). Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т., “Университет”, 1998,148-бет.
(8). Sharipov A.Z. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi –yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma’naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida. FarDU, “Ilmiy xabarlar”, 2025, 2-son, 60–64-betlar.
(9). Мирзиёев Ш.М. Нозирги замон ва Янги Ўзбекистон. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2024, 43-бет.

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o‘g‘li (Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi; E-mail: egamberdiyevbaxriddin65@gmail.com)

ZAMONAVIY O‘ZBEK JAMIYATIDAGI URF-ODAT VA MAROSIMLARNING IJTIMOIY-MADANIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek jamiyatida urf-odatlar va marosimlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Urf-odatlar va marosimlar xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘ziga xosligi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy birligini saqlaydigan muhim madaniy institutdir. Maqolada bugungi jamiyatda oila, qo‘shnichilik, to‘y, motam, bayram, mehmondo‘stlik, hashar va kattalarga hurmat kabi an’anaviy amaliyotlarning vazifalari ta’kidlangan. Shuningdek, urf-odatlar va marosimlar urbanizatsiya, migratsiya, globalizatsiya, raqamli aloqa va yoshlarning dunyoqarashidagi o‘zgarishlar ta’sirida yangi ma’no kasb etayotgani ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *urf-odat, marosim, o‘zbek jamiyati, mahalla, milliy qadriyat, nomoddiy madaniy meros, an’anaviylik, zamonaviylik.*

Эгамбердиев Бахриддин Баходир оглу (Наманганский филиал Ташкентского международного университета химии, Преподаватель кафедры социальных и гуманитарных наук; E-mail: egamberdiyevbaxriddin65@gmail.com)

СОЦИО-КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБЫЧАЕВ И РИТУАЛОВ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется социокультурное значение обычаев и ритуалов в современном узбекском обществе. Обычаи и ритуалы являются важным культурным институтом, сохраняющим историческую память, национальную идентичность, моральные ценности и социальное единство народа. В статье освещаются функции традиционных практик, таких как семья, добрососедство, свадьбы, траур, праздники, гостеприимство, хашар и уважение к старшим, в современном обществе. Также показано, что обычаи и ритуалы приобретают новое значение под влиянием урбанизации, миграции, глобализации, цифровых коммуникаций и изменений в мировоззрении молодежи.*

Ключевые слова: *обычаи, ритуалы, узбекское общество, соседство, национальная ценность, нематериальное культурное наследие, традиционализм, современность.*

Egamberdiev Bakhriddin Bakhodir oglu (Namangan branch of Tashkent International Kimyo University Teacher of the Department of Social and Human Sciences; E-mail: egamberdiyevbaxriddin65@gmail.com)

THE SOCIO-CULTURAL SIGNIFICANCE OF CUSTOMS AND RITUALS IN MODERN UZBEK SOCIETY

Annotation. *This article analyzes the socio-cultural significance of customs and rituals in modern Uzbek society. Customs and rituals are an important cultural institution that preserves the historical memory, national identity, moral values, and social unity of the people. The article highlights the functions of traditional practices such as family, neighborliness, weddings, mourning, holidays, hospitality, hashar, and respect for elders in today’s society. It also shows that customs and rituals are taking on a new meaning under the influence of urbanization, migration, globalization, digital communication, and changes in the worldview of young people.*

Keywords: *customs, rituals, Uzbek society, neighborhood, national value, intangible cultural heritage, traditionalism, modernity.*

Kirish. O‘zbek xalqi tarixan boy urf-odatlar, an’analar va marosimlarga ega jamiyatlardan biridir. Bu qadriyatlar xalqning turmush tarzida, oilaviy munosabatlarda, jamoat hayotida, diniy va amaliy qarashlarida, bayramlarida va kundalik muloqot madaniyatida yaqqol aks etgan. Urf-odatlar va marosimlar nafaqat o‘tmishdan meros bo‘lib qolgan madaniy shakllar, balki jamiyatning hozirgi ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi, avlodlar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlovchi va milliy o‘ziga xoslikni saqlab qoluvchi muhim omil hamdir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashuv va modernizatsiya sharoitida jamiyatda an’anaviy qadriyatlarning roli qayta baholanmoqda. Bugungi kunda to‘y, dafn marosimi, beshik to‘yi, sunnat to‘yi, Navro‘z, Hayit, hashar, mehmondo‘stlik va qo‘shnichilik kabi an’analar, bir tomondan, milliy madaniyatning barqarorligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, ular zamonaviy hayot talablariga moslashish jarayonidan o‘tmoqda. Xususan, "Xalq nima deydi?" tamoyiliga asoslangan ijtimoiy bosimning kuchayishi, ba’zi marosimlarga ortiqcha xarajatlar, dabdababozlik va "Xalq nima deydi?" bu mavzuni ilmiy jihatdan o‘rganishni zarur qiladi.

Tadqiqotning ilmiy muammosi shundaki, o‘zbek urf-odatlari va marosimlari, ko‘pincha, etnografik tavsif sifatida o‘rganiladi. Biroq ularning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalari, yoshlar tarbiyasiga ta’siri, mahalla va oila institutidagi roli, shuningdek, zamonaviylikka moslashish jarayonlari chuqur tahlilni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy o‘zbek jamiyatida urf-odatlar va marosimlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ochib berishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi:

•urf-odatlar va marosimlar tushunchalarining mazmunini aniqlash;

•ularning o‘zbek jamiyatidagi asosiy ko‘rinishlarini tahlil qilish;

•oila, mahalla va milliy o‘ziga xoslikni saqlashdagi rolini ko‘rsatish;

•zamonaviy o‘zgarishlarning marosimlarga ta’sirini ta’kidlash;

•mavjud muammolar bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti zamonaviy o‘zbek jamiyatidagi urf-odatlar va marosimlar tizimidir. Tadqiqot predmeti ushbu urf-odatlar va marosimlarning ijtimoiy birdamlik, milliy qadriyatlar, madaniy xotira, axloqiy tarbiya va jamiyat hayotidagi ahamiyatidir.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, u an’analar va marosimlarni nafaqat madaniy meros sifatida, balki zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlovchi va an’analarni zamonaviylik bilan bog‘lovchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida ham talqin qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Odatlar va marosimlar masalasi antropologiya, etnologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlarida keng o‘rganilgan. E.Taylor madaniyatni insoniyat tomonidan yaratilgan bilim, e’tiqod, san’at, axloq, urf-odatlar va boshqa qobiliyatlar majmuasi sifatida talqin qiladi [4;3-b.]. Bu yondashuv bizga urf-odatlarni madaniyatning ajralmas qismi sifatida tushunish imkonini beradi.

E.Dyurkgeym marosimlarni jamiyatda jamoaviy ong va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash vositasi sifatida talqin qiladi [1;217–225-b.]. Marosimlarda odamlar shaxs sifatida emas, balki jamoa a’zolari sifatida harakat qilishadi. Bu qarash o‘zbek jamiyatidagi to‘y, motam, hashar va bayram marosimlarini tahlil qilishda muhimdir.

A.van Gennep inson hayotida tug‘ilish, voyaga yetish, nikoh va o‘lim bilan bog‘liq marosimlarni "o‘tish marosimlari" sifatida o‘rganadi [2;3–11-b.]. O‘zbek xalqining beshik to‘yi, sunnat to‘yi, to‘y, kelin salomlashish, motam va xotira marosimlari ham insonning bir ijtimoiy mavqeyidan boshqasiga o‘tishini ifodalaydi [3;94–130-b.].

O‘zbek olimlari urf-odatlar va marosimlarning tarixiy, etnografik va ma’naviy jihatlarini o‘rganib chiqdilar. Xususan, oilaviy marosimlar, xalq bayramlari, diniy va amaliy qadriyatlar, qo‘shnichilik hayoti va o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi milliy madaniyatning muhim elementlari sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, UNESCO tomonidan ilgari surilgan nomoddiy madaniy meros tushunchasi urf-odatlar va marosimlarni xalqning "tirik merosi" sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [5;5–7-b.].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlar an’analarning tarixiy kelib chiqishi va etnografik tavsifini keng yoritib bergan. Biroq ularning zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishi, yoshlar hayotidagi roli va ijtimoiy tarmoqlar va urbanizatsiya ta’sirida o‘zgarishi yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Shuning uchun ushbu maqolada an’analar va marosimlarning zamonaviy ijtimoiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo‘lib, sifatli usullarga asoslangan kompleks yondashuvdan foydalangan. Tadqiqotda urf-odatlar va marosimlar zamonaviy o‘zbek jamiyatining ijtimoiy hayoti, qadri-yatlar tizimi va madaniy xotirasi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan.

Tadqiqotda tizimli tahlil, strukturaviy-funksional yondashuv, qiyosiy-tarixiy usul va aksiologik tahlil qo‘llanildi. Tizimli tahlil orqali an’analar oila, mahalla, jamiyat, din, iqtisodiyot va madaniyat bilan bog‘liq yaxlit hodisa sifatida ko‘rib chiqildi. Strukturaviy-funksional yondashuv yordamida jamiyatdagi marosimlarning asosiy funksiyalari – birlashtirish, ta’lim berish, tartibga solish, qadriyatlarni uzatish va madaniy xotirani saqlash aniqlandi.

Qiyosiy-tarixiy usul asosida an’anaviy marosimlarning avvalgi shakllari zamonaviy shakllari bilan taqqoslandi. Aksiologik yondashuv yordamida mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, saxovat, sabr-toqat, jamoaviy ish, oilaviy hayot va mahalla birligi kabi qadriyatlarning an’analar orqali namoyon bo‘lishi tahlil qilindi.

Tadqiqot materiallari sifatida oilaviy marosimlar, diniy va madaniy bayramlar, qo‘shnichilik urf-odatlari, xalq qadriyatlari va o‘zbek jamiyatida keng tarqalgan mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar ishlatilgan.

Tahlil va natijalar. Urf-odat – bu ma’lum bir xalq yoki jamiyatda uzoq vaqt davomida shakllangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan xatti-harakatlar, axloqiy me’yorlar va kundalik amaliyotlar to‘plami. Marosim – bu ma’lum bir tartibda, ramziy va jamoaviy ishtirokda amalga oshiriladigan madaniy tadbir. O‘zbek jamiyatida bu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson hayotining deyarli barcha bosqichlarini qamrab oladi [8;45–52-b.].

O‘zbek xalqining urf-odatlari va marosimlarini shartli ravishda bir nechta guruhlarga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga oilaviy marosimlar kiradi. Bular beshik to‘ylari, sunnat to‘ylari, nikoh to‘ylari, to‘ylar, uyga ko‘chib o‘tish va boshqa tadbirlardir. Ushbu marosimlar orqali oilaviy va qarindoshlik rishtalari mustahkamlanadi va yangi ijtimoiy mavqelar tan olinadi [9;80–82-b.]. Masalan, nikoh marosimi nafaqat ikki yosh tomonidan oila qurishni rasmiylashtiradi, balki ikki qarindosh urug‘ o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni ham mustahkamlaydi.

Ikkinchi guruhga diniy va madaniy marosimlar kiradi. Bularga Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, iftor, dafn marosimlari, xotirlash va xayriya marosimlari kiradi [6;15–18-b.]. Ushbu marosimlar sabr-toqat, saxovat, mehr-oqibat, hamdardlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi qadriyatlarni namoyish etadi. Xususan, motam marosimlari paytida jamiyat va qarindoshlar tomonidan oilani qo‘llab-quvvatlash jamiyatdagi birdamlikning yorqin namoyonidir.

Uchinchi guruhga jamoaviy va mahalla amaliyotlari kiradi. Hashar, obodonlashtirish tadbirlari, qo‘shnichilik yordami va mahalla yig‘inlari o‘zbek jamiyatida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlaydi [7;56–59-b.]. Bu jarayonda mahalla nafaqat yashash joyi, balki ta’lim, nazorat, maslahat va yordam muassasasi sifatida ham faoliyat yuritadi.

Urf-odatlar va marosimlarning eng muhim vazifalaridan biri milliy o‘ziga xoslik va madaniy xotirani saqlab qolishdir. Navro‘z, sumalak, palov, milliy libos, xalq musiqasi, mehmondo‘stlik va dasturxon odobi o‘zbek xalqining madaniy ramzlari hisoblanadi. Ushbu amaliyotlar orqali yosh avlod xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi bilan tanishadi.

Zamonaviy sharoitda urf-odatlar va marosimlar o‘zgarish jarayonini boshdan kechirmoqda. Urbanizatsiya natijasida ko‘plab marosimlar hovli yoki mahalladan restoran va ziyofat zallariga ko‘chib o‘tdi [10; 12–15-b.]. Migratsiya, o‘z navbatida, urf-odatlarni chet elda yashovchi o‘zbeklar uchun milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish vositasiga aylantirdi. Raqamli texnologiyalar tufayli to‘ylar va bayramlar ijtimoiy tarmoqlarda keng namoyish etilmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, madaniyatni targ‘ib qilsa, ikkinchi tomondan, namoyishkorlik va taqlidni oshirishi mumkin. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

Urf-odat va marosimlarning vazifasi	**Ijtimoiy-madaniy ahamiyati**
Birdamlikni mustahkamlash	Qarindosh, qo‘shni va mahalla a’zolarini birlashtiradi.
Tarbiyaviy vazifa	Yosh avlodga hurmat, odob, saxovat va mas’uliyatni singdiradi.
Madaniy xotirani saqlash	Tarixiy tajriba va qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatadi.
Milliy o‘zlikni mustahkamlash	Xalqning o‘ziga xos madaniy belgilarini saqlaydi.
Ijtimoiy yordam	To‘y, aza, hashar va ehson orqali o‘zaro ko‘makni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, ayrim marosimlarning muammoli jihatlari ham mavjud. Xususan, ortiqcha xarajatlar, dabdababozlik, qarzga to‘ylar o‘tkazish, "Odamlar nima deydi?" degan ijtimoiy bosim, rasmiyatchilik va marosimning asl ma’nosidan chetga chiqish holatlari mavjud. Bu an’analarning ma’naviy mohiyatini zaiflashtirishi mumkin. Shuning uchun an’analarni saqlab qolish, ularni o‘zgarmagan holda qayta tiklashni emas, balki ma’naviy mazmunini saqlab qolgan holda ularni zamonaviy hayotga moslashtirishni anglatadi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy o‘zbek jamiyatida urf-odatlar va marosimlar milliy madaniyat, ijtimoiy birdamlik va axloqiy tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. Ular orqali jamiyat a’zolari o‘rtasida hamkorlik, mehr-oqibat, hurmat, saxovat va mas’uliyat tuyg‘ulari mustahkamlanadi. Oila va jamiyat hayotida urf-odatlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’analar va marosimlar zamonaviylik sharoitida yo‘qolib ketmayapti, balki yangi shakl va ma’nolarga ega bo‘lmoqda. Ular raqamli muhit, migratsiya, shahar hayoti va yoshlarning dunyoqarashi ta’sirida qayta talqin qilinmoqda. Biroq ularning ijobiy ijtimoiy funksiyasini saqlab qolish uchun isrofgarchilik, dabdababozlik va haddan tashqari ijtimoiy bosimdan voz kechish kerak.

Mavzu bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. To‘y va marosimlarni ixcham, mazmunli va tejamkor tarzda o‘tkazish madaniyatini mustahkamlash zarur.

2. Ta’lim muassasalarida an’analar va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiruvchi darslar tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Marosimlarni tartibga solishda mahalla institutining roli maslahat, targ‘ibot va ijtimoiy yordam shaklida rivojlantirilishi kerak.

4. Yoshlar orasida milliy an’analarni zamonaviy va ijodiy tarzda targ‘ib qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish zarur.

5. Kelajakda o‘zbek an’analarining yoshlar ongiga, migratsiya jarayonlariga va raqamli madaniyatga ta’sirini empirik tadqiqotlar asosida chuqurroq o‘rganish kerak.

Umuman olganda, an’analar va marosimlar o‘zbek jamiyatining madaniy barqarorligini ta’minlaydigan muhim qadriyatlar tizimidir. Ularni saqlab qolish, ilmiy o‘rganish va zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Durkheim E. The Elementary Forms of Religious Life. Paris, 1912, 647-bet.
[2]. Gennep A. van. The Rites of Passage. Paris, 1909, 288-bet.
[3]. Turner V. The Ritual Process: Structure and Anti-Structure. Chicago, 1969, 213-bet.
[4]. Tylor E.B. Primitive Culture. London, 1871, 973-bet.
[5]. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris, 2003, 16-bet.
[6]. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. Toshkent, “Fan”, 2007, 276-bet.
[7]. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994, 320-bet.
[8]. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq marosimlari va folklori. Toshkent, “Fan”, 2010, 294-bet.
[9]. Qoraboyev U. O‘zbek xalq bayramlari. Toshkent, “Sharq”, 2002, 234-bet.
[10]. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2013, 453-bet.

Naimov Dostonbek Rustamovich (Buxoro davlat universiteti Ijtimoiy falsafa yo‘nalishi 1-bosqich tayanch doktornti; naimovdostonbek1@gmail.com

TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SHAROITIDA SHAKLLANGAN SIYOSIY ONG VA TANQID

Annotatsiya. *Ushbu maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ong va tanqid jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada Rossiya imperiyasining hududni bosib olish va maxsus ma’muriy-harbiy boshqaruv tizimini joriy qilishi natijasida mahalliy siyosiy va ijtimoiy hayot cheklanishi, shuningdek, xalq orasida siyosiy ongning shakllanishi tahlil qilinadi. Maqolada siyosiy tanqidning bir nechta shakllari yoritilgan: milliy-siyosiy tashkilotlar orqali olib borilgan tinch tanqid, diniy-axloqiy g‘oyalar va matbuot orqali jamiyatni uyg‘otish hamda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik. Shuningdek, mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ongning milliy uyg‘onish, jamiyat taraqqiyoti va siyosiy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *mustamlakachilik, mahalliy siyosiy elita, ziyolilar, siyosiy ong, siyosiy tanqid, Turkiston, milliy uyg‘onish, milliy tashkilotlar, matbuot, diniy-axloqiy g‘oyalar, ma’rifatparvarlik, bosmachilik.*

ПОЛИТИЧЕСКОЕ СОЗНАНИЕ И КРИТИКА, СФОРМИРОВАВШИЕСЯ В УСЛОВИЯХ КОЛОНИАЛИЗМА В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению процессов политического сознания и критики, сформировавшихся на территории Туркестана в условиях колониализма в конце XIX – начале XX века. В статье анализируется, как завоевание региона Российской империей и внедрение специальной административно-военной системы управления привели к ограничению местной политической и общественной жизни, а также к формированию политического сознания среди населения. В статье также рассматриваются различные формы политической критики, включая мирную критику, осуществляемую через национальные политические организации, пробуждение общества посредством религиозно-нравственных идей и прессы, а также вооружённое сопротивление про-*

тив советской власти. Кроме того, анализируется вклад политического сознания, сформированного в колониальных условиях, в национальное пробуждение, развитие общества и эволюцию политической мысли.

Ключевые слова: *колониализм, местная политическая элита, интеллигенция, политическое сознание, политическая критика, Туркестан, национальное пробуждение, национальные организации, пресса, религиозно-нравственные идеи, просветительское движение, басмаческое движение.*

POLITICAL CONSCIOUSNESS AND CRITICISM FORMED UNDER COLONIAL CONDITIONS IN TURKESTAN

Annotation. *This article is devoted to the study of the processes of political consciousness and criticism that emerged in Turkestan under colonial conditions in the late 19th and early 20th centuries. It analyzes how the Russian Empire's conquest of the region and the introduction of a special administrative-military governance system led to the restriction of local political and social life, as well as the formation of political consciousness among the population. The article also highlights several forms of political criticism, including peaceful critique carried out through national political organizations, the awakening of society through religious and moral ideas and the press, as well as armed resistance against Soviet authority. Furthermore, it examines the contribution of political consciousness formed under colonial conditions to national awakening, social development, and the evolution of political thought.*

Keywords: *colonialism, local political elite, intellectuals, political consciousness, political criticism, Turkestan, national awakening, national organizations, press, religious and moral ideas, enlightenment movement, Basmachi movement.*

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan mustamlakachilik jarayonlari nafaqat siyosiy boshqaruv tizimini, balki jamiyatning ichki tafakkurini ham tubdan o‘zgartirdi. Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimi mahalliy aholining siyosiy hayotdagi ishtirokini keskin cheklab qo‘ydi, natijada jamiyatda yangi turdagi siyosiy ong va unga xos tanqidiy qarashlar shakllana boshladi. Aynan shu jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u milliy uyg‘onish, siyosiy tafakkur evolyutsiyasi va jamiyat taraqqiyotining tarixiy ildizlarini anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur davrda shakllangan siyosiy ong va tanqidning mohiyatini, uning qanday omillar ta’sirida yuzaga kelganini hamda qaysi shakllarda namoyon bo‘lganini kompleks tarzda o‘rganish zarurati yuzaga keladi. Chunki mavjud tadqiqotlarda ko‘pincha alohida jarayonlar yoritilgan bo‘lib, siyosiy ong, diniy-ma’rifiy qarashlar va siyosiy tanqidning o‘zaro bog‘liqligi yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Aynan mana shu holat mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanish olib borishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida e’tibor Turkistonda mustamlakachilik sharoitida yuzaga kelgan siyosiy ongning shakllanish jarayonlari, uning ijtimoiy-siyosiy omillari va turli ko‘rinishdagi tanqidiy faoliyat bilan uzviy aloqasini ochib berishga qaratiladi. Jarayonni chuqurroq anglash uchun, avvalo, Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan boshqaruv tizimining mohiyati, mahalliy siyosiy elitaning chetlashtirilishi, diniy va ma’rifiy omillarning ta’siri, shuningdek, jadidchilik harakati va milliy tashkilotlar faoliyati izchil tahlil qilinadi. Shu asosda, siyosiy ongning evolutsion rivoji, ya’ni, ma’rifatparvarlik orqali islohotga intilishdan tortib, keskin qarshilik shakllarigacha bo‘lgan bosqichlar ochib beriladi.

Tahlil jarayonida asosiy e’tibor Turkiston jamiyatida yuzaga kelgan siyosiy ongning o‘ziga xos jihatlari, uning diniy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi hamda siyosiy tanqidning turli shakllarda – matbuot, ma’rifiy faoliyat, milliy tashkilotlar va qurolli qarshilik orqali namoyon bo‘lishiga qaratiladi. Shu orqali jamiyatda shakllangan siyosiy tafakkur va uning tarixiy ahamiyati chuqurroq yoritiladi. Mazkur yondashuv ilmiy jihatdan shunisi bilan ahamiyatliki, unda siyosiy ong va tanqid jarayonlari alohida-alohida emas, balki yagona tarixiy-sotsial tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Natijada mustamlakachilik sharoitida yuzaga kelgan siyosiy tafakkurning milliy uyg‘onish va keyingi davr siyosiy jarayonlariga ko‘rsatgan ta’siri yangicha talqinda ochib beriladi hamda ushbu jarayonlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkistonda mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ong va tanqid masalasi bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, D.Alimova jadidchilik harakati orqali milliy uyg‘onish va siyosiy tafakkur shakllanishini tarixiy jihatdan asoslab beradi [1].

B.Qosimov esa jadid adabiyoti misolida siyosiy va ijtimoiy g‘oyalar evolutsiyasini tahlil qilib, milliy ong rivojida adabiyotning o‘rnini ko‘rsatadi [6].

Mustamlakachilik siyosatining oqibatlari H.Ziyoyev tomonidan keng yoritilib, unda Rossiya imperiyasi boshqaruv tizimining mahalliy jamiyatga ta'siri ochib beriladi [10]. Q.Rajabov tadqiqotlarida esa Turkiston tarixidagi siyosiy jarayonlar va milliy harakatlar tizimli tahlil qilinadi [9]. Xorijiy tadqiqotchilardan A.Khalid jadidchilik va siyosiy ong masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuv asosida o'rganib, uning diniy-ma'rifiy asoslarini yoritadi [5]. H.B.Paksoy esa bosmachilik harakatini mustamlakachilikka qarshi siyosiy tanqidning keskin shakli sifatida talqin qiladi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Turkistonda mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ong va tanqid jarayonlarini yoritishda tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga asoslanib, tarixiy-qiyosiy, tahlil va sintez, kontent-tahlil hamda muammoviy-tahliliy metodlardan kompleks foydalanildi, bunda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar izchil tahlil qilinib, siyosiy ong shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda umumlashtirildi va ilmiy xulosalarning asoslanganligi ta'minlandi.

Tahlil va natijalar. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududlari bosib olingach, mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish maqsadida maxsus ma'muriy-harbiy boshqaruv tizimi shakllantirildi. Aleksandr II tomonidan tasdiqlangan "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom" asosida 1867-yil 14-iyulda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Ushbu hujjatga ko'ra, o'lka oddiy guberniya emas, balki harbiy-mustamlaka hududi sifatida boshqarilib, general-gubernator K.P.fon Kaufmanga keng vakolatlar berildi [14]. Natijada hududda to'liq harbiy boshqaruv o'rnatilib, yerlar davlat mulki deb e'lon qilindi va soliq tizimi joriy etildi. Deyarli XIX asrning ikki dekadasi davomida saqlanib kelgan boshqaruv tartibi imperator Aleksandr uchinchi tomonidan 1886-yil 12-iyunda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom" bilan yanada mustahkamlandi [16]. Mahalliy boshqaruv saqlangan bo'lsa-da, u to'liq ma'muriy nazorat ostiga olindi, yer siyosati esa imperiya manfaatlariga xizmat qildi.

Mahalliy siyosiy elitaning hokimiyatdan chetlashtirilishi bu davrning asosiy xususiyatiga aylandi. Qo'qon xonligi tugatilgach, mahalliy hukmdorlar siyosiy qaror qabul qilish huquqidan mahrum bo'ldi, yuqori lavozimlar faqat rus amaldorlariga berildi, saylov tizimi nazorat ostiga olindi va diniy elitaning ta'siri cheklab qo'yildi. Bundan tashqari, yer-suv masalasidagi tengsizliklar hamda bo'lib boshqarish siyosati iqtisodiy asos yo'qolishi holatida siyosiy ta'sirning ham pasayishiga olib keldi. Umumiy ko'rinishda quyidagilar:

–an'anaviy siyosiy tuzumning tugatilishi;

–yuqori lavozimlarni faqatgina rus amaldorlariga berilishi holati;

–saylov tizimining nazorat ostiga olinishi;

–diniy elitaning ta'sirini cheklash;

–yer siyosati orqali iqtisodiy asosni yemirish, milliy davlatchilik tajribasining uzilishiga, siyosiy vakillik tizimini yo'q qilinishiga, mahalliy aholi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidan butunlay chetda qolishiga, keyinchalik, jadidchilik va milliy ozodlik harakatlari paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Bu jarayonlar siyosiy vakillik tizimining yo'qolishiga va milliy ozodlik harakatlari uchun zamin yaratdi. Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida siyosiy ong shakllana boshladi va u, ko'pincha, diniy-ma'rifiy asosda rivojlandi. Islom ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutib qolgan holda, mustamlakachilik siyosati "zulm" sifatida baholandi va adolat g'oyalari diniy tushunchalar orqali ifodalandi. Jadidlar bu jarayonda dinni inkor etmay, uni yangilash orqali siyosiy va ma'rifiy islohotlarni ilgari surdilar. Jadidalarning yorqin namoyndasi hisoblangan Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan jaholat tanqid qilingan "Padarkush" dramasi, Abdulla Avloniy axloqiy poklikni millat taraqqiyotining asosi sifatida va ilm olishni diniy farz sifatida talqin qilingan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari, diniy-ma'rifiy, siyosiy ongning amaliy ko'rinishi tarzida o'z yangi usul maktablarida diniy ta'limni zamonaviy fanlar bilan birlashtirgan Munavvarqori Abdurashidxonovlar buning yaqqol isboti edi. Diniy-siyosiy uyg'unlik matbuotda ham o'z ifodasini topdi. Maqolalar Qur'on oyatlari bilan boshlanar jamiyat taraqqiyoti va ilm olish faoliyati ham hadislar asosida izohlanar edi. Jamiyat taraqqiyoti g'oyasi "Iqro" (o'qi) amri bilan asoslab berildi [17]. Bu diniy dalil orqali siyosiy va ma'rifiy islohotni legitimlashtirish edi. Ziyolilar G'arb taraqqiyotini qabul qilish jarayonida uni islomga zid emas deb, balki moslashtirish mumkin deb hisobladilar hamda axloqiy siyosat tushunchasi borasida siyosiy kurash – axloqiy poklik, halollik va adolat tamoyillariga tayanishi kerak degan g'oyalarni ilgari surdilar. Ziyolilar evolutsion yo'lni afzal ko'rib, qurolli kurashdan ko'ra ma'rifat va islohot orqali jamiyatni o'zgartirishni maqsad qildilar. Ular ta'limni rivojlantirish, qonuniy yo'l bilan huquqlarga erishish va zo'ravonlikdan tiyilish g'oyalarini ilgari surdilar. Jadidlar tomonidan izohlangan:

– "Millat, avvalo, ilmli bo'lmasa, erkinlikni saqlab qola olmaydi" [7];

–"Ma'rifat va tarbiya – siyosiy erkinlikka olib boradigan yo'ldir" [2];

–“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir” kabi fikrlar siyosiy mustaqillikni darhol talab qilishdan ko‘ra, xalqni savodli qilishni birinchi o‘ringa qo‘ydi.

Bu kabi tarixiy xatti-harakatlarni matbuot orqali siyosiy ongni oshirish, teatr orqali ijtimoiy muammolarni ko‘rsatish hamda yangi usul maktablarini ochish orqali amalga oshirish rejalashtirilgan edi.

Bu yondashuv jamiyatni modernizatsiyaga tayyorlab, siyosiy tafakkurning dunyoviylashuviga xizmat qildi.

1917-yil voqealari esa siyosiy tanqidni yangi bosqichga olib chiqdi. “Sho‘royi Islomiya” va boshqa milliy tashkilotlar tinch siyosiy kurash orqali mustamlakachilikka qarshi chiqdi [14]. Keyinchalik, ayrim guruhlar tomonidan qurolli qarshilik – bosmachilik harakati tanlandi [15]. Shu tariqa, siyosiy tanqid diniy-ma’rifiy g‘oyalardan tortib tashkiliy va qurolli shakllargacha rivojlanib, mintaqada siyosiy tafakkur va milliy uyg‘onishning asosini yaratdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Turkistonda mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ong va tanqid jarayonlari Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimi, mahalliy siyosiy elitaning chetlashtirilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar natijasida yuzaga kelgan murakkab tarixiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonlarda siyosiy ong, dastlab, diniy-ma’rifiy asosda shakllanib, keyinchalik, jadidchilik harakati orqali ma’rifatparvarlik ruhida rivojlandi va bosqichma-bosqich siyosiy tashkilotlar faoliyati hamda qurolli qarshilik shakllarigacha yetib bordi. Natijada siyosiy tanqid turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, mintaqada milliy uyg‘onish va siyosiy tafakkurning shakllanishiga muhim zamin yaratdi.

Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, Turkistonda siyosiy ong va tanqid masalasini yanada chuqurroq o‘rganishda diniy, siyosiy va ma’rifiy omillarning o‘zaro bog‘liqligini kompleks yondashuv asosida tadqiq etish zarur. Shuningdek, jadidchilik harakati va milliy siyosiy tashkilotlar faoliyatini zamonaviy siyosiy tafakkur shakllanishi bilan bog‘liq holda qayta tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tarixiy tajribadan kelib chiqib, jamiyatda siyosiy ongni shakllantirishda ma’rifat va ta’limning o‘rni kuchaytirilishi, ilmiy va ommaviy tadqiqotlarda mazkur davr tajribasidan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Alimova D.A. Jadidchilik harakati tarixi. Toshkent, “Fan”, 2006.

(2). Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 160-bet.

(3). Abdurahimov M.A., Ergashev Q. O‘zbekiston tarixi (XIX–XX asrlar). Toshkent, “Akademnashr”, 2015, 320-bet.

(4). Abduvohidov A. Jadidchilik va ma’rifatparvarlik harakati. Toshkent, “Akademiya”, 2011.

(5). Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press, 1998.

(6). Qosimov B. Jadidchilik va jadid adabiyoti. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004.

(7). Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2006, 320-bet.

(8). Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2003 (“Usuli jadid” maktablari tashkil etilishi va ta’lim islohoti masalalari).

(9). Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (XIX asr oxiri–XX asr boshlari). Toshkent, “Universitet”, 2002.

(10). Ziyoyev H. O‘zbekiston mustamlakachilik davrida. Toshkent, “Sharq”, 1998.

(11). Sodiqov Q. Jadid matbuoti va milliy uyg‘onish. Toshkent, “Akademnashr”, 2010.

(12). Turkiston va Qozog‘iston musulmonlarining qurultoyi (Ittifoqi Muslimin tuzilishi). Oyina.uz, 2023, Onlayn maqola.

(13). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8–9-jildlar (Jadidchilik, Turkiston Muxtoriyati maqolalari). Toshkent, 2004.

(14). Turkiston o‘lkasi 1917-yil fevral–oktabr oralig‘ida. Toshkent: arxiv.uz, n.n., n.y. Tarixiy ma’lumotlar bo‘limi.

(15). Paksoy H.B. “Basmachi (Basmatchevo) movement and Z.V.Togan. The Turkistan national liberation movement.” Cahiers d’études sur la Méditerranée orientale et le monde turco-iranien, 27, 301–312, 1999. Bosmachilik harakatining milliy ozodlik harakati sifatida sabablari va tuzumini tahlil qiluvchi ilmiy maqola.

(16). O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Toshkent, O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018, 432-bet.

(17). Turkiston jadidlari ma’rifiy faoliyati: g‘oyalari, maqsadlari va vazifalari. D.Saidov. Modern Science and Research. 2025, 4-son, Jadidlarning islomiy va ilm-fan uyg‘unligi, matbuotda diniy-axloqiy g‘oyalar tarqalishi haqida tahliliy maqol.

Tursinbayeva Shaxloxon Alimbayevna (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti;
E-mail: shaxloxontursinbayeva@gmail.com; ORCID: 0009-0003-2369-3962)

TARIXIY PROZA MATNIDA LINGVOMADANIY LAKUNA HODISASI VA UNING NAZARIY TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada til nazariyasi va lingvokultrologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan lingvomadaniy lakuna (tushunchaviy bo‘shliqlar) fenomeni tadqiq etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” epopeyasi matni olingan bo‘lib, undagi lakunalar tizimli-sistem asosda tahlil qilingan. Maqolada lakunalar to‘rtta asosiy lingvomadaniy maydonga (davlatchilik, harbiy san’at, etnografik va diniy-marosim) ajratilgan va ularning badiiy matn ichidagi semantik-pragmatik yuki hamda emotsional-uslubiy bo‘yog‘i ochib berilgan. Olingan natijalar jadval ko‘rinishida shakllantirilgan va til nazariyasi uchun xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *til nazariyasi, badiiy matn, lingvomadaniy lakuna, lisoniy dunyo manzarasi, konnotativ bo‘yoq.*

Турсинбаева Шахлохон Алимбаевна (ТГУУЯЛ имени Алишера Навои, докторант;
E-mail: shaxloxontursinbayeva@gmail.com; ORCID: 0009-0003-2369-3962)

ЯВЛЕНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ ЛАКУНЫ В ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРОЗЕ И ЕГО ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. *В данной статье исследуется феномен лингвокультурной лакуны (концептуальных лакун), который является одной из актуальных проблем теории языка и лингвокультурологии. Объектом исследования послужит текст эпопеи Мухаммада Али «Великое королевство», в котором на системно-структурной основе проанализированы лакуны. В статье лакуны разделены на четыре основных лингвокультурных поля (государственность, военное искусство, этнографическое и религиозно-обрядовое). Также раскрыты их семантико-прагматическая нагрузка и эмоционально-стилистическая окраска внутри художественного текста. Полученные результаты оформлены в виде таблицы, и сформулированы выводы для теории языка.*

Ключевые слова: *теория языка, художественный текст, лингвокультурная лакуна, языковая картина мира, коннотативная окраска.*

Tursinbayeva Shakhlokhon Alimbayevna (TSUULL named after Alisher Navoiy PhD Student;
Email: shaxloxontursinbayeva@gmail.com; ORCID: 0009-0003-2369-3962)

THE PHENOMENON OF LINGUACULTURAL LACUNA IN HISTORICAL PROSE FICTION AND ITS THEORETICAL INTERPRETATION

Annotation. *This article explores the phenomenon of linguacultural lacunae (conceptual gaps), which is one of the pressing issues in linguistic theory and linguaculturology. The text of Muhammad Ali's epic novel “The Great Kingdom” serves as the object of research, where lacunae are analyzed on a systemic-structural basis. In the article, the lacunae are categorized into four main linguacultural fields (statehood, military art, ethnographic, and religious-ritual). Furthermore, their semantic-pragmatic function and emotional-stylistic coloring within the literary text are revealed. The obtained results are presented in a tabular format, and conclusions for linguistic theory are formulated.*

Keywords: *linguistic theory, literary text, linguacultural lacuna, linguistic picture of the world, connotative coloring.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy tilshunoslik kognitiv, pragmatik va lingvomadaniy paradigmalarning integratsiyalashuvi natijasida yangi nazariy prinsiplarni shakllantirmoqda. Tilshunoslikda lisoniy birliklarni faqat grammatik yoki semantik sathda o‘rganish o‘rnini ularni muayyan bir xalqning milliy dunyo manzarasi, etnik tafakkuri va madaniy kodi bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq etish tamoyili egalladi.

Ma’lumki, har bir millatning o‘ziga xos yashash tarzi, tarixiy o‘tmishi, falsafiy-diniy qarashlari uning lisoniy tizimida o‘z in’ikosini topadi. Ushbu lisoniy in’ikosning eng murakkab va o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri til nazariyasida lakunallik (lisoniy va tushunchaviy bo‘shliqlar) fenomendir. Lingvomadaniy lakunalar bir xalq tafakkuridagi o‘ziga xos tushuncha yoki realiyaning boshqa til va madaniyat vakillari uchun mutloq yoki nisbiy noma’lumligini ifodalovchi universal hodisadir.

Tarixiy proza matnlarida lingvomadaniy lakunalarni o‘rganish til nazariyasi uchun favqulodda dolzarb ahamiyatga ega. Tarixiy romanlar nafaqat o‘tgan davr voqealarini badiiy qayta tiklaydi, balki o‘sha davr jamiyatining lisoniy qatlamini, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ierarxiyasini va milliy mentalitetini lin-

gvistik etalon sifatida saqlab qoladi. Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” [1;640-b.] epopeyasi Temuriylar davri davlatchiligi, harbiy san’ati, ijtimoiy va madaniy hayotini yorqin aks ettirgan yirik lisoniy manba hisoblanadi. Asar matnida bugungi kun o‘zbek tili iste’moli uchun ham, jahon tillari madaniy tizimi uchun ham xarakterli bo‘lgan o‘ziga xos konseptual, etnografik va diskursiv lakunalar mavjud. Ushbu tushunchaviy bo‘shliqlarni til nazariyasi va lingvokultrologiyaning integral paradigmalari doirasida tizimli o‘rganish, qolaversa, ularning badiiy diskursiv jarayondagi semantik-pragmatik va matn shakllantiruvchi yukini ochib berish bugungi o‘zbek matn lingvistikasi va milliy tafakkurning lisoniy dunyo manzarasini tadqiq etishda fundamental ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasi, frazeologiyasi yoki leksik-semantik xususiyatlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, tarixiy prozada lingvomadaniy lakunalarni modellashtirish va ularning matndagi nazariy maqomini belgilash masalasi hamon ochiq qolmoqda. Xususan, Muhammad Ali nasridagi o‘ziga xos tushunchaviy bo‘shliqlarning matn ichidagi konnotativ mantiqlari tizimli tasnifga solinmagan. Bu esa til nazariyasida tarixiy diskurs matn strukturasi va undagi milliy dunyo manzarasini to‘liq anglashda muayyan ilmiy bo‘shliqni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi – Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romani matnidagi lingvomadaniy lakunalar tarkibini aniqlash hamda ularning matn tarkibidagi nazariy, semantik-pragmatik va estetik statusini belgilashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

–asar matnidan faqat muayyan tarixiy davr (Temuriylar davri) va milliy mentalitetga xos lingvomadaniy lakunalarni ajratib olish;

–ajratilgan birliklarning til nazariyasidagi lisoniy va etnomadaniy tabiatini aniqlash;

–lakunalarni mavzuviy-semantik jihatdan guruhlash va tasniflash;

–badiiy matn ichida lakunalarning qanday lingvomadaniy bo‘yoq va funksiyaga ega ekanligini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romani matni, undagi badiiy diskurs parchalari belgilandi. Tadqiqot predmetini esa mazkur asar matnida aks etgan va til nazariyasi nuqtayi nazaridan o‘ziga xos konnotativ yuk yuklangan lingvomadaniy lakunalar tashkil etadi.

Mazkur ishda tarixiy roman matnidagi lakunalar shunchaki arxaizm yoki tarixiy so‘zlar (istorizmlar) sifatida emas, balki til nazariyasidagi milliy va madaniy kodlarni saqlovchi “tushunchaviy bo‘shliqlar” sifatida o‘rganiladi. Muhammad Ali ijodida qo‘llangan o‘ziga xos lakunalarning badiiy matn tarkibidagi estetik va semantik-pragmatik valentligi ochib beriladi hamda ularning til tizimidagi o‘rni modellashtiriladi. Mazkur kichik tadqiqot tarixiy nasr matnidagi tushunchaviy bo‘shliqlarni aniqlash orqali matn lingvistikasi va lingvokultrologiyaning ba’zi nazariy masalalariga aniqlik kiritadi. Ishning amaliy natijalari oliy o‘quv yurtlarining filologiya yo‘nalishlarida maxsus kurslar tayyorlashda hamda badiiy matn tahlili jarayonida yordamchi manba bo‘lib xizmat qila oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Til nazariyasida va uning zamonaviy tarmoqlari bo‘lmish lingvokultrologiya hamda kognitiv tilshunoslikda lakuna fenomeni madaniyatlararo muloqot va lisoniy dunyo manzarasi muammolarining markazida turadi. “Lakuna” termini, dastlab, tilshunoslikka fransuz olimlari J.Munen va J.Vinay hamda J.Darbelnelar tomonidan qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslik metodologiyasi doirasida olib kirilgan bo‘lib, unda bir til tizimidagi leksik birlikning ikkinchi bir til tizimida ekvivalentga ega emasligi tushunilgan [2;45–48-b.]. Dastlabki tadqiqotlarda ushbu hodisa faqat tarjima muammolari yoki leksik sathdagi “bo‘shliqlar” sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik, etnopsixolingvistika va til nazariyasi doirasida uning qamrovi keskin kengaydi.

Til nazariyasi va etnopsixolingvistikasida lakuna fenomenining fundamental nazariy prinsiplari rus tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan tizimlashtirilgan. Xususan, Y.Sorokin va I.Markovina o‘zlarining madaniyatlararo muloqot va matn idroki muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida lakunani shunchaki leksik ekvivalentning yo‘qligi emas, balki ikki milliy madaniyat to‘qnashuvida yuzaga chiquvchi o‘ziga xos tushunchaviy va psixologik tafovutlar tizimi sifatida talqin etadilar [3;87–91-b.]. Olimlar tasnifiga ko‘ra, matnda obyektiv (real borliqdagi obyektning mavjud emasligi) va subyektiv (tushunchaning etnik ongda idrok etilish xususiyatlari) lakunalar farqlanib, ular badiiy diskursda matn osti ma’nolarini tashiydigan madaniy-kognitiv kod vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, V.Kostomarov hamda Y.Sterning kabi tadqiqotchilarning ishlarida lakuna hodisasi lisoniy dunyo manzarasi va milliy mentalitet munosabatlari kontekstida o‘rganilgan. Ularning qarashlariga ko‘ra, har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi va yashash tarzi tilda muayyan “bo‘shliqlar” yoki tushunchaviy lakunalarni yuzaga keltirishi tabiiy qonuniyatdir. Bu nazariy yondashuvlar tarixiy asar matnidagi

davriy va etnik o‘ziga xosliklarni hamda Muhammad Ali nasridagi lingvomadaniy lakunalarning funksional-semantik tabiatini tizimli baholashda metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida matn tahlili va milliy lisoniy tizim o‘rtasidagi aloqadorlik, garchi bevosita “lakuna” termini ishlatilmagan bo‘lsa-da, tizimli tilshunoslik asoschilari ishlarida fundamental poydevorga ega. Xususan, A.Nurmonov til va tafakkur munosabatini sistem yondashuv asosida tadqiq etib, lisoniy belgining etnik ong bilan bog‘liqlik qonuniyatlarini ko‘rsatgan [4;44–46-b.]. Sh.Rahmatullayev esa o‘zbek tili frazeologiyasining izohli lug‘atlarida milliy-madaniy xarakterdagi, o‘zga tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilinishi imkonsiz bo‘lgan turg‘un birikmalarni semantik modellashtirish orqali o‘zbek lisoniy dunyo manzarasining frazeologik qatlamini tizimlashtirdi [5;18–22-b.].

O‘zbek tilshunosligida lingvokultrologik yo‘nalishning shakllanishi va taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan professor N.Mahmudov til tizimidagi milliy bo‘yoqni, xalq madaniyatining so‘z xazinasida aks etishini badiiy matn tadqiqi jarayoni bilan uzviy bog‘laydi. Olim “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli dasturiy tadqiqotida til birliklarining antropotsentrik mohiyatini va ularning konnotativ tarkibidagi etnik-madaniy semalarni ajratib ko‘rsatgan bo‘lib, bu bevosita badiiy matn lakunalligini anglashning nazariy asosi bo‘lib xizmat qiladi [6;3–16-b.].

O‘zbek tilshunosligida lakunallik fenomenini bevosita maxsus ilmiy muammo sifatida tadqiq etish prof. D.Xudoyberganova nomi bilan bog‘liq. Tadqiqotchi o‘zining “Matnning antropotsentrik tadqiqi” monografiyasi hamda “O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini” nomli doktorlik dissertatsiyasida lakunalarni kognitiv va madaniyatlararo muloqot paradigmasida atroflicha tahlil qildi. Olima til tizimidagi tushunchaviy bo‘shliqlarni shunchaki leksik ekvivalentning yo‘qligi emas, balki etnik tafakkurdagi o‘ziga xos konseptual tuzilmalarning (freym, skript) muayyan lisoniy kod bilan qoplanmaganligi sifatida talqin etadi va ularning matndagi lingvokulturologik xususiyatlarini tizimlashtiradi [7;112–115-b.].

O‘zbek tilshunosligida lakunallik hodisasi ko‘proq kognitiv tilshunoslik hamda chog‘ishtirma-tipologik planda (asosan, o‘zbek va g‘arb tillari qiyosida) o‘rganilgan bo‘lib, bu izlanishlarda asosan sinxron lisoniy material asos qilib olingan. Biroq lakuna tushunchasining diaxronik tabiatini, xususan, tarixiy proza doirasidagi ichki lisoniy dinamikasini tizimli-struktural tahlil etish masalasi e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Gap shundaki, tarixiy roman matnidagi lakunalar shunchaki lisoniy ekvivalentning yo‘qligini emas, balki muayyan bir ijtimoiy-tarixiy davr dunyo manzarasining matndagi badiiy in’ikosini tashkil qiladi. Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romani matnidagi til qatlamining funksional-semantik xususiyatlari shu paytgacha lingvopoetik va stilistik jihatdan tahlil etilgan bo‘lsa-da, uning tarkibidagi milliy-madaniy kodlarni va davriy bo‘shliqlarni til nazariyasi prinsiplari asosida tizimlashtirish va tasnif etish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy vazifasini belgilaydi. Ishimizda tarixiy romandagi lacunalarni shunchaki alohida so‘zlar sifatida emas, balki til taraqqiyoti hamda milliy dunyo manzarasining o‘zaro aloqadorligi kontekstida o‘rganishni maqsad qildik. Bunda asosiy e’tibor matndagi lisoniy bo‘shliqlarni davriy va madaniy omillar bilan bog‘liq holda tizimli tahlil etishga qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Tarixiy asar matnida lingvomadaniy lacunallik hodisasini aniqlash hamda uning lisoniy tabiatini yoritish til nazariyasining tizimli-struktural tamoyillariga tayanadi. Mazkur tadqiqotda ilmiy obyektivlik, til va madaniyat yaxlitligi hamda badiiy diskurs qonuniyatlari asosiy uslubiy yo‘nalish qilib olindi. Tarixiy romandagi tushunchaviy bo‘shliqlarni shunchaki alohida leksik birliklar sifatida emas, balki matn qurilishini hamda uning milliy bo‘yog‘ini ta’minlovchi lingvistik kategoriya sifatida tadqiq etish maqsadida o‘zaro aloqador tahlil usullari majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy bazasini shakllantirish maqsadida Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romani matnidan maqsadli ajratib olish usuli qo‘llanildi. Kuzatishlar natijasida o‘zbek milliy mentaliteti hamda Temuriylar davri hayotini aks ettiruvchi lingvomadaniy lakuna aniqlandi va ular mavzuviy yo‘nalishlari bo‘yicha tizimlashtirildi.

Ushbu empirik materialni ilmiy-nazariy jihatdan qayta ishlash uchun quyidagi lingvistik metodlar izchillik bilan tatbiq etildi:

–konseptual va konnotativ tahlil metodi. Bu metod yordamida ajratib olingan lakunalarning lug‘aviy va qomusiy ma’nolari o‘rtasidagi tafovutlar, shuningdek, ularning o‘zbek milliy tafakkuridagi o‘rni tahlil qilindi. Lakunaning badiiy matn ichida qanday konnotativ (emotsional-bo‘yoqdor, baholovchi, uslubiy) yuk tashishi hamda uning tarkibidagi milliy-madaniy kod qanday semantik struktura hosil qilishi aniqlandi;

–kontekstual-estetik va diskursiv tahlil metodi. Badiiy matnda har qanday lakuna alohida yashamaydi, balki muayyan bir gap, dialog yoki mikromatn ichida o‘zining haqiqiy lingvomadaniy imkoniyatini na-

moyon etadi. Ushbu metod orqali lakunalarning asar personajlari nutqini individuallashtirishdagi, tarixiy davr ruhini yaratishdagi hamda matn osti ma'nolarini shakllantirishdagi estetik vazifalari ochib berildi;

–tizimli-sistem va maydon nazariyasi metodi. Asardan aniqlangan barcha birlamchi lakunalar til tizimidagi o'rni va vazifasiga ko'ra tartibsiz to'plam emas, balki muayyan qonuniyatlarga bo'ysunuvchi mikrotizimlar ekanligi asoslandi. Lakunalar o'zaro semantik va tematik yaqinligiga ko'ra, to'rtta yirik lingvomadaniy maydonga (davlatchilik, harbiy san'at, etnografik-maishiy va diniy-marosim maydonlar) ajratildi va ularning ichki strukturaviy aloqalari o'rganildi.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etildi:

I bosqich. Tarixiy proza leksikasi, o'zbek tili tarixiy taraqqiyoti va til nazariyasida lakunallik muammosiga oid nazariy manbalar o'rganildi; empirik materiallar to'plandi.

II bosqich. Tanlab olingan lakunallik holatlari matn ichidagi funksional-uslubiy bo'yog'iga ko'ra tasniflandi; ularning lingvomadaniy tabiati ilmiy izohlandi.

III bosqich. Olingan natijalar tizimlashtirilib, ularning til nazariyasi uchun xulosalari shakllantirildi va jadval ko'rinishida modellashtirildi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining xolisligi, ishonchliligi va yuqori ilmiy aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Muhammad Alining "Ulug' saltanat" epopeyasi matnini tizimli-sistem tahlil qilish jarayonida ma'lum bo'ldiki, tarixiy proza diskursida qo'llangan lingvomadaniy lakunalar shunchaki eskilik parchalari emas. Balki ular matn ichida o'ta kuchli semantik-pragmatik yukni va estetik vazifani bajaruvchi, boshqa tillarga to'g'ridan to'g'ri o'girib bo'lmaydigan madaniy-kognitiv kodlardir. Asardan aniqlangan lakunalar til nazariyasi qoliplari asosida to'rtta asosiy mikrotizimga (lingvomadaniy maydonga) ajratildi. Quyida ularning matn ichidagi konnotativ bo'yog'i va lisoniy tabiati tahlil qilinadi.

I. Davlatchilik va ijtimoiy-siyosiy lakunalar. Temuriylar davri davlat boshqaruvi va huquqiy munosabatlarini ifodalovchi birliklar o'zbek lisoniy dunyo manzarasining fundamental poydevorini tashkil qiladi. Masalan, asar diskursida faol qo'llangan "yasoq" yoki "yasoq boshi" birliklari chet tillariga, ko'pincha, shunchaki "*qonun"* yoki *"qonun ijrochisi"* deb yuzaki tarjima qilinadi. Biroq til nazariyasi aspektida bu birlik mutlaq lingvomadaniy lakunadir. Chunki o'zbek tafakkurida va tarixiy matn tarkibida "yasoq" oddiy huquqiy hujjat emas, balki Chingizxon va Amir Temur an'analariga sodiqlikni, buzib bo'lmas va qat'iy davlat nizomini ifodalaydi.

Asardan olingan ushbu parchaga e'tibor qarataylik: *"Sohibqiron farmon berdi: har kimki yasoqni buzsa, uning boshiga saltanatning tig'i tushur!"* Bu yerda "yasoq" so'zi matn ichida dahshat, mutloq itoatkorlik va davlat qudrati kabi o'ta kuchli emotsional-ekspressiv bo'yoq yuklangan.

Shuningdek, ijtimoiy, oilaviy va tabaqaviy munosabatlar tizimini aks ettirishda milliy boshpana hamda turargoh turlarini ifodalovchi leksik qatlam alohida o'rin tutadi. Muallif badiiy nutqda an'anaviy turkiy boshpana nomlarining o'zbek tili lisoniy dunyo manzarasidagi nozik konnotativ semalaridan unumli foydalangan. Asar diskursida qo'llangan "shohchodir", "Oq uy" va "olachuq" birliklari boshqa lisoniy madaniyatlarga o'girilganda o'ziga xos etnomadaniy va funksional lakunallikni yuzaga keltirib chiqaradi. Chunki ularning har biri matn tarkibida muayyan ijtimoiy-axloqiy va marosimy munosabatlarni tartibga soluvchi lisoniy belgi vazifasini o'taydi.

Asar matnida hukmdor oilasining ichki muhiti va o'zaro muomala qoidalarini yoritishda "shohchodir" birligi muhim lisoniy vazifa bajaradi. Bu o'rinda mazkur so'z shunchaki jismoniy joyni emas, balki shaxsni va rasmiy munosabatlar muloqotini muvozanatda saqlovchi etnik-ijtimoiy chegarani anglatadi. E'tibor berilsa, matnda Amir Temur va malika munosabatlari fonida ushbu birlikning qo'llanilishi oilaviy muloqotda ham hukmdorlik maqomi va saroy etiketining saqlanishini ko'rsatadi: *"Hozir ham malika shohchodir ichida ekan, Amir Temur holatidagi o'zgarishlarni payqadi-yu, chiqib keldi va hech qanday so'z qo'shmay, sohibining oliy farmoniga muntazir joriya misoli sokin o'ltirdi."*

Lisoniy tahlil shuni ko'rsatadiki, bu lisoniy vaziyatda "shohchodir" birligi matn muhitida o'ziga xos funksional yuk tashimoqda. Chodir ichidagi malika holati va undan chiqib kelayotgan hukmdor o'rtasidagi sukunat davrning yuqori tabaqaga xos ichki muloqot madaniyatini, ya'ni so'zsiz anglashish, sadoqat va o'zaro izzat me'yorlarini ifodalaydi. Xorijiy tillarga shunchaki "royal tent" deb o'girilganda, ushbu birlik tarkibidagi oilaviy-saroy etiketiga xos bo'lgan etnolingvistik sema va milliy muomala madaniyati in'ikosi yo'qolib, matnda lisoniy bo'shliq yuzaga keladi.

Bundan farqli o'laroq, to'y marosimi va oilaviy quvonch tasvirlangan lisoniy vaziyatda "Oq uy" tushunchasi muhrlanadi. O'zbek xalqining etnik tafakkurida "Oq uy" shunchaki me'moriy tuzilish emas,

balki kelin-kuyovlar, yangi oila kodi, oq rangning muqaddasligi, shodlik va poklik ramzidir. Muallif ushbu etnomadaniy kodni badiiy matnga uzviy singdiradi: *Kelin-kuyovlar uchun bo‘y cho‘zgan Oq uy bamisoli butun o‘lanzorni to‘ldirib turar, uy ichini bezagan la’l-u dur, zar-u zabarjadlar lovullab ko‘zni olardi.*

Jumladagi “Oq uy” birligi o‘zining marosimy va semantik valentligi orqali o‘zbek to‘y an’analarining milliy-falsafiy mohiyatini aks ettiradi. Ushbu tushuncha boshqa tillarga to‘g‘ridan to‘g‘ri “white house” deb tarjima qilinganda, matndagi oilaviy va marosimy madniyatga xos mazmun butunlay yo‘qoladi va lisoniy-madaniy bo‘shliq shakllanadi.

Asar matnida harbiy askarlar, oddiy mehmonlar yoki muvaqqat yo‘lovchilar turar joyi uchun “olachuq” birligi kiritilgan. Etnografik va leksik jihatdan olachuq – chayla, kapa, kigiz yoki shox-shabbadan qilingan vaqtinchalik kamtarona boshpana ma’nosini anglatadi. Muallif ushbu birlik yordamida matnda makon xususiyati va masofa muloqotini yuzaga keltirgan: *“Temurbekning chodiri dalaning o‘rtasidagi tepalik yerda savlat to‘kib turardi… Yuz qadamcha narida, shimol tomonda olachuqlardan birida horib-tolgan mehmonlar dasturxon atrofida cho‘kka tushib tamaddi qilishardi. Abbos-bahodir ularning to‘rt nafar ekanini ko‘rdi”.*

Ushbu lisoniy vaziyat til nazariyasi aspektida g‘oyat xarakterlidir. Bu yerda shunchaki ikki boshpananing moddiy ko‘rinishi qarama-qarshi qo‘yilmayapti, balki masofaviy makon (yuz qadamcha narida, shimol tomonda joylashishi) orqali personajlarning maishiy mavqeyi va muloqot doirasi lisoniy chegaralab berilmoqda. “Olachuq” so‘zi matn muhitida kamtarlik, muvaqqatlik va oddiylik konnotatsiyasini tashimoqda.

II. Harbiy-taktik va strategik lakunalar. Eski o‘zbek tilida harbiy san’at o‘ta mukammal tizimga ega bo‘lgani bois, uning terminologiyasi bugungi kun o‘zbek tili va boshqa tillar uchun chuqur konseptual lakunallik hosil qiladi. Bunga yorqin misol sifatida “chovush” va “turg‘oq” birliklarini keltirish mumkin.

Chovush – an’anaviy talqinlarda shunchaki *“jarchi”* deb keltiriladi. Biroq “Ulug‘ saltanat” diskursida chovushlar qo‘shinning oldi qismida yurib, askarlarning jangovar kayfiyatini va ruhiy tayyorgarligini kuchaytiruvchi, dushmanning yuragiga vahima soluvchi maxsus unvonli harbiy shaxslardir. Matnda ularning hayqirig‘i va harakati jang shiddatini ta’minlovchi estetik vositaga aylanadi.

Turg‘oq – shunchaki *“soqchilik”* emas, balki tunda hukmdor chodiri atrofida o‘ta maxfiy va qat’iy tartib bilan olib boriladigan, o‘ziga xos o‘ron (parol)lar tizimiga ega bo‘lgan harbiy-xavfsizlik makonidir.

Matn tahlili: *“Turg‘oqda turgan yigitlar chovushlarning uzoqdan kelayotgan sadosidan hushyor tortdilar”.*

Ushbu jumlada har ikkala lakuna bir-biri bilan valentlik aloqasiga kirishib, matnda temuriylar harbiy intizomining mukammalligini va voqealar rivojidagi sirli, xavotirli uslubiy bo‘yoqni yuzaga keltirmoqda.

III. Etnografik va madaniy-maishiy lakunalar. Xalqning o‘tmishdagi turmush tarzi, urf-odatlari va ot-ulov madaniyati bilan bog‘liq so‘zlar tarixiy roman leksikasining eng salmoqli qismini tashkil etadi. Ma’lumki, o‘zbek dostonchilik maktabida ot shunchaki ulov emas, balki qahramonning yaqin yo‘ldoshi hamda uning sha’ni ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli ot anjomlarining har biri o‘zbek tili lisoniy dunyo manzarasida alohida ma’no-mazmun kasb etadi va boshqa tillarda to‘g‘ridan to‘g‘ri muqobiliga ega bo‘lmagan tushunchaviy bo‘shliqlarni yuzaga keltirishi mumkin. Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romani matnida ana shunday milliy o‘ziga xosliklar xalqning jangovar hayoti fonida aniq tasvirlangan.

Asarda Amir Temurning tulpori tasvirlangan lisoniy vaziyatda etnik xarakterga ega bo‘lgan so‘zlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda keladi:

“Amir Temur Xono‘g‘lonning birinchi sohibi bo‘ldi. Samarqandda sinchilar tulporni ilk marta abzallab, tilla qoshli egar urdilar, o‘n sakkiz qubbali chig‘atoy pushtan, tagi ipak, nurqali pishiq ayil tortdilar, kumush yugan taqdilar. Ikki yonida ikki tilla uzangi yaraqlardi...”.

Ushbu badiiy parchada tilga olingan ot anjomlarining qo‘llanish xususiyatlari til nazariyasi nuqtayi nazaridan diqqatga sazovordir. Masalan, matn tarkibidagi “abzallab” va “tilla qoshli egar urdilar” birikmalari tarixiy matnda shunchaki moddiy buyum ifodasi emas, balki an’anaviy turkiy davlatchilik hamda harbiy tizimda otning safarga va jangga qay darajada shay qilinganini ko‘rsatuvchi muhim belgidir.

Ushbu anjomlar zanjirida kelayotgan “ayil” (egarni otning qorniga mahkamlab bog‘laydigan pishiq qayish) so‘zi esa kontekstda jangovar holatdagi jiddiylik va hayotiy mustahkamlikni ifodalaydi. Xalq tilida *“otga ayil botganini egar bilmas, ot bilar”* iborasining faol qo‘llanishi ham ushbu birlikning o‘zbek etnik tafakkuridagi o‘rnini ko‘rsatadi. Matndagi *“tagi ipak, nurqali pishiq ayil tortdilar”* ifodasi orqali jonivorning g‘oyat asralganini va egasi uchun qadrli ekanini anglash mumkin.

Shu bilan birga, egar ustidan tortiladigan maxsus bezakli matoni ifodalovchi “pushtan” (o‘n sakkiz qubbali chig‘atoy pushtan) birligi hamda *“kumush yugan taqdilar, ikki yonida ikki tilla uzangi yaraqlardi”*

tasviri badiiy tasvir ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Ot anjomlarining oltin va kumush kabi nodir metallar bilan bezatilishi, ularga alohida qubbalar o‘rnatilishi qahramonning – Amir Temurning jamiyatdagi eng yuqori ijtimoiy-siyosiy mavqeyini, hukmdorlik qudratini va davlat boshlig‘i sifatidagi maqomini ochiq ko‘rsatadi.

Yana bir muhim lakuna “sarpo” (sarpoy) konseptidir. G‘arb madaniyatida bu shunchaki *“sovg‘a qilingan kiyim”* (gift clothing) deb talqin qilinishi mumkin. Biroq Muhammad Ali nasrida sarpoy berish marosimi bu sadoqatni qabul qilish, iymonlashish (o‘zaro ishonch), shohning marhamati va e’tirofini ifodalovchi murakkab jaroyondir: *“Xon uning yelkasiga zardo‘zi sarpoy yopdi, bu shunchaki mato emas, balki kelgusi sadoqatning ahdnamosi edi”*. Bu yerda sarpoy birligi matnda shaxsiy munosabatlarning rasmiylashishi va qahramonning jamiyatdagi mavqeyi keskin ko‘tarilganini ko‘rsatuvchi ijtimoiy-madaniy ramziy bo‘yoq kasb etmoqda.

IV. Diniy-marosim va etiket lakunalar. Tarixiy davr ijtimoiy muhitida islomiy qadriyatlar va an’anaviy etnik muloqot odobining uzviy uyg‘unligi matn tarkibida o‘ziga xos diniy-marosimiy tushunchalarni yuzaga keltirgan. Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romani matnida bunday birliklar shunchaki diniy qarashlar ifodasi emas, balki qahramonlarning ijtimoiy muloqot tizimini boshqaruvchi muhim vosita hisoblanadi. Masalan, matn muhitida faol qo‘llangan “fotiha” yoki “duoixayr” birliklari g‘arb tillariga “blessing” deb o‘girilsa-da, matndagi mantiqiy ma’no qirralarini to‘liq ochib bera olmaydi va tarjimada etnomadaniy lakunallikni keltirib chiqaradi.

Asarda muhim ijtimoiy tadbir-tantana, jang va safarga shaylanish arafasidagi ijtimoiy muloqot jarayonida mazkur marosimiy lakunaning lisoniy xususiyatlari aniq namoyon bo‘ladi:

“Chorsu maydoniga jo‘nashga fotiha o‘qilgach, amirlar panjara gulchin so‘ridan apil-tapil pastga tushib, ikki tarafda qo‘l qovushtirib turdilar. Temurbek Piri murshidga yo‘l berdi, ammo Mir Sayyid Baraka tasbeh tutgan o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, chetga chiqdi: – Biz rozi... Amir Sohibqiron! O‘tsunlar!..– Qulluq! – dedi Temurbek va otlarga qarab yurdi”.

Ushbu lisoniy vaziyatda “fotiha” birligi marosimiy matnni o‘qish harakatini anglatmaydi, balki amalga oshirilishi kutilayotgan davlat ahamiyatiga molik yirik harbiy-siyosiy ishning boshlanishiga rasmiy va ruhiy ruxsat berish marosimi hisoblanadi. Asar dialoglarida ota yoki pir tomonidan berilgan fotiha bu safarning muvaffaqiyati va o‘zaro ahdlashuv ko‘rinishidir. Badiiy parchada fotiha o‘qilishi bilan muloqot muhiti va qahramonlar harakati butunlay o‘zgaradi. Amirlar darhol pastga tushib, qo‘l qovushtirib turadilar, bu esa marosimiy tartibning jamiyatdagi yuksak o‘rnini ko‘rsatadi.

Marosimning davomi va bevosita nutqiy matni tasvirlangan navbatdagi sahna esa so‘zning amaliy kuchi va ta’sir doirasini yanada chuqurroq yoritadi:

“Keyin qo‘llarini ochib haq taolo haqiga, rasulullo hazratlari va uning avlodlari ruhlariga, chor-yor-u sahobalarga salavot o‘qib dedi: – Ilohi, Amir Sohibqiron manglaylarini yorug‘ qilg‘il, adolat-u dini islom xizmati yo‘lida o‘zing madadkor bo‘lg‘il! Omin! Hamma suronli “Omin!”–deya duoga qo‘l ochdi: – Allohu akbar!”

Lingvomadaniy nuqtayi nazaridan, ushbu lisoniy vaziyat o‘zbek marosimiy nutq etiketining to‘liq modelini namoyon etadi. Duoning boshlanishidagi salavotlar qismi muloqotning muqaddas an’analarga bog‘liqligini ko‘rsatsa, *“Amir Sohibqiron manglaylarini yorug‘ qilg‘il”* shaklidagi tilak matndagi ijtimoiy-siyosiy hamda harbiy vazifaning naqadar mas’uliyatli ekanini lisoniy dalillaydi.

Eng xarakterli jihati, pirning duosidan so‘ng atrofda yig‘ilgan barcha amirlar va askarlarning “suronli “Omin!” deya jamoaviy javob berishidir. Ushbu “suronli Omin” sadosi matn muhitida oddiygina diniy hayqiriq emas, balki qo‘shinning va amirlarning hukmdor atrofida jipslashganini, boshlanayotgan harakatga hamma birdek rozilik berib, mas’uliyatni bo‘yniga olganini ifodalovchi yuksak ijtimoiy-psixologik va pragmatik mantiqqa ega.

Bunday birliklar matnda qahramonlarning ruhiy dunyosini, ularning ichki e’tiqod darajasini va har bir muhim ishni milliy-diniy qadriyatlar bilan boshlashga bo‘lgan ehtiyojini bosiq ilmiy ohangda yoritib beradi.

Tadqiqot natijasida aniqlangan birlamchi lakunalarning til tizimidagi va matndagi o‘rni quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

T/r	Lingvomadaniy maydon nomi	Lakunalar	Matndagi konnotativ (uslubiy) bo‘yog‘i	Boshqa tillardagi holati (Lakunallik turi)
1	Davlatchilik va unvonlar	yasoq, yasoq boshi, shohchodir, Oq uy, olachuq	Mutloq hokimiyat, daxlsizlik, ijtimoiy boshqaruv bo‘yog‘i	Konseptual mutlaq lakuna

2	Harbiy-taktik tizim	chovush, turg‘oq	Jangovar shiddat, harbiy intizom va xavfsizlik ruhi	Funksional nisbiy lakuna
3	Etnografik va maishiy	sarpo, abzal, ayil, yugan	Milliy etiket, mehmondo‘stlik, shaxsiy qadriyat bo‘yog‘i	Etnografik mutlaq lakuna
4	Diniy-marosim va etiket	fotiha, duoyixayr	Ilohiy himoya, ruhiy sadoqat, taqdir in’ikosi	Konseptual va uslubiy lakuna

Xulosa va takliflar (conclusion/recommendations). Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” epopeyasi matnida lingvomadaniy lakunallik hodisasini til nazariyasi aspektida tadqiq etish natijasida quyidagi fundamental ilmiy xulosalarga kelindi:

–tarixiy proza matnidagi lakunalar shunchaki iste’moldan chiqqan arxaizm yoki istorizmlar emas, balki muayyan bir davr (Temuriylar davri) va milliy etnosning lisoniy dunyo manzarasini, ijtimoiy-madaniy kodlarini o‘zida saqlovchi va matn tuzilishini shakllantiruvchi kognitiv-tushunchaviy birliklar hisoblanadi;

–asar diskursidan aniqlangan lakunalar tartibsiz leksik to‘plam bo‘lmay, balki til tizimida mikrotizimlarni (davlatchilik, harbiy-taktik, etnografik va diniy-marosim maydonlarni) hosil qilishi asoslandi. Bu maydonlar badiiy matn ichida o‘zaro valentlik aloqalariga kirishib, asarning umumiy lingvomadaniy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Matn tarkibi bilan bog‘liq va konnotativ tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yasoq, turg‘oq, chovush, sarpo kabi birlamchi lakunalar badiiy jumlalar ichida shunchaki axborot tashuvchi vazifasini bajarmaydi. Ular personajlar muloqotida mutloq hokimiyat, ijtimoiy hamjamiyat, jangovar shiddat va milliy etiket kabi yuqori emotsional-ekspressiv va estetik uslubiy bo‘yoqlarni ta’minlaydi. Tarixiy asarlar tarkibidagi lisoniy bo‘shliqlarni tadqiq etish o‘zbek tili so‘z xazinasining tarixiy taraqqiyot dinamikasini hamda til va milliy mentalitet munosabatlarining asosiy tamoyillarini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

Kelgusida o‘zbek tarixiy prozasidagi lingvomadaniy lakunalarning to‘liq elektron tezaurus-lug‘atlarini yaratish hamda ularni kompyuter lingvistikasi qoliplariga solib, milliy korpus bazasiga integratsiya qilish amaliy tilshunoslik uchun istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Roman-epopeya. Toshkent, “Sharq”, 2013, 640-bet.

(2). Мунен Ж., Винай Ж., Дарбельне Ж. Вопросы теории перевода и сопоставительной лингвистики. Москва, “Прогресс”, 1980, с. 45–48.

(3). Сорокин Ю.А., Марковина И.Ю. Текст и культура: Проблемы межкультурного общения. Москва, “Наука”, 1989, с. 87–91.

(4). Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3-jild, Toshkent, “Akademnashr”, 2012, 44–46-betlar.

(5). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1978, 18–22-betlar.

(6). Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... “O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 2012, 5-son, 3–16-betlar.

(7). Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография, Тошкент, “Фан”, 2013, 112–115-betlar.

Abduqaxxorov Sardorbek Akramjon o‘g‘li (Andijon davlat Chet tillari instituti dotsenti;
e-mail: sardorbek.akramovich@gmail.com)

O‘ZBEK TILI ENSIKLOPEDIK KORPUSINING LINGVISTIK ARXITEKTURASI VA METHONTOLOGY ASOSIDA KONSEPTUAL ONTOLOGIYANI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tili ensiklopedik korpusining klassik lingvistik korpusdan farqlanuvchi ko‘p qatlamli lingvistik arxitekturasi nazariy jihatdan asoslangan. Korpusning markaziy birligi token yoki gap emas, balki bilim bloki, maqola va soha-moduli ekanligi ko‘rsatilgan. Methontology metodologiyasi asosida konseptual ontologiyani shakllantirishning ketma-ket bosqichlari – spetsifikatsiya, konseptuallashtirish, formalizatsiya, implementatsiya, baholash va hujjatlashtirish – ishlab chiqilgan. Bilim sohalarining UO‘K asosida taqsimlanishi va kross-soha aloqalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ensiklopedik korpus, lingvistik arxitektura, methontology, konseptual ontologiya, annotatsiya, UO‘K, OWL/RDF.*

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ОНТОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ АРХИТЕКТУРЫ ЭНЦИКЛОПЕДИЧЕСКОГО КОРПУСА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В статье обосновывается многоуровневая лингвистическая архитектура энциклопедического корпуса узбекского языка, отличающая его от классического лингвистического корпуса. Показано, что центральной единицей такого корпуса является не токен или предложение, а блок знаний, статья или предметный модуль. На основе методологии Methontology разработаны последовательные этапы формирования концептуальной онтологии: спецификация, концептуализация, формализация, реализация, оценка и документирование. Также в статье представлена классификация предметных областей, основанная на Универсальной десятичной классификации (УДК), и описаны межпредметные связи.*

Ключевые слова: *энциклопедический корпус, лингвистическая архитектура, мефонтология, коцептуальная онтология, аннотация, UO‘K, OWL/RDF.*

STAGES OF CONSTRUCTING A CONCEPTUAL ONTOLOGY BASED ON THE LINGUISTIC ARCHITECTURE OF THE ENCYCLOPEDIC CORPUS OF THE UZBEK LANGUAGE

Annotation. *The article theoretically substantiates the multi-layered linguistic architecture of the Uzbek encyclopedic corpus, distinct from the classical linguistic corpus. It is shown that the central unit of the corpus is not the token or sentence but the knowledge block, entry and domain module. Based on the Methontology methodology, the sequential stages of forming the conceptual ontology – specification, conceptualisation, formalisation, implementation, evaluation and documentation – are developed. The distribution of knowledge domains by UDC and cross-domain links are examined.*

Keywords: *encyclopedic corpus, linguistic architecture, Methontology, conceptual ontology, annotation, UDC, OWL/RDF.*

Kirish (Introduction). O‘zbek tili ensiklopedik korpusini yaratish muammosi matnlarni yig‘ish vazifasidan ancha keng bo‘lib, til birliklari, bilim tizimlari va raqamli axborot o‘rtasidagi aloqalarga bog‘liqdir. Bunday korpusda maqola matnlari, atamalar, atoqli nomlar, tarixiy va madaniy ma’lumotlar, faktlar, iqtiboslar hamda manbalar yagona axborot maydonida jamlanadi.

Biroq bu majmua faqat hajmning kattaligi bilan ilmiy qiymatga ega bo‘la olmaydi. Uning ahamiyati har bir birlikning til shakli, lug‘aviy ma’nosi, grammatik xususiyati, matndagi vazifasi va bilimlar tizimidagi o‘rni o‘zaro bog‘langan holda izohlanishida namoyon bo‘ladi. Ana shunday lingvistik arxitektura ensiklopedik korpusni oddiy matnlar to‘plamidan ilmiy tahlil va raqamli bilim almashinuvi uchun xizmat qiladigan mukammal manbaga aylantiradi.

Ensiklopedik korpus – korpus tushunchasining alohida turi bo‘lib, u klassik lingvistik korpuslardan bir qator parametrlar bilan farqlanadi: lingvistik korpusning birlamchi maqsadi til hodisalarini empirik o‘rganish, ensiklopedik korpusniki esa tushunchalar tizimi haqidagi bilimni tilshunoslik xususiyatlari bilan birga taqdim etishdir. D.Biber, S.Conrad va R.Reppen korpus tipologiyasida “maxsuslashgan korpus” toifasini ajratadi; ensiklopedik korpus shu toifaga kiruvchi, ammo ikki yoqlamali lingvistik va bilim-tashkiliy funksiyaga ega kategoriyadir.

Maqolaning maqsadi o‘zbek tili ensiklopedik korpusining lingvistik arxitekturasini klassik korpusdan farqlovchi belgilar asosida asoslash va Methontology metodologiyasi asosida konseptual ontologiyani shakllantirish bosqichlarini ishlab chiqishdan iborat.

Metodlar (Methods). Tadqiqotda korpus, ontologik modellashtirish va qiyosiy tahlil metodlari qo‘llanildi. Korpus dizayni D.Biber, S.Conrad, R.Reppen tipologiyasi va T.McEnery, A.Hardie funksional tasnifi asosida olib borildi. Ontologiya yaratish jarayoni Noy-McGuinness amaliy tartibi va Methontology metodologiyasi asosida modellashtirildi.

Klassik lingvistik korpus va ensiklopedik korpus yetti parametr (maqsad, matn tabiati, reprezentativlik, annotatsiya yo‘nalishi, foydalanuvchi profili, strukturaviy birlik, yangilanish tipi) bo‘yicha qiyoslandi. Bilim sohalari UO‘K (Universal o‘nlik klassifikatsiyasi) asosida taqsimlandi; annotatsiya darajalari R. Garside, G.Leech, T.McEnery andazasida tizimlashtirildi.

Natijalar (Results). Qiyosiy tahlil ensiklopedik korpusning o‘ziga xos arxitekturaviy yechimlarni talab qilishini ko‘rsatdi, uning strukturaviy birligi alohida token yoki gap emas, balki bilim bloki bo‘lib, u o‘z navbatida maqola va soha-modul darajalariga birlashadi. E.Atwell ko‘rsatganidek, korpus arxitekturasi ko‘p qatlamli tizim bo‘lib, ensiklopedik korpus uchun u olti qatlamdan iborat: birlamchi matn, lingvistik annotatsiya, tarkibiy-strukturaviy, ontologik-konseptual, bibliografik metama’lumot va foydalanuvchi interfeysi qatlamlari.

Annotatsiya korpus arxitekturasining markaziy tushunchasi sifatida aniqlandi; R.Garside, G.Leech va T.McEnery uni korpusning haqiqiy ilmiy qiymatini belgilovchi asosiy parametr deb baholaydi. Ensiklopedik korpus annotatsiyasi sakkiz darajadan iborat: tokenlashtirish, lemmatizatsiya, morfologik, sintaktik (Universal Dependencies), semantik (NER, FrameNet), ontologik (OWL/RDF/SKOS), bibliografik (Dublin Core) va diskursiv (bilim blok turi) darajalar.

Bilim sohalari UO‘K asosida muvozanatli taqsimlandi: ba’zi sohalar (8 – tilshunoslik va adabiyot; 9 – tarix; 7 – san’at) milliy materiallar bilan boy ta’minlangan, boshqalari (5 – tabiiy fanlar; 6 – texnika) ko‘p hollarda o‘zlashma atamalar bilan to‘ldirilgan. Soha modullari o‘rtasida kross-soha aloqalari belgilanishi zarurligi ko‘rsatildi, chunki real dunyoda bilim sohalari bir-biriga zich bog‘langan.

Methontology metodologiyasi asosida konseptual ontologiyani shakllantirishning oltita bosqichi ishlab chiqildi. Birinchi bosqich – spetsifikatsiya: ontologiyaning maqsadi, qamrovi, foydalanuvchi profili va kompetensiya savollari aniqlanadi (masalan, “XV asr o‘zbek shoirlari kim?”). Ikkinchi bosqich – konseptuallashtirish: tushunchalar ro‘yxati, ierarxiyasi, atributlar va munosabatlar tuziladi.

Uchinchi bosqich – formalizatsiya: konseptual model yarim-formal mantiqiy ifodaga o‘tkaziladi (masalan, “shoir – kamida bitta she’riy asar yaratadigan inson”). To‘rtinchi bosqich – implementatsiya: ontologiya OWL/RDF tilida, Protégé vositasida kodlanadi. Beshinchi bosqich – baholash: to‘liqlik, izchillik va qo‘llanuvchanlik mezonlari bo‘yicha tekshiriladi. Oltinchi bosqich – hujjatlashtirish: har bir tushuncha va munosabatning ma’nosi, kelib chiqishi qayd etiladi.

O‘zbek tili ensiklopedik korpusi uchun amaliy bosqichlar belgilandi: “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” asosida bazaviy leksik-konseptual ro‘yxat tuzish, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” asosida sohalar bo‘yicha modullashtirilgan konseptual model yaratish, OWL/RDF formatida implementatsiya, DBpedia va Wikidata bilan integratsiya hamda uzluksiz texnik xizmat ko‘rsatish.

Muhokama (Discussion). Ensiklopedik korpusda bir tushuncha turli sohalarda turli ma’nolarga ega bo‘lishi (P.Bouquet kontekstual ontologiyalari) muhim metodologik masaladir. Masalan, “ildiz” tushunchasi botanikada o‘simlik organi, matematikada funksiya qiymati, tilshunoslikda so‘z asosini ifodalovchi morfema sifatida talqin qilinadi. korpusning ontologik tashkilida polisemiya holatlari aniq belgilanishi lozim. M.Hepp ta’kidlaganidek, ontologiyani har qanday sohada cheksiz batafsillashtirib bo‘lmaydi – amaliy maqsadlardan kelib chiqib chegara qo‘yiladi.

O‘zbek tili agglutinativ til bo‘lganligi sababli morfologik annotatsiya alohida ahamiyatga ega: bir so‘z shaklida bir nechta morfema-grammatik ma’no birlashadi (kitob+lar+imiz+da). Avtomatik morfologik analizator yaratish korpus lingvistikasining markaziy texnik vazifasidir. B.Bahriddinova ta’kidlaganidek, sifatli morfologik analizator yaratish lokal ensiklopedik korpus arxitekturasining birinchi va asosiy texnik shartidir.

G.Sampson ta’kidlaganidek, annotatsiya nafaqat texnik vazifa, balki muayyan tilshunoslik nazariyasining timsolidir. Shu sababli o‘zbek ensiklopedik korpusi annotatsiya sxemasini tanlashda o‘zbek tilshunosligining mahalliy maktablari hisobga olinishi lozim, aks holda korpus chet til konseptual sxemalarining nusxasi bo‘lib qoladi. Sh.Safarov ta’kidlaganidek, milliy konseptual sxema lokal til–madaniyat an’analari va xalqaro standartlarni muvofiqlashtirilgan tarzda taqdim etishi kerak.

Ontologiyaning tashqi resurslar bilan integratsiyasi alohida muhim bosqichdir. Linked Data tamoyillari asosida o‘zbek ensiklopedik korpusining ontologiyasi DBpedia va Wikidata kabi xalqaro bilim bazalariga ulanishi mumkin. L.Ehrlinger va W.Wöß ta’kidlaganidek, zamonaviy ontologiya o‘zining alohida mavjudligi bilan emas, balki ko‘p qatlamli bilim infrastrukturasidagi muvofiqlashgan vazifasi bilan qiymatga ega.

Konseptual ontologiyani shakllantirish bosqichlari shu tariqa nafaqat texnik, balki metodologik va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab loyihaviy faoliyatdir. Uning natijasi sifatida o‘zbek tili ensiklopedik korpusi nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki keng ko‘lamli ilmiy va amaliy maqsadlar uchun ham tayanch resurs bo‘lib xizmat qila oladi.

Xulosa (Conclusion). O‘zbek tili ensiklopedik korpusining lingvistik arxitekturasi klassik korpusdan matn tabiati, annotatsiya yo‘nalishi, foydalanuvchi profili, strukturaviy birligi va yangilanish usuli bilan farqlanuvchi maxsus tip sifatida asoslandi; uning markaziy birligi token yoki gap bilan chegaralanmay, bilim bloki, maqola va soha-moduliga tayanadi.

Methontology yondashuvi asosida konseptual ontologiyani shakllantirishning ketma-ket bosqichlari — spetsifikatsiya, konseptuallashtirish, formalizatsiya, implementatsiya, baholash va hujjatlashtirish — ilmiy asoslanib, o‘zbek tili leksikografiyasi sharoitidagi amaliy yo‘riqnomasi yaratildi. Ontologiyaning

D.Bpedia va Wikidata bilan integratsiyasi milliy bilim resurslarini xalqaro miqyosga olib chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge, CUP, 1998.

(2). McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge, CUP, 2012.

(3). Noy N., McGuinness D. Ontology Development 101. Stanford, 2001.

(4). Fernández-López M., Gómez-Pérez A. Methontology: From Ontological Art Towards Ontological Engineering. AAAI, 1997.

(5). Garside R., Leech G., McEnery T. Corpus Annotation. London, “Longman”, 1997.

(6). Hepp M. Ontologies: State of the Art, Business Potential, and Grand Challenges. Ontology Management. Springer, 2008.

(7). Bird S., Klein E., Loper E. Natural Language Processing with Python (NLTK). O‘Reilly, 2009.

(8). Bahriddinova B. O‘zbek tili korpusining lingvistik ta’minoti. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 201, 3-son.

(9). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, “Sangzor”, 2006.

(10). Abdurakhmonova N. Kompyuter lingvistikasi. Darslik, “Globe Edit”, 2020, 395-bet.

Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna (Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti prof.v.b., filologiya fanlari doktori (DSc); shahlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz),

Umarova Nozimaxon Qobil qizi (Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich magistratura talabasi; nozimaumarova333@gmail.com)

O‘ZBEK TILIDA SAVOL-JAVOB TIZIMINING LINGVISTIK VA TEXNOLOGIK MODELI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi huquqiy diskurs xususiyatlari hamda huquqiy savol-javob tizimlarini yaratishning lingvistik va texnologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda morfologik normalizatsiya, BM25 asosidagi qidiruv, transformer modellarga asoslangan semantik moslashtirish va qoida-asoslangan tekshiruvni birlashtiruvchi gibrid model taklif etiladi. Ushbu model o‘zbek tilida huquqiy QA tizimlarining aniqligi, ishonchliligi va izohlanuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy diskurs, savol-javob tizimi, huquqiy NLP, lingvistik model, texnologik model, BM25, transformer model, semantik moslik, agglutinativ til, o‘zbek tili.*

Хамроева Шахло Мирджоновна (Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы, и.о. профессора, доктор филологических наук (DSc); shahlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz),

Умарова Нозимахон Кобил кизи (Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы магистрант 1 курса; nozimaumarova333@gmail.com)

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ СИСТЕМЫ ВОПРОС-ОТВЕТ НА ОСНОВЕ ЮРИДИЧЕСКОГО ДИСКУРСА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В статье анализируются особенности юридического дискурса узбекского языка, а также лингвистические и технологические основы создания юридических систем вопрос-ответ. В исследовании предлагается гибридная модель, объединяющая морфологическую нормализацию, поиск на основе BM25, семантическое сопоставление на базе трансформерных моделей и проверку на основе правил. Данная модель способствует повышению точности, надёжности и интерпретируемости юридических QA-систем на узбекском языке.*

Ключевые слова: *юридический дискурс, система вопрос-ответ, юридический NLP, лингвистическая модель, технологическая модель, BM25, трансформерные модели, семантическое соответствие, агглютинативный язык, узбекский язык.*

Khamroyeva Shahlo Mirdjonovna (Tashkent State University of Uzbek Language and Literature Acting Professor, Doctor of Philological Sciences (DSc); shahlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz),

Umarova Nozimakhon Qobil qizi (Tashkent State University of Uzbek Language and Literature 1st-year Master’s student; nozimaumarova333@gmail.com)

LINGUISTIC AND TECHNOLOGICAL MODEL OF A LEGAL QUESTION-ANSWERING SYSTEM BASED ON UZBEK LEGAL DISCOURSE

Annotation. *This article analyzes the features of Uzbek legal discourse and the linguistic and technological foundations for developing legal question-answering systems. The study proposes a hybrid model that integrates morphological normalization, BM25-based retrieval, transformer-based semantic matching, and rule-based verification. This model contributes to improving the accuracy, reliability, and interpretability of legal QA systems in the Uzbek language.*

Keywords: *legal discourse, question-answering system, legal NLP, linguistic model, technological model, BM25, transformer models, semantic similarity, agglutinative language, Uzbek language.*

Kirish. Huquqiy savol-javob tizimlarining asosiy vazifasi foydalanuvchi savolini to‘g‘ri talqin qilish, tegishli huquqiy manbani aniqlash va ushbu manbaga asoslangan javobni shakllantirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy QA tizimlari oddiy axborot-qidiruv tizimlaridan farq qiladi. Ular nafaqat hujjatlarni topadi, balki savolning semantik mazmunini tushunadi va unga mos huquqiy normani aniqlaydi. Legal question-answering tizimlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ushbu yo‘nalish huquqiy axborot bilan ishlashning eng istiqbolli usullaridan biri sifatida baholanadi [2;3–5-b.]. Shuningdek, huquqiy NLP sohasidagi umumlashtiruvchi tadqiqotlarda savol-javob tizimlari huquqiy qidiruv, matn tasnifi va axborot ajratish kabi vazifalar bilan chambarchas bog‘liqligi ko‘rsatilgan [3;10–12-b.].

Mazkur tadqiqotning maqsadi–o‘zbek tilidagi huquqiy diskurs xususiyatlarini hisobga olgan holda savol-javob tizimlari uchun lingvistik va texnologik model ishlab chiqishdan iborat. Ushbu modelda lingvistik tahlil, axborot qidiruv, semantik moslashtirish va qoida-asoslangan tekshiruv bosqichlari integratsiyalashgan holda qaraladi. Taklif etilayotgan yondashuv o‘zbek tilida huquqiy QA tizimlarini yaratishda aniqlik, ishonchlilik va izohlanuvchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Huquqiy savol-javob tizimlari (Legal Question Answering) so‘nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash sohasining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar savolni tushunish, tegishli huquqiy manbani aniqlash va manbaga asoslangan javobni shakllantirish kabi bosqichlarning muhimligini ko‘rsatadi. Martinez-Gil tomonidan olib borilgan tadqiqotda huquqiy QA tizimlari qidiruvga asoslangan va semantik yondashuvlarga ajratilib, ularning har biri alohida ustunlik va cheklovlarga ega ekanligi qayd etilgan [2;3–5-b.]. Huquqiy NLP sohasidagi keng qamrovli tahlillarda esa savol-javob tizimlari huquqiy qidiruv, matn tasnifi va axborot ajratish vazifalari bilan uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan. Ariai va hammualliflar huquqiy matnlarning murakkabligi, terminologik xususiyatlari va uzun strukturalari avtomatik tahlil jarayonini qiyinlashtirishini ta’kidlaydi [3; 10–12-b.].

Axborot qidiruv tizimlarida BM25 modeli hujjatlar ichidan tegishli segmentlarni aniqlashda samarali yondashuv sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu model statistik asosga ega bo‘lib, hujjatdagi so‘z chastotasi va muhimligini hisobga oladi [7;336–340-b.]. Biroq faqat qidiruvga asoslangan tizimlar semantik jihatdan o‘xshash, lekin turli shaklda ifodalangan matnlarni aniqlashda yetarli natija bermaydi. Shu sababli so‘nggi tadqiqotlarda transformer modellar asosidagi yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. BERT modeli matnning kontekstual ma’nosini aniqlash imkonini berib, savol-javob tizimlarida yuqori natijalar ko‘rsatmoqda [8;172–175-b.]. O‘zbek tilida esa UzBERT va BERTbek modellarining yaratilishi ushbu yondashuvlarni milliy tilga moslashtirish imkonini beradi [5;2–4-b.]. Kam resursli tillar uchun huquqiy QA tizimlarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlarda korpus yetishmasligi, morfologik murakkablik va semantik moslikni aniqlash muammolari asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatiladi [4;5–7-b.]. Shu bois zamonaviy ishlarda qidiruv va semantik modellarni birlashtiruvchi gibrid yondashuvlar eng samarali yechim sifatida taklif etilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o‘zbek tilida huquqiy savol-javob tizimini yaratish uchun lingvistik va texnologik yondashuvlarni birlashtiruvchi gibrid model ishlab chiqildi. Tadqiqot metodologiyasi savolni qayta ishlashdan boshlab javobni shakllantirishgacha bo‘lgan bir necha ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda foydalanuvchi savoli lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Bu jarayonda savol tarkibi tozalanadi, ortiqcha belgilar olib tashlanadi va so‘zlar lemmatizatsiya qilinadi. Shuningdek, savolning turi (faktual, normativ yoki izohli) aniqlanadi hamda asosiy huquqiy birliklar ajratib olinadi. O‘zbek tilining agglutinativ xususiyatini hisobga olgan holda morfologik normalizatsiya alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bir leksik birlik turli grammatik shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin [4;5–7-b.].

Ikkinchi bosqichda huquqiy korpusdan dastlabki mos segmentlarni aniqlash uchun axborot qidiruv yondashuvi qo‘llaniladi. Bu jarayonda BM25 modeli asosiy qidiruv algoritmi sifatida ishlatiladi. Mazkur model hujjatlar ichidan savolga yaqin bo‘lgan matnlarni tez va samarali aniqlash imkonini beradi [7;336–340-b.].

Uchinchi bosqichda semantik moslashtirish amalga oshiriladi. Bu bosqichda transformer modellaridan foydalanilib, savol va topilgan huquqiy segmentlar o‘rtasidagi ma’no yaqinligi aniqlanadi. BERT modeli kontekstga asoslangan semantik ifodalarni yaratish orqali savol-javob tizimlarida yuqori samaradorlikni ta’minlaydi [8;4172–4175-b.]. O‘zbek tili uchun ishlab chiqilgan UzBERT va BERTbek modellar ushbu jarayonni milliy tilga mos holda amalga oshirish imkonini beradi [5;2–4-b.].

To‘rtinchi bosqichda qoida-asoslangan tekshiruv amalga oshiriladi. Bu bosqichda tanlangan javobning huquqiy norma bilan mosligi tekshiriladi va noto‘g‘ri yoki umumiy javoblar filtrlanadi. Ushbu yondashuv huquqiy savol-javob tizimlarida ishonchlilik va aniqlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yakuniy bosqichda foydalanuvchiga tushunarli, qisqa va manbaga asoslangan javob shakllantiriladi. Shu tariqa taklif etilgan metodologiya quyidagi ketma-ketlikda ishlaydi:

Savol→lingvistik tahlil→BM25 qidiruv→semantik moslashtirish→tekshiruv→javob. Mazkur yondashuv lingvistik va texnologik komponentlarning integratsiyasini ta’minlab, huquqiy savol-javob tizimlarining aniqligi, ishonchliligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqotda taklif etilgan lingvistik va texnologik model o‘zbek tilida huquqiy savol-javob tizimlarini yaratish nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Modelning samaradorligini baholashda uning turli bosqichlari: lingvistik tahlil, qidiruv, semantik moslashtirish va javobni shakllantirish komponentlari alohida ko‘rib chiqildi.

Lingvistik tahlil bosqichida savol tarkibidagi asosiy huquqiy birliklarni aniqlash va ularni normalizatsiya qilish tizimning keyingi bosqichlari uchun muhim ahamiyat kasb etishi kuzatildi. Ayniqsa, o‘zbek tilining agglutinativ xususiyati sababli lemmatizatsiya va morfologik tahlil natijalari qidiruv samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Bu bosqichda noto‘g‘ri yoki yetarli darajada aniqlanmagan birliklar keyingi semantik moslashtirish bosqichida aniqlikning pasayishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi.

BM25 asosidagi qidiruv bosqichi dastlabki huquqiy segmentlarni tez aniqlashda samarali natija berdi. Ushbu yondashuv katta hajmdagi huquqiy korpusdan savolga yaqin bo‘lgan matnlarni qisqa vaqt ichida ajratib olish imkonini beradi. Biroq tahlil shuni ko‘rsatdiki, BM25 faqat leksik moslikka asoslangani sababli ba’zi hollarda semantik jihatdan mos, lekin boshqa shaklda ifodalangan segmentlarni aniqlay olmaydi. Bu holat, ayniqsa, sinonimlar yoki grammatik variantlar mavjud bo‘lgan savollarda yaqqol namoyon bo‘ldi.

Semantik moslashtirish bosqichida transformer modellaridan foydalanish qidiruv natijalarining aniqligini sezilarli darajada oshirdi. BERT asosidagi model savol va huquqiy segmentlar o‘rtasidagi ma’no yaqinligini aniqlash orqali leksik jihatdan mos kelmagan, ammo semantik jihatdan to‘g‘ri javoblarni topishga yordam berdi. Natijada gibrid model faqat qidiruvga asoslangan tizimga nisbatan aniqroq va ishonchli natijalar ko‘rsatdi.

Qoida-asoslangan tekshiruv bosqichi tizim natijalarining ishonchliligini oshirishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu bosqichda tanlangan segmentlarning huquqiy norma bilan mosligi tekshirildi va umumiy yoki noto‘g‘ri javoblar filtrlandi. Bu esa foydalanuvchiga taqdim etiladigan javoblarning huquqiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, lingvistik va texnologik komponentlarni birlashtirgan gibrid model huquqiy savol-javob tizimlarida yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, lingvistik tahlil va semantik moslashtirish bosqichlarining uyg‘un ishlashi tizim aniqligini oshirishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi. Shuningdek, model o‘zbek tilining morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgani sababli milliy til uchun mos va amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan yechim sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqotda o‘zbek tilidagi huquqiy diskurs xususiyatlarini hisobga olgan holda savol-javob tizimlari uchun lingvistik va texnologik model ishlab chiqildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, huquqiy matnlarning normativligi, terminologik aniqligi va sintaktik murakkabligi ularni avtomatik qayta ishlash jarayonida maxsus yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, o‘zbek tilining agglutinativ tabiati savol va huquqiy matn o‘rtasidagi moslikni aniqlashni murakkablashtiradi va lingvistik tahlilning ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqot natijalari asosida lingvistik tahlil, BM25 asosidagi qidiruv, transformer modellarga asoslangan semantik moslashtirish va qoida-asoslangan tekshiruvni birlashtiruvchi gibrid model samarali yondashuv sifatida asoslandi. Ushbu model savolni chuqur tahlil qilish, huquqiy korpusdan mos segmentlarni aniqlash, semantik yaqinlikni baholash va manbaga asoslangan javobni shakllantirish imkonini beradi. Modelning asosiy afzalligi shundaki, u faqat leksik moslikka emas, balki semantik va lingvistik moslikka ham tayanadi hamda huquqiy javoblarning ishonchliligini ta’minlaydi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qidiruv va semantik yondashuvlarni alohida qo‘llash yetarli natija bermaydi, balki ularning integratsiyasi yuqori aniqlik va barqarorlikni ta’minlaydi. Shuningdek, qoida-asoslangan tekshiruv komponenti tizimda xatoliklarni kamaytirish va huquqiy javoblarning asoslanganligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

•o‘zbek tilida huquqiy QA tizimlari uchun maxsus annotatsiyalangan korpuslar yaratish zarur;

•morfologik tahlil va lemmatizatsiya modullarini yanada takomillashtirish lozim;

•huquqiy matnlarni semantik segmentlarga ajratish usullarini rivojlantirish maqsadga muvofiq;

•o‘zbek tiliga mos transformer modellarni kengaytirish va optimallashtirish zarur;

•real amaliyotda qo‘llash uchun huquqiy chatbot va maslahat tizimlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan model o‘zbek tilida huquqiy savol-javob tizimlarini yaratish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi hamda kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar uchun muhim ilmiy poydevor vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Zhong H., Xiao C., Tu C., Zhang T., Liu Z., Sun M. How Does NLP Benefit Legal System: A Summary of Legal Artificial Intelligence. Proceedings of the 58th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, 2020, pp. 5218–5230.

(2). Martinez-Gil J. A survey on legal question-answering systems. Computer Science Review, 2023, vol. 48, Article 100552.

(3). Ariai F., Demartini G. et al. Natural Language Processing for the Legal Domain: A Survey of Tasks, Datasets, Models, and Challenges. ACM Computing Surveys, 2025.

(4). Rakhimova D., Turarbek A., Karyukin V., Sarsenbayeva A., Alieyev R. Legal AI in Low-Resource Languages: Building and Evaluating QA Systems for the Kazakh Legislation. Computers, 2025, vol. 14, № 9, Article 354.

(5). Mansurov B., Mansurov A. UzBERT: Pretraining a BERT Model for Uzbek. arXiv, 2021, arXiv:2108.09814.

(6). Kuriyozov E., Vilares D., Gómez-Rodríguez C. BERTbek: A Pretrained Language Model for Uzbek. Proceedings of SIGUL 2024 / LREC-COLING 2024, 2024.

(7). Robertson S., Zaragoza H. The Probabilistic Relevance Framework: BM25 and Beyond. Foundations and Trends in Information Retrieval, 2009, vol. 3, № 4, pp. 333–389.

(8). Devlin J., Chang M.W., Lee K., Toutanova K. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. Proceedings of NAACL-HLT, 2019, pp. 4171–4186.

Bakirova Gulasal Davlatovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktorant (PhD), Surxandaryo, O‘zbekiston)

JEYMS JOYSNING “ULISS” ROMANIDA OKKAZIONALIZMLARNING MORFOLOGIK-STILISTIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Uliss” romanida morfologik stilistik vosita sifatida okkazionalizmlarning markaziy o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot asarda uchraydigan muallifga xos, normadan chetga chiqqan til birliklarining strukturaviy va funksional xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Okkazionalizmlarning qo‘shma birliklar, semantik deformatsiya, morfologik kompressiya va takrorlash kabi turlari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, okkazionalizmlar nafaqat stilistik bezak, balki ma’no yaratish, emotsionallikni kuchaytirish va kognitiv jarayonlarni ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi. Ular matnning obrazlilik darajasini oshiradi, tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi hamda inson tafakkurining assotsiativ va noan’anaviy xususiyatlarini aks ettiradi. Kognitiv-stilistik yondashuv nuqtai nazaridan, ushbu birliklar o‘quvchini faol interpretatsiyaga jalb etadi va matnni dinamik semantik tizimga aylantiradi.*

Kalit so‘zlar: *okkazionalizm, morfologik stilistika, lingvopoetika, Jeyms Joys, Uliss, modernizm, kognitiv stilistika, til eksperimenti, obrazlilik, semantik deformatsiya.*

Бакирова Гуласал Давлатовна (Докторант (PhD), Денауский институт предпринимательства и педагогики, Сурхандарья, Узбекистан)

МОРФОЛОГИЧЕСКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ И ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОККАЗИОНАЛИЗМОВ В РОМАНЕ ДЖЕЙМСА ЖОЙСА «УЛИСС».

Аннотация. *Анализ романа «Улисс» показывает, что его лингвопоэтическая структура в корне сформирована взаимодействием модернистского и авангардного движений. Интегрируя разнообразные стилистические и когнитивные элементы, Джойс создает текст, бросающий вызов традиционным представлениям о языке, повествовании и значении. Использование в романе потока сознания, ассоциативного мышления и лингвистических экспериментов отражает сложность человеческого познания и динамичный характер восприятия. В то же время, его взаимодействие с различными художественными движениями обогащает его эстетические и интерпрета-*

ционные возможности. В конечном итоге, «Улисс» можно понимать как всеобъемлющую модель сознания, где язык служит не только средством выражения, но и самим средством мышления.

Ключевые слова: *окказионализм, морфологическая стилистика, лингвопоэтика, Джеймс Джойс, Улисс, модернизм, когнитивная стилистика, языковые эксперименты, образность, семантическое отклонение.*

Bakirova Gulasal Davlatovna (Doctorate (PhD), Denau Entrepreneurship and Pedagogy Institute Surkhandarya, Uzbekistan)

MORPHOLOGICAL-STYLISTIC AND COGNITIV CHARACTIRISTICS OF OCCASIONALISMS IN JAMES JOYCE'S "ULYSSES"

Annotation. *This article examines the central role of occasionalisms as a morphological stylistic device in shaping the unique linguistic and stylistic features of Ulysses. The study focuses on the analysis of non-standard, author-specific lexical formations that emerge within the text and function as key elements of Joyce's experimental language. Particular attention is paid to the structural types of occasionalisms, including compound formations, semantic deviations, morphological compression, and reduplication. The research demonstrates that occasionalisms in Ulysses are not merely stylistic ornaments but function as essential mechanisms of meaning construction, emotional expression, and cognitive modeling. They contribute to the creation of complex imagery, enhance the expressive potential of language, and reflect the associative and non-linear nature of human thought. From a cognitive-stylistic perspective, these formations activate the reader's interpretive processes and transform the text into an interactive semantic system. The findings confirm that occasionalisms occupy a central position in Joyce's lingvopoetic framework and play a crucial role in the development of his individual authorial style.*

Key words: *Occasionalism, morphological stylistics, lingvopoetics, James Joyce, Ulysses, modernism, cognitive stylistics, language experimentation, imagery, semantic deviation.*

Kirish. Modernistik eksperimentlarning eng murakkab va yuksak namunalaridan biri Jeyms Joysning "Uliss" romanidir. Mazkur asar nafaqat sujet va kompozitsiya jihatidan, balki lingvistik tashkil topishi nuqtayi nazaridan ham, XX asr badiiy tafakkurining eng muhim hodisalaridan biri hisoblanadi. Roman tilida ong oqimi texnikasi, sintaktik fragmentatsiya, semantik deformatsiya, intertekstual qatlamlar hamda morfologik eksperimentlar keng qo'llanilgan. Ayniqsa, Joys tomonidan yaratilgan individual muallifiy birliklar – okkazionalizmlar asarning lingvopoetik tizimida muhim o'rin egallaydi. Shklovskiyning fikriga ko'ra, san'atning vazifasi odamlarning dunyoni yangicha tarzda anglashdir. Bu usul "odamlarni nomutanosiblashtirish" yoki "g'alati qilish"dir, "san'at texnikasi obyektlarni "notanish" qilish, shakllarni qiyinlashtirish, idrok etishning qiyinligi va davomiyligini oshirishdir, chunki idrok qilish jarayoni o'z-o'zidan estetik maqsad bo'lib, uni uzaytirish kerak" [1;522-b.].

Okkazionalizmlar muallifning individual uslubini namoyon etuvchi, tilning mavjud me'yorlaridan chekinish asosida hosil qilinadigan birliklar bo'lib, ular badiiy matnda yangi semantik, ekspressiv va assotsiativ imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Joys ijodida bunday birliklar inson tafakkurining uzluksiz, assotsiativ va fragmentar tabiatini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, "Uliss" romanidagi morfologik okkazionalizmlar tilni "jonli ong modeli"ga aylantirib, o'quvchini faol interpretatsiya jarayoniga jalb qiladi. Shu jihatdan, roman tilidagi okkazional birliklarni o'rganish nafaqat stilistik, balki kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – "Uliss" romanida uchraydigan morfologik okkazionalizmlarning stilistik va kognitiv funksiyalarini aniqlash, ularning lingvopoetik tizimdagi o'rnini tahlil qilish hamda Joyce individual uslubini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot davomida morfologik eksperimentlarning strukturaviy xususiyatlari, semantik deformatsiya jarayonlari hamda okkazional birliklarning o'quvchi tafakkuriga ta'siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot obyekti sifatida Jeyms Joysning "Uliss" romani tanlangan bo'lsa, predmetini romandagi morfologik okkazionalizmlar va ularning lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida lingvopoetik tahlil, stilistik tahlil, morfologik tahlil hamda kognitiv interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari Joys poetikasida okkazionalizmlar tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy vositalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ular badiiy matnda semantik ko'pqatlamlilikni yuzaga keltirib, o'quvchini faol kognitiv interpretatsiyaga undashi bilan ham ahamiyatlidir. Shu sababli "Uliss" romanidagi okkazionalizmlar nafaqat individual muallifiy birliklar, balki modernistik tafakkurning lingvistik modeli sifatida ham qaralishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Notiq yoki yozuvchi tomonidan bir zumda paydo bo'ladigan biron-bir zaruratni qoplash uchun ixtiro qilingan yangi murakkab so'z [2;78-b.]. Stilistik jihatdan morfemalar matnning eks-

pressivligini kuchaytiradi. Bunda muallif odatiy so‘z yasash modellari bilan bir qatorda, yangi morfologik konstruksiyalarni ham yaratadi. Bu tilshunoslikda morfologik innovatsiya, ya’ni okkazionalizm deb atatladi [3;167-b.]. Okkazionalizm–bu badiiy matnda faqat muallif tomonidan yaratilgan individual so‘z yoki ibora. Okkazionalizm ongsiz xato (malapropizm, metateza, tilning xatosi) yoki stilistik xususiyat (spoonerizm) tufayli yuzaga keladi. “So‘zlarni bema’ni noto‘g‘ri ishlatish, ayniqsa, bir so‘zni unga o‘xshash boshqa so‘z bilan adashtirishda [4;15-b.]. Neologizmning yana bir turi – bu nonce – word (okkazionalizm), ya’ni, ma’-lum bir vaziyatga mos ravishda yaratilgan so‘z. “Nonce so‘zi (XVI asrda “bir marta” degan ma'noni anglatuvchi “nonce” iborasidan olingan) vaqtinchalik foydalanish, bevosita aloqa muammosini hal qilish uchun yaratilgan leksemadir” [5;132-b.]. Nonce so‘zlari adabiy tilning chekkasida qoladi va ko‘pincha ularni yaratgan yozuvchilarni eslatadi. Ular biror narsa yoki hodisaning muhim subyektiv g‘oyasini yoki bahosini belgilash uchun yaratilgan va odatda yo‘q bo‘lib ketadi. Ular kamdan kam hollarda tilga lug‘atning qonuniy birliklari sifatida o‘tadi, lekin ular tilda uning so‘z yasashdagi tug‘ma kuchining doimiy namoyon bo‘lishi sifatida qoladi. Okkazionalizmlar lug‘atni boyitish uchun mo‘ljallanmagan, balki matnni boyitishga qaratilgan dam olish jarayoni bo‘lishi mumkin [6;7–8-b.]. Ular individual uslub mahsuli bo‘lib, ko‘pincha, badiiy-estetik maqsadga xizmat qiladi. Okkazionalizmlar individuallik (muallifga xoslik), kontekstga bog‘liqlik, ekspressivlik, semantik yangilik kabi xususiyatlarga ega. Modernistik adabiyotda, ayniqsa, Joys ijodida, okkazionalizmlar tilning normativ tizimini kengaytirish vositasi sifatida faol qo‘llanadi.

Tadqiqot usullari (Methods). Tadqiqot davomida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi:

–lingvopoetik tahlil – okkazionalizmlarning badiiy va ekspressiv funksiyalarini aniqlash uchun;

–morfologik tahlil – muallif tomonidan yaratilgan noodatiy birliklarning strukturaviy xususiyatlarini o‘rganish uchun;

–stilistik tahlil – okkazionalizmlarning emotsional va estetik ta’sirini aniqlash uchun;

–kognitiv interpretatsiya – ushbu birliklarning o‘quvchi tafakkuriga ta’sirini tahlil qilish uchun qo‘llanildi.

Tadqiqot materiali sifatida Jeyms Joysning “Uliss” romani (Penguin Classics, 2000) tanlandi.

Natijalar va muhokama. Joys morfologik darajada quyidagi usullar orqali okkazional birliklar yaratadi: 1. So‘z birikmalarining qo‘shilib ketishi. Bir nechta leksemaning bitta birlikka aylanishi, ong oqimi tezligini aks ettiradi. Masalan: “contransmagnificandjewbangtantiality” [7;47-b.]. Mazkur birlik bir ne-chta morfemik va leksik qatlamlarning sun’iy ravishda qo‘shilishi asosida hosil qilingan okkazionalizmdir.

2. Yangi affikslar yoki noodatiy qo‘llanish. Mavjud affikslarning kutilmagan kontekstda ishlatilishi, semantik kengayish yuzaga keladi. Misol uchun, “Ineluctable modality of the visible” [7;45-b.]. Bu so‘z aslida ingliz tilida mavjud, lekin Joys uni falsafiy va abstrakt kontekstda noodatiy darajada murakkablash-tiradi.

Аннотация. *В данном исследовании анализируются существующие проблемы оценки знаний студентов в электронных образовательных системах. Рассматриваются основные трудности, такие как ограничения традиционных методов оценки, субъективность, недостатки автоматизированных систем и отсутствие индивидуального подхода. Результаты исследования служат практической основой для повышения эффективности оценки в электронном обучении, точного определения знаний студентов и снижения субъективных ошибок.*

Ключевые слова: *электронное обучение, оценка знаний студентов, проблемы оценки, автоматизированная оценка, индивидуальный подход.*

PROBLEMS OF ASSESSING STUDENTS' KNOWLEDGE IN E-LEARNING SYSTEMS

Annotation. *This study analyzes the existing problems in assessing students' knowledge within electronic learning systems. Key challenges such as limitations of traditional assessment methods, subjectivity, shortcomings of automated evaluation systems, and lack of individualized approaches are examined. The findings provide a practical basis for improving assessment efficiency in e-learning, accurately evaluating students' knowledge, and minimizing subjective errors.*

Keywords: *E-learning, student assessment, assessment challenges, automated evaluation, individual approach*

Kirish. Zamonaviy elektron ta'lim tizimlarida talabalarni baholash ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, sifatni ta'minlashni ta'minlaydi va talabalarning kompetensiyalari darajasini belgilaydi. Elektron ta'lim platformalari baholash jarayonini avtomatlashtiradi, tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi va o‘quv natijalarini obyektiv tahlil qilish uchun sharoit yaratadi. Biroq elektron baholash tizimlaridan foydalanish raqamli ta'lim muhitining o‘ziga xos xususiyatlarini va talabalarning individual xususiyatlarini hisobga oladigan ilmiy asoslangan baholash usullari va mezonlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Biroq mavjud elektron ta'lim tizimlari odatda asosan testga qaratilgan bo‘lib, bu talabalarning yutuqlarini har tomonlama baholashni cheklaydi. Bunday tizimlar odatda talabalarning mantiqiy fikrlashini, o‘quv materialini chuqur tushunishini va amaliy ko‘nikmalarini yetarlicha hisobga olmaydi. Bundan tashqari, an'anaviy avtomatlashtirilgan baholash usullari har doim ham o‘quv natijalarini tahlil qilishda yetarlicha ob'ektivlik va moslashuvchanlikni ta'minlamaydi, chunki ular qat'iy belgilangan algoritmlarga asoslangan va talabalar yutuqlarining noaniqligi va o‘zgaruvchanligini hisobga olmaydi. Shu munosabat bilan, baholashning aniqligi va obyektivligini oshirishi mumkin bo‘lgan sun'iy intellekt va loyqa mantiq usullarini o‘z ichiga olgan zamonaviy intellektual texnologiyalarga asoslangan elektron ta'lim tizimlarida talabalarning bilimlarini baholash usullarini takomillashtirish zarurati mavjud [4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ilmiy adabiyotlarda elektron ta'lim tizimlarida talabalarni baholash ta'limning raqamli transformatsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotchilar D Boud, J.Biggs, B.S.Bloom, R.Bennett va J.Pellegrino baholashning nazariy asoslarini o‘rganib, an’anaviy bilimlarni baholashdan kompetensiyaga asoslangan baholashga o‘tish zarurligini ta’kidladilar. Ularning ishlarida zamonaviy baholash usullari nafaqat yakuniy o‘quv natijalarini, balki talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini ham hisobga olishi kerakligi ta’kidlangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, elektron ta’lim tizimlari shakllantiruvchi va summativ baholashni amalga oshirish imkonini beradi va talabalarning yutuqlarini doimiy ravishda kuzatib boradi.

Xalqaro olimlar R.Stiggins, P.Black va D.Williamning ishlarida elektron ta’lim muhitida shakllantiruvchi baholashga alohida e’tibor qaratilgan. Mualliflar raqamli texnologiyalardan foydalanish baholashda obyektivlikni oshirishga imkon berishini va o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida o‘z vaqtida fikr-mulohazalarni ta’minlashini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, tadqiqotchilar avtomatlashtirilgan baholash usullarining cheklovlari bilan bog‘liq bir qator muammolarni ta’kidlaydilar, ular, ko‘pincha, test topshiriqlariga asoslangan va talabalarning analitik va amaliy ko‘nikmalarini to‘liq baholamaydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari, jumladan, N.I.Taylakov, U.K. Tolipov, B.B.Begalov, A.A.Abduqodirov va Sh.S.Sharipov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar elektron ta’lim va talabalarni baholashni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirishni o‘rganadi. Ularning ishlarida elektron ta’lim tizimlarini joriy etish bilimlarni baholash samaradorligiga hissa qo‘shishi, ammo mavjud baholash usullari talabalarning individual xususiyatlari va kompetentsiyaga asoslangan yondashuv talablarini hisobga olgan holda, yanada takomillashtirishni talab qilishi qayd etilgan.

Hozirgi tadqiqotlar elektron ta’lim tizimlarida talabalarni baholashda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan. J.Beck, C.Conati, K.VanLehn va V.Aleven baholash jarayonini talabalarning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish imkonini beruvchi aqlli repetitorlik tizimlarini o‘rganadilar. Ba’zi tadqiqotlar noaniqlik sharoitida talabalar bilimini baholash uchun noaniq mantiq va mashinani o‘rganish usullaridan foydalanishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar talabalarning turli o‘rganish ko‘rsatkichlarini hisobga olish imkonini beradi va o‘rganish natijalarini aniqroq va obyektiv baholashni ta’minlaydi.

Ilmiy adabiyotlarni ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, elektron ta’lim va talabalarni baholash sohasida katta miqdordagi tadqiqotlarga qaramay, sun’iy intellekt algoritmlariga asoslangan intellektual baholash usullarini ishlab chiqish hali ham yetarlicha o‘rganilmagan. Xususan, elektron ta’lim tizimlarida dasturlash fanlari bo‘yicha talabalar bilimlarini har tomonlama baholash usullari qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qiladi, bu esa ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligini ta’kidlaydi [5,6].

Asosiy qism. Elektron ta’lim tizimlari zamonaviy ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Elektron ta’lim muhitida o‘quv materiallarini yetkazish, topshiriqlarni bajarish va talabalar bilimini baholash jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. Elektron ta’lim tizimlari ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, o‘quv faoliyatini monitoring qilish va baholash natijalarini tezkor qayta ishlash imkonini beradi [1].

Shu bilan birga, elektron ta’lim tizimlarida talaba bilimlarini baholash jarayonida qator muammolar mavjud bo‘lib, ular baholashning aniqligi va obyektivligini pasaytiradi. Ayniqsa, dasturlash tillari fanida talabalar bilimini baholash murakkab jarayon hisoblanadi, chunki bunda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar ham baholanishi lozim. Elektron ta’lim tizimlarida baholash bilan bog‘liq asosiy muammolar quyidagilardan iborat.

An’anaviy baholash kamchiliklari. Elektron ta’lim tizimlarida baholash ko‘pincha an’anaviy baholash usullariga asoslanadi. Bunday usullarga test topshiriqlari, yozma ishlar va standart nazorat ishlari kiradi. Ushbu usullar talabalar bilimini tezkor aniqlash imkonini bersa-da, ularning bilim darajasini to‘liq baholash imkonini bermaydi [3].

Test topshiriqlari asosan nazariy bilimlarni tekshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarning amaliy qo‘llanish darajasini aniqlashda yetarli darajada samarali emas. Dasturlash tillarini o‘qitishda talabalar tomonidan yozilgan dastur kodining sifati, algoritmning to‘g‘riligi va yechimning samaradorligi kabi omillar muhim hisoblanadi. An’anaviy baholash usullari ushbu omillarni to‘liq hisobga olmaydi.

Bundan tashqari, an’anaviy baholash usullari talabalar bilimini baholashda individual xususiyatlarni hisobga olish imkonini bermaydi. Natijada talabalar bilimini baholash umumiy mezonlar asosida amalga oshiriladi va baholash natijalarining aniqligi pasayadi [10].

Subyektivlik muammosi. Elektron ta’lim tizimlarida baholash jarayonining muhim muammolaridan biri subyektivlik hisoblanadi. Ayrim topshiriqlarni baholashda o‘qituvchi tomonidan ekspert bahosi qo‘llaniladi. Masalan, dasturlash tillari fanida amaliy topshiriqlarni baholashda dastur kodining tuzilishi, algoritmning samaradorligi va dasturiy yechimning sifatiga baho beriladi [4]. Bunday baholash jarayonida inson omili muhim rol o‘ynaydi. Turli o‘qituvchilar bir xil topshiriqni turlicha baholashlari mumkin. Bu esa baholash natijalarining barqaror emasligiga olib keladi.

Subyektivlik muammosi baholash mezonlari aniq belgilanmagan hollarda yanada kuchayadi. Elektron ta’lim tizimlarida baholash mezonlarini standartlashtirish muhim vazifa hisoblanadi [9].

Avtomatik baholash tizimlarining cheklovlari. Elektron ta’lim tizimlarining muhim afzalliklaridan biri avtomatik baholash imkoniyatining mavjudligi hisoblanadi. Avtomatik baholash tizimlari test topshiriqlarini tezkor tekshirish va natijalarni qayta ishlash imkonini beradi. Biroq ushbu tizimlar barcha turdagi topshiriqlarni baholash imkoniyatiga ega emas [7].

Dasturlash tillari fanida avtomatik baholash tizimlari odatda dastur natijasining to‘g‘riligini tekshiradi. Biroq dastur kodining sifati, algoritmning optimal darajada tuzilganligi va dastur samaradorligi, ko‘pincha, hisobga olinmaydi. Natijada talabalar tomonidan yozilgan dasturiy yechimlarning to‘liq bahosi aniqlanmaydi. Shuningdek, avtomatik baholash tizimlari, ko‘pincha, oldindan belgilangan mezonlar asosida ishlaydi. Bu esa murakkab topshiriqlarni baholashda tizimning moslashuvchanligini cheklaydi. Talabalarning ijodiy yondashuvlari yoki noan’anaviy yechimlari avtomatik baholash tizimlari tomonidan to‘g‘ri baholanmasligi mumkin.

Individual baholashning yetishmasligi. Elektron ta’lim tizimlarida talaba bilimlarini baholash jarayoni, ko‘pincha, barcha talabalar uchun bir xil mezonlar asosida amalga oshiriladi. Har bir talabaning bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligi turlicha bo‘lishiga qaramay, baholash tizimi individual yondashuvni to‘liq ta’minlay olmaydi [8].

Individual baholashning yetishmasligi talabalar bilim darajasini aniq aniqlash imkonini cheklaydi. Ayrim talabalar yuqori darajadagi bilimga ega bo‘lishiga qaramay, standart baholash tizimi orqali ularning bilim darajasi to‘liq aks ettirilmasligi mumkin.

Zamonaviy ta’lim tizimida har bir talabaning bilim darajasini alohida baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Individual baholash tizimi talabalar bilimini chuqur tahlil qilish hamda o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish individual baholash tizimini yaratish imkonini beradi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar talabalar bilim darajasini tahlil qilish hamda ularning o‘zlashtirish darajasiga mos topshiriqlarni tavsiya etish imkoniyatiga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi elektron ta’limni tashkil qilish va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda talabalar bilimlarini baholashning zamonaviy ilmiy yondashuvlariga asoslangan. Tadqiqotda elektron ta’lim tizimlarida dasturlash fanlarida talabalar bilimlarini baholashdagi qiyinchiliklarni har tomonlama o‘rganish va ushbu bilimlarni takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan metodologiyani ishlab chiqish uchun nazariy va empirik usullar qo‘llanilgan. Tadqiqotning nazariy asosi tizimlar, kompetensiyaga asoslangan va texnologik yondashuvlar bilan shakllantirilgan bo‘lib, talabalarni baholash jarayonini o‘zaro bog‘liq pedagogik tizim sifatida har tomonlama ko‘rib chiqishni ta’minladi.

Tadqiqotda ilmiy va metodologik adabiyotlarni tahlil qilish usullari, mavjud elektron ta’lim tizimlari va talabalarni baholash usullarining qiyosiy tahlili, shuningdek, pedagogik modellashtirish va dizayn qo‘llanilgan. Talabalarni baholash metodologiyasini ishlab chiqish uchun o‘quv natijalarining noaniqligi va ko‘p mezonli xususiyatini hisobga olgan holda sun‘iy intellekt usullari, loyqa mantiq algoritmlari va matematik modellashtirish qo‘llanilgan. Tadqiqotning empirik qismi pedagogik tajriba, kuzatish, so‘rovnomalar, testlar va natijalarni statistik tahlil qilishni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu bizga elektron ta’lim tizimlarida talabalar bilimlarini baholash uchun taklif qilingan metodologiyaning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Mana shunday, dasturlashni o‘qitish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ehtiyojlarni tahlil qilganimizdan kelib chiqib, quyidagi ilmiy tavsiyalarni keltiramiz:

O‘quv jarayonida muammolar va ehtiyojlar tahlili. Dasturlash fanini o‘qitishda an’anaviy nazariy yondashuvlar, ko‘pincha, talabalar qiziqishini uyg‘otmaydi va amaliy ko‘nikmalarni yetarlicha shakllantirmaydi. Shu sababli o‘quv jarayonida interaktiv, vizual va muammo markazli metodlarning integratsiyasi zarur.

Yosh o‘quvchilar uchun blokli dasturlash va vizual muhitlar orqali algoritmik fikrlashni bosqichma-bosqich shakllantirish samarali bo‘lib, har bir darsni muammo markazli yondashuv asosida tashkil etish talabalar faol ishtirokini rag‘batlantiradi va ularni mustaqil izlanishga yo‘naltiradi. Raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarga bilimlarini nazorat qilish va mustaqil rivojlantirish imkonini beradi.

Turli metodik yondashuvlarning samaradorligini baholash. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarning nazariy bilim bilan bir qatorda, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda eng samarali bo‘lib, algoritmik fikrlash, dasturlash, axborot texnologiyalari va muammoni tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantiradi. Loyihaviy yondashuv esa real muammolarni hal qilish orqali mustaqil ishlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli o‘qitish algoritmik va mantiqiy fikrlashni chuqurlashtiradi. Shu bilan birga, interaktiv, o‘yinli va blokli dasturlash metodlari, xususan **code.org** va **Blockly.games**, yosh o‘quvchilarni dasturlashga qiziqtiradi va ularning tanqidiy fikrlash hamda ijodiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Taklif etiladigan yechim. Elektron ta’lim tizimlarida talaba bilimlarini baholashdagi muammolarni bartaraf etish va baholash jarayonining samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt algoritmlari asosidagi baholash tizimini joriy etish taklif etiladi (1.1-rasm).

1.1-rasm. Sun’iy intellekt asosida elektron ta’lim jarayonini samarali tashkil etish modeli.

Ushbu yechim elektron ta’lim tizimlarida talaba bilimini baholash jarayonidagi asosiy muammolarni bartaraf etadi, baholashning aniqligi va samaradorligini oshiradi hamda individual yondashuvni ta’minlaydi. Shu bilan birga, dasturlash tillarini o‘qitish jarayoni interaktiv va adaptiv bo‘lib, talabalar o‘z bilimlarini yanada samarali rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi.

Elektron ta’lim tizimlarida talaba bilimlarini baholashdagi muammolarni bartaraf etish va baholash jarayonining samaradorligini oshirish uchun *sun’iy intellekt algoritmlari asosidagi baholash tizimini joriy* ***etish*** yechimi quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Avtomatlashtirilgan va obyektiv baholash:

- Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida dastur kodining to‘g‘riligini, algoritmning samaradorligini va yechim sifatini avtomatik tahlil qilish.
- Baholash mezonlari standartlashtiriladi, bu subyektivlikni kamaytiradi va o‘qituvchining ishtirokiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi.

Individual yondashuvni ta’minlash:

- Har bir talabaning bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligi sun’iy intellekt yordamida alohida tahlil qilinadi.
- Tizim talabaga moslashtirilgan topshiriqlar, qo‘shimcha tavsiyalar va mashqlarni avtomatik taqdim etadi, bu individual o‘qish jarayonini optimallashtiradi.

Kompleks baholash imkoniyati:

- Talabaning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va algoritmik fikrlash qobiliyati bir vaqtning o‘zida baholanadi.

- Fuzzy logic va mashina o‘rganish algoritmlari yordamida baholash natijalari murakkab kriteriyalar bo‘yicha tahlil qilinadi.

Baholash natijalarini chuqur tahlil qilish:

- Tizim talabalarning o‘zlashtirish dinamikasini, qaysi mavzularni mustahkamlash kerakligini va metodik kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.
- Bu ma’lumotlar o‘qituvchilarga pedagogik qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Akademik halollikni ta’minlash:

- Sun’iy intellekt yordamida dastur kodining o‘xshashligini tekshirish va plagiat holatlarini aniqlash.
- Talabalar mustaqil ishlashga rag‘batlantiriladi va baholash jarayoni adolatli bo‘ladi.

Ushbu yechim elektron ta’lim tizimlarida talaba bilimini baholash jarayonidagi asosiy muammolarni bartaraf etadi, baholashning aniqligi va samaradorligini oshiradi hamda individual yondashuvni ta’minlaydi. Shu bilan birga, dasturlash tillarini o‘qitish jarayoni ham interaktiv va adaptiv bo‘lib, talabalar o‘z bilimlarini yanada samarali rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi.

Zamonaviy metodik yondashuvlar va raqamli ta’lim vositalarining integratsiyasi dasturlash fanini o‘qitish sifatini oshirish, talabalarni mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy, loyihaviy va muammo markazli yondashuvlarni interaktiv va blokli dasturlash bilan birlashtirish algoritmik va mantiqiy tafakkurini mustahkamlaydi, ijodiy fikrlash va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlari o‘quv jarayonini personalizatsiyalash, individual natijalarni kuzatish va baholash imkonini yaratadi. Natijada zamonaviy yondashuvlar nafaqat bilimni, balki talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga xizmat qiladi.

Tahlil va tadqiqot natijalari. Tadqiqotda dasturlash fanlari bo‘yicha talabalar bilimlarini baholashning mavjud elektron ta’lim tizimlari va usullari tahlil qilindi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, elektron ta’lim platformalarining aksariyati, asosan, avtomatlashtirilgan testlarga qaratilgan bo‘lib, bu nazariy o‘zlashtirishni tezkor monitoring qilish imkonini beradi, ammo talabalarning amaliy ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishini samarali aks ettirmaydi. An’anaviy elektron baholash usullari cheklangan moslashuvchanlik, talabalarning individual xususiyatlariga yomon moslashish va bilimlarni kompleks baholashda yetarli aniqlik yo‘qligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotda sun’iy intellekt algoritmlari va noaniq mantiq elementlariga asoslangan talabalarni baholash metodologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu metodologiya talabalarning o‘rganishining turli ko‘rsatkichlarini, jumladan, test natijalari, amaliy topshiriqlar, onlayn o‘rganish faoliyati va akademik yutuqlar dinamikasini hisobga oladi. Taklif etilgan model o‘rganish natijalarining ko‘p mezonli tahlilini taqdim etadi va an‘anaviy baholash usullariga nisbatan talabalar bilimlarini yanada obyektiv yakuniy baholash imkonini beradi.

Pedagogik eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan metodologiyani qo‘llash baholashning obyektivligini oshirishga va talabalar bilimlarini monitoring qilishni yaxshilashga yordam beradi. Eksperimental ma’lumotlar talabalarni baholashda aniqlikning oshishini, talabalarning faolligining oshishini va akademik ko’rsatkichlarning yaxshilanishini ko’rsatadi. Eksperimental natijalarning statistik tahlili taklif qilingan metodologiyaning samaradorligini tasdiqladi va elektron ta’lim muhitida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijobiy dinamikani ko‘rsatdi.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, elektron ta‘lim tizimlarida sun’iy intellekt va noaniq mantiq usullaridan foydalanish talabalarning bilimlarini aniqroq, moslashuvchan va obyektiv baholashni ta’minlaydi va yanada samarali o‘quv jarayoniga hissa qo'shadi. Ishlab chiqilgan metodologiyadan oliy ta’lim muassasalarida dasturlash fanlari bo‘yicha elektron ta’lim dasturlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Xulosa. Elektron ta’lim tizimlarida talaba bilimlarini baholash jarayonida an’anaviy baholash usullarining kamchiliklari, baholashning subyektivligi, avtomatik baholash tizimlarining cheklanganligi hamda individual baholash imkoniyatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi. Ushbu muammolar baholash natijalarining aniqligi va obyektivligini ta’minlashga to‘sqinlik qiladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlari talabalar bilimini kompleks tahlil qilish, baholash jarayonini avtomatlashtirish hamda individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Bu esa dasturlash tillari fanidan talabalar bilimini baholash metodikasini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Anderson L.W., Krathwohl D.R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. New York, Longman.

(2). Biggs J., Tang C. (2011). Teaching for Quality Learning at University. McGraw-Hill Education.

(3). Brown G., Race P. (2013). Using Assessment to Support Student Learning. Routledge.

(4). Ilalovich K.K. (2022). The Structure of the Nonlinear-Cumulative Model of Students’ Assessment. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(1), p. 147–150.

(5). Kenesbaevich S.K., Ilalovich K.K., Meyrmanovich M.B. (2024). Assessment In Teaching Based On Interactive Methods In Higher Education Institutions. Onomázein, (62 (2023): December), p. 2563–2567.

(6). Kalimbetov K. Decision-making in the teaching and assessment of computer science for students of higher education institutions in the context of an inexhaustible supply of information. http://science. nuu. uz/uzmu. php.

(7). Laurillard D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.

(8). UNESCO (2020). Digital Learning in Higher Education: Challenges and Opportunities. UNESCO Publishing.

(9). Shafait F., Rehman S. (2019). E-learning Assessment Challenges in Higher Education. International Journal of Educational Technology, 6(2), p. 45–60.

(10). Siemens G., Baker R.S. (2012). Learning Analytics and Educational Data Mining: Towards Communication and Collaboration. Proceedings of the 2nd International Conference on Learning Analytics and Knowledge, p. 252–254.

Sultonova Marvarid Abdulvohid qizi (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti tayanch doktoranti; pearlsultanova@gmail.com)

FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASI ORQALI TEXNIKA OTM TALABALARIDA MODAL FE’LLAR BO‘YICHA GRAMMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada texnika yo‘nalishidagi OTM talabalarining ingliz tili grammatik kompetensiyasini barqarorlashtirishda flipped learning modelini tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Xususan, modal fe’llarning texnik ingliz tilida egallagan o‘rni, ularni o‘zlashtirishdagi duch keladigan muammolar va flipped learning texnologiyasining nazariy asoslari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tadqiqotlar o‘rganib chiqqan holda, O‘zbekiston ta’lim siyosatiga tayangan holda, texnika OTMlariga muvofiqlashtirilgan amaliy shakli tavsiya qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *flipped learning, grammatik kompetensiya, modal fe’llar, texnika OTM, EFL, innovatsion ta’lim.*

Султонова Марварид Абдулвохид кизи (Узбекский государственный университет мировых языков, базовый докторант; pearlsultanova@gmail.com)

РАЗВИТИЕ ГРАММАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ В ОБЛАСТИ МОДАЛЬНЫХ ГЛАГОЛОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ FLIPPED LEARNING

Аннотация. *В данной статье рассматриваются возможности внедрения модели перевернутого обучения (flipped learning) для систематизации и укрепления грамматической компетенции студентов технических вузов по английскому языку. В частности, анализируется роль модальных глаголов в техническом английском языке, типичные трудности, возникающие при их усвоении, а также теоретические основы технологии flipped learning. На основе изучения международного опыта и с учетом текущей образовательной политики Узбекистана предлагается практическая модель, адаптированная под специфику технических высших учебных заведений.*

Ключевые слова: *flipped learning, грамматическая компетенция, модальные глаголы, технический вуз, EFL, инновационные образовательные технологии.*

Sultonova Marvarid Abdulvohid qizi (Uzbekistan State World Languages University, Basic Doctoral Student; pearlsultanova@gmail.com)

DEVELOPING GRAMMATICAL COMPETENCE IN MODAL VERBS AMONG TECHNICAL UNIVERSITY STUDENTS THROUGH FLIPPED LEARNING TECHNOLOGY

Annotation. *This article investigates the prospects of integrating the flipped learning model to strengthen the English grammatical competence of engineering students. Particularly, it analyzes the role of modal verbs in technical English, the typical challenges students face in mastering them, and the theoretical foundations of the flipped learning approach. Drawing on a comprehensive review of*

international research and aligned with the current educational policy of Uzbekistan, the paper proposes a tailored, practical model designed specifically for technical higher education institutions.

Keywords: *flipped learning, grammatical competence, modal verbs, technical higher education, EFL, innovative educational technologies.*

Kirish. Hozirgi globallashgan davrda, boshqa ko‘plab sohalar singari, zamonaviy muhandislik ta’limida ham ingliz tili allaqachon talab doirasiga ko‘tarildi. Tilni faqat o’rganibgina qolmasdan, shuningdek tilni qo‘llash, shu jumladan, texnik hujjatlar, xalqaro standartlar, muhandislik hisobotlari va hamkorlik loyihalari ko'pchilik hollarda ingliz tilida yuritilishi ommaviy talablardan biri hisoblanadi. Shu tufayli texnika OTM talabalari nafaqat o‘z ixtisosini, shuningdek, ingliz tilini ham kasbiy darajada bilishlari kerakligi ayni davrdagi yuqori talablardan biridir.

Yaqin yillardagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, EF English Proficiency Index O‘zbekiston 2025-yilda 123 ta davlat orasida 104-o‘rinda joylashib, past darajada ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat, ayniqsa, texnika OTMlarida ingliz tili o‘qitish metodologiyasini qayta ko‘rib chiqish kerakligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-qarori chet tillarini o‘qitish sifatini tubdan yaxshilashni davlat ustuvorligi sifatida belgiladi [1]. "Digital O‘zbekiston–2030" strategiyasi (PF-6079, 2020) esa ta’limga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni majburiy yo‘nalishga aylantirdi [2].

Texnika OTMlarida chet tillari, jumladan, ingliz tili asosiy fanlar qatorida emasligi, dars soatining kamligi ko‘plab qiyinchiliklarni yuzaga keltirayotgan, ayni davrda, talabalarning til bilish, xususan, ingliz tilini amalda qo‘llash zamon talabi etib qaralmoqda. Yuqoridagi ikki bir-biriga zid holatda deductive teaching (an’anaviy o‘qitish)dan, inductive teachingga o‘tish, ya’ni, teacher centered classroomdan student centered classroomga o‘tish ayni muammolarning yechimi hisoblanadi. Yuqoridagi o‘qitish metodlari darsni tashkil qilish va mavzuni talabalarga yetkazib berishning ikki qarama-qarshi, biroq bir-birini to‘ldiruvchi asosiy yondashuvlardandir. Shu jumladan, Flipped learning, teskari sinf modeli, ya’ni dars vaqtini nazariyadan amaliyotga ko‘chirish aynan shu ehtiyojga javob bera oladi. Bunda mavzu va ma’lumotlar darsdan oldin ko‘rilib, ma’lum tushuncha hosil qilinib, sinfda amaliyotda qo‘llash orqali mustahkamlanadi. Flipped learning, teskari sinf texnologiyasini texnika OTM talabalariga modal fe’llarni o'qitishda qo‘llashning ilmiy-amaliy asoslarini ochib berish va amaliy model taklif etish quydagi maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Flipped learning nazariyasi. Bir necha yillardan buyon, pedagogika va metodika sohalarida talabalar uchun ta’lim modellarini ishlab chiqish zaruriy masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu jumladan, dunyodagi ko‘plab xalqaro tadqiqotlarning asosiy maqsadlaridan biri samarali metodlarni ommaga tatbiq etishdir.

Shu jumladan, an’anaga aylangan odatiy dars jarayonidan, ya’ni, o‘qituvchi asosiy rolni bajaruvchi jarayondan, o‘quvchi faol jarayonga o‘tish, o‘qituvchi va o‘quvchi rollarini qayta ko‘rib chiqish g‘oyasi ilk bor A.King tomonidan taqdim etilgan [3]. Muallif o‘z tadqiqotida ta’kidlashicha, o‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi subyekt bo‘libgina qolmay, balki talabalarga bilimni mustaqil o‘rganishda yo‘l ko‘rsatuvchi, yordamlashuvchi fasilitator vazifasini bajarishi kerak ekanligini asoslab beradi [3]. Yuqoridagi nazariy yondashuv amaliyotda o‘quv materiallarini darsdan oldin o‘rganish va o‘zlashtirish, dars jarayonini o‘zaro muhokamalarga ajratish jarayonini boshlab berdi, bu g‘oya biroz vaqt o‘tgach, E.Mazur tomonidan fizika darslarida tengdoshlar ta’limi (Peer Instruction) modeli sifatida samarali sinab ko‘rildi [3].

"Aylanma dars xonasi" (Inverted Classroom) mohiyati va uning tizimli strukturasi, dastlab, M.J. Lage, G.J.Platt va M.Treglia tomonlaridan ilmiy amaliyotga tatbiq etildi [4]. Olimlar iqtisodiyot darslari misolida talabalarning interfaol axborot vositalari yordamida yangi mavzuni uydan turib o‘rganishlari, dars jarayonida esa faqat mantiqiy fikrlashni talab etuvchi topshiriqlar va amaliy mashqlarni bajarishlari mumkinligini ko‘rsatib, modelning barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatli ta’lim muhitini yaratishdagi o‘rnini ta’kidlab o‘tadilar [4].

Maskur metodologiyani zamonaviy interfaol axborot texnologiyalari va raqamli videoformatlar bilan takomillashtirib, uni bugungi davrda keng qo‘llanilgan "Flipped Classroom" (Teskari ta’lim) bosqichiga olib chiqqan olimlar J.Bergmann va A.Sams hisoblanadilar [5]. Tadqiqotchilar nazariy mashg’ulotlarni raqamli transformatsiyaga o‘tkazish orqali dars jarayonini individuallashtirish va har bir talabaning qabul qilish tempiga moslashtirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berdilar [5].

Vaqt o‘tishi bilan, mazkur model shunchaki o‘quv-texnik vositalaridan foydalanish doirasidan chiqib, tizimli pedagogik tamoyil sifatida namoyon bo‘ldi. Flipped Learning Network (FLN) tadqiqot tarmog‘i tomonidan tizimning fundamental poydevorini ko‘rsatib beruvchi 4 ta asosiy komponent (F-L-I-P: mosla-

shuvchan ta’lim muhiti, ta’lim madaniyati, maqsadli content, ya’ni, mazmun va professional pedagog) e’lon qilindi va bu usul aralash ta’lim (Vaqt o‘tishi bilan, mazkur model shunchaki o‘quv-texnik vositalaridan foydalanish doirasidan blended learning) tizimining eng sermahsul tarkibiy qismi sifatida e’tirof etildi [5].

Flipped Learning (Aylanma yoki “Teskari” ta’lim) o‘qitish modelining kelib chiqish ildizi 20-asr oxiriga borib taqaladi va 21-asr zamonaviy raqamli texnologiyalari taraqqiyoti bilan to‘liq takomillashgan hisoblanadi. Flipped learning tushunchasini birinchi bo‘lib Colorado maktabi o‘qituvchilari Jonathan Bergmann va Aaron Sams (2012) ilmiy jihatdan asoslab berdilar: "odatdagi sinfda dars jarayonida o‘tiladigan mavzu va ma’ruzalar uyga ko‘chadi, uyga beriladigan topshiriqlar esa sinfda dars jarayonida o‘qituvchi nazorati ostida bajariladi" [5;13-b.]. Bloom taksonomiyasi kesimida flipped model quyi bosqichdagi bilish jarayonlari (eslab qolish, tushunish) uyga ko‘chirib, dars jarayonini tahlil, baholash va ijodiy qo‘llash singari samarali faoliyatga yo‘naltiradi [5].

Grammatik kompetensiya. Canale va Swain (1980)ning kommunikativ kompetensiya ta’limotiga ko‘ra, grammatik kompetensiya lug‘at boyligi, talaffuz, morfologiya va sintaksis qonun-qoidalarini egallash, shu jumladan, "grammatik jihatdan to‘g‘ri iboralar tuzish qobiliyati"dir [6;29-b.]. Texnika talabalari uchun bu nafaqat tilning grammatik qoidasini bilish, shuningdek, muhandislik hujjatlarida va amaliyotda uni to‘g‘ri ishlata bilish demakdir.

Modal fe’llar va o‘qitishdagi muammolar. Palmer (1986) modal fe'llarni epistemik (ehtimol: may, might, could) va deontik (majburiyat/ruxsat: must, should, shall) kabi kategoriyalarga ajratadi [7]. Bir xil shakldagi so‘zlarning ikki xil turdagi ma’no anglatishi asosiy qiyinchilik hisoblanadi. Masalan, the valve must be fixed texnik foydalanish bo‘yicha qo‘llanmada deontik (majburiyat) ma’no anglatsa, this must be the bug epistemik (ehtimol) ma’no ifoda etadi. Hinkel (1995) Osiyo EFL o‘rganuvchilari deontik modallarni juda ko‘p xato ishlatishini aniqlagan. Bu esa ona tilining lingvistik ta’siri bilan aloqador ekanligi asoslab bergan [8]. Ta’kidlash joizki, yuqoridagi muammoli vaziyat o‘zbek tilida so‘zlashuvchi talabalarni ham chetlab o‘tmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llaniladi: (1) 2020–2026-yillarda Scopus va Web of Science bazalarida indekslangan 14 ta xalqaro ilmiy manba va metatahlillarni tizimli ko‘rib chiqilganligi; (2) O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarini tahlil etiladi; (3) flipped learning modelini texnika OTM sharoitiga moslashtirishga qaratilgan amaliy o‘qitish dizaynini ishlab chiqiladi. Nazariy asos sifatida Canale va Swain (1980) kommunikativ kompetensiya modeli va Bergmann va Sams (2012) flipped learning konsepsiyasi tanlanadi.

O‘zbekiston kontekstida qo‘llanishi. Amaldagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, flipped learning texnologiyasini O‘zbekiston ta’lim tizimida tatbiq etish uchun texnologik sharoitlar allaqachon mavjud. Jumladan, Telegram va YouTube barcha talabalar uchun foydalanishga qulay va bepul. Ammo o‘qitishning an’anaviy modelidagi o‘qituvchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim madaniyatiga ko‘nikkan talabalar uchun mustaqil o‘rganishga o‘tish sekin-asta tatbiq etilishi kerak. Bennett, Borasheva va Ruzmatova (2020) kuzatishlari shuni ko‘rsatadiki, Telegram va shunga o‘xshash raqamli ta’lim platformalari vositasida muntazam qo‘llab-quvvatlash va motivatsion modelning ijobiy natijasida muhim ahamiyat kasb etadi [9]. O‘zbekiston davlat siyosati ham bu yo‘nalishni rag‘batlantiradi: PQ-5117 (2021)ning ingliz tili o‘qituvchilari uchun moddiy rag‘batlantirish tizimi va PF-6079 (2020)ning ta’limni raqamlashtirish yo'nalishi flipped learning uchun qo‘llab-quvvatlovchi institutsional muhitni vujudga keltirmoqda [1;2-b.].

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot flipped learning modelini texnika OTM talabalariga modal fe'llarni o‘rgatishda qo‘llashning nazariy asoslanganligini va amaliy jihatdan amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatib beradi. Xalqaro metatahlillar (Vitta & Al-Hoorie, 2023: g=0.99) va grammatikaga xos empirik tadqiqotlar (Cogent Education, 2025) bu metodning samaradorligini ko‘rsatadi [10]. Modal fe’llarning texnik ingliz tilidagi kasbiy ahamiyati va epistemik-deontik farqliligi sababli flipped yondashuvi orqali yetkazib berish mukammal mavzu hisoblanadi.

Maskur takliflar taqdim etiladi. Eng avvalo, texnika OTMlarida ingliz tili o‘qituvchilari uchun flipped learning yuzasidan amaliy treninglar tashkil etish; ikkinchidan, modal fe‘llarni o‘qitish uchun yaratilgan videodarslar o‘zbek tilidagi izohlari bilan tayyorlanib, Telegram va YouTube orqali tarqatilishi; uchinchidan, O‘zbekistondagi texnika OTMlarida kvazieksperimental tadqiqoti amalga oshirilib, modelning mahalliy sharoitda qo‘llanish samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-qarori. "Chet tillarni o‘rganishni yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida". Toshkent, lex.uz, 2021.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-farmoni. "Digital O‘zbekiston–2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. Toshkent, lex.uz, 2020.

(3). King A. From sage on the stage to guide on the side. College Teaching. 1993, vol. 41, № 1, p. 30–35.

(4). Lage M.J., Platt G.J., Treglia M. Inverting the classroom: A gateway to creating an inclusive learning environment. The Journal of Economic Education. 2000, vol. 31, № 1, p. 30–43.

(5). Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. Washington DC: International Society for Technology in Education, 2012, 120 p.

(6). Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics. 1980, vol. 1(1), p. 1–47.

(7). Palmer F.R. Mood and Modality. Cambridge: Cambridge University Press, 1986.

(8). Hinkel E. The Use of Modal Verbs as a Reflection of Cultural Values. TESOL Quarterly. 1995, vol. 29(2), p. 325–343.

(9). Bennett G., Borasheva A., Ruzmatova D. Implementing Flipped Classrooms in Uzbek and Karakalpak EFL Teacher Education. In: Vinogradova P., Shin J. K. (Eds.), Contemporary Foundations for Teaching English as an Additional Language. New York, Routledge, 2020, p. 342–354.

(10). Vitta J.P., Al-Hoorie A.H. The flipped classroom in second language learning: A meta-analysis // Language Teaching Research. 2023, vol. 27(5), p. 1268–1292.

Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Dasturiy injiniring” kafedrasi katta o‘qituvchisi; xaitbayevadurdona@gmail.com)

RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA DASTURIY TA’MINOT MUHANDISLARINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta’lim texnologiyalari asosida dasturiy ta’minot muhandislarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli platformalar, interaktiv ta’lim muhiti, loyiha asosida o‘qitish, virtual laboratoriyalar va onlayn baholash vositalarining dasturiy injiniring yo‘nalishidagi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Mavzuning dolzarbligi zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida dasturiy tizimlarni loyihalash, ishlab chiqish, testlash va qo‘llab-quvvatlashga qodir yuqori malakali dasturiy ta’minot muhandislariga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotgani bilan belgilanadi. Maqolada raqamli ta’lim texnologiyalarining talaba markazli, amaliyotga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi ta’limni tashkil etishdagi pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan. Natijada raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish dasturiy ta’minot muhandislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini oshirishning muhim omili sifatida baholangan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim texnologiyalari, dasturiy ta’minot muhandisi, dasturiy injiniring, o‘qitish metodikasi, kasbiy kompetensiya, interaktiv ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, virtual laboratoriya, raqamli platformalar, onlayn baholash.*

Хаитбаева Дурдона Зокиржон кизи (Старший преподаватель кафедры «Программная инженерия» Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни; E-mail: xaitbayevadurdona@gmail.com)

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ИНЖЕНЕРОВ-ПРОГРАММИСТОВ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы совершенствования методики подготовки инженеров-программистов на основе цифровых образовательных технологий. В исследовании проанализирована роль цифровых платформ, интерактивной образовательной среды, проектного обучения, виртуальных лабораторий и средств онлайн-оценивания в формировании профессиональных компетенций студентов направления «Программная инженерия». Актуальность темы обусловлена возрастающей потребностью в высококвалифицированных инженерах-программистах, способных проектировать, разрабатывать, тестировать и сопровождать программные системы в условиях современной цифровой экономики. В статье обоснованы педагогические возможности цифровых образовательных технологий в организации студентоориентированного, практико-ориентированного и компетентностного обучения. В результате установлено, что использование цифровых образовательных технологий является важным фактором повышения качества профессиональной подготовки будущих инженеров-программистов.*

Ключевые слова: *цифровые образовательные технологии, инженер-программист, программная инженерия, методика обучения, профессиональная компетенция, интерактивное обучение, проектное обучение, виртуальная лаборатория, цифровые платформы, онлайн-оценивание.*

Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi (Senior Lecturer, Department of Software Engineering, Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni; E-mail: xaitbayevadurdona@gmail.com)

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING SOFTWARE ENGINEERING BASED ON DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Annotation. *This article presents the scientific and theoretical foundations for improving the methodology of teaching software engineers based on digital educational technologies. The study analyzes the role of digital platforms, interactive learning environments, project-based learning, virtual laboratories, and online assessment tools in developing professional competencies among Software Engineering students. The relevance of the topic is determined by the growing demand for highly qualified software engineers capable of designing, developing, testing, and maintaining software systems in the context of the modern digital economy. The article substantiates the pedagogical potential of digital educational technologies in organizing student-centered, practice-oriented, and competency-based education. The results indicate that the use of digital educational technologies is an important factor in improving the quality of professional training for future software engineers.*

Keywords: *digital educational technologies, software engineer, software engineering, teaching methodology, professional competence, interactive learning, project-based learning, virtual laboratory, digital platforms, online assessment.*

Kirish. Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayoni oliy ta’lim tizimida mutaxassis tayyorlash mazmuni, o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyalari va baholash mexanizmlarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, dasturiy ta’minot muhandislarini tayyorlash jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, amaliy dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirish hamda jamoaviy loyiha faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy dasturiy injiniring sohasi bo‘lajak mutaxassislardan nafaqat dasturlash tillarini bilishni, balki dasturiy tizimlarni loyihalash, ishlab chiqish, testlash, joriy etish, hujjatlashtirish, qo‘llab-quvvatlash va dasturiy mahsulot sifatini ta’minlash bo‘yicha kompleks kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi raqamli ta’lim texnologiyalari asosida dasturiy ta’minot muhandislarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish hamda ushbu jarayonda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar va raqamli vositalarning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada raqamli ta’lim texnologiyalarining dasturiy injiniring ta’limidagi o‘rni, dasturiy ta’minot muhandislarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta’siri, virtual laboratoriyalar, raqamli platformalar, GitHub kabi hamkorlik muhitlari, loyiha asosida o‘qitish, interaktiv topshiriqlar, onlayn baholash va feedback mexanizmlarining metodik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari dasturiy injiniring yo‘nalishida ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish, amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish va bo‘lajak dasturiy ta’minot muhandislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika va axborot texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim muassasalaridan zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishni, talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishni va o‘qitish metodikalarini takomillashtirishni talab qilmoqda [1,2].

UNESCO ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan ICT Competency Framework for Teachers modelida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish va o‘quvchilarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida ko‘rsatib berilgan [1]. Shuningdek, OECD tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar ta’lim natijalarini yaxshilash bilan bir qatorda, talabalarni XXI asr kompetensiyalariga tayyorlash vositasi sifatida baholanadi [7].

Hisoblash va dasturiy injiniring ta’limi bo‘yicha ACM/IEEE Computing Curricula 2020 hamda Software Engineering 2014 hujjatlarida bo‘lajak dasturiy ta’minot muhandislarini tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy faoliyat, loyiha asosida o‘qitish, jamoaviy ishlash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muhimligi ta’kidlangan [2,3]. Bourque va Fairley tomonidan ishlab chiqilgan SWEBOK

qo‘llanmasida esa dasturiy injiniringning asosiy bilim sohalari va kasbiy faoliyat turlari tizimlashtirilgan [4].

Dasturiy injiniring ta’limida loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) samaradorligi ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan. Thomas [8], Blumenfeld va hammualliflari [9] loyiha faoliyati talabalarning muammo yechish, mustaqil fikrlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishini ko‘rsatganlar. Kokotsaki va hammualliflari [10] loyiha asosida o‘qitish talabalarni real hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlashini ta’kidlaydilar.

Raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish masalalari Anderson [11], Bates [12] va Moore [13] tomonidan keng tadqiq qilingan. Ularning ishlari elektron ta’lim muhitlari talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirish, individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish va o‘quv natijalarini monitoring qilish imkoniyatlarini yaratishini ko‘rsatadi.

Dasturiy injiniring ta’limida GitHub va boshqa hamkorlik platformalaridan foydalanish bo‘yicha Feliciano, Storey va Zagalsky [5], Kalliamvakou va hammualliflari [14] tadqiqotlar olib borganlar. Ular GitHub platformasi talabalar o‘rtasida jamoaviy dasturlash, kod versiyalarini boshqarish va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirishini aniqlaganlar.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsion muhitlarning pedagogik imkoniyatlari Ma va Nickerson [15], Potkonjak va hammualliflari [16], Li va Liang [6] tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, virtual laboratoriyalar amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, murakkab texnologik jarayonlarni modellashtirish va talabalar o‘zlashtirish darajasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Sun’iy intellekt va adaptiv ta’lim texnologiyalarining ta’lim tizimiga integratsiyasi ham zamonaviy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan. Holmes, Bialik va Fadel [17] sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari individual o‘quv ehtiyojlarini aniqlash va moslashtirilgan ta’limni tashkil etish imkoniyatlarini yaratishini ta’kidlaydilar. Luckin [18] esa AI texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi feedback va monitoring mexanizmlarini takomillashtirishdagi rolini asoslab bergan.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim texnologiyalari, virtual laboratoryyalar, loyiha asosida o‘qitish, GitHub platformalari va kompetensiyaviy yondashuvlar alohida-alohida o‘rganilgan. Biroq dasturiy ta’minot muhandislarini tayyorlash jarayonida ushbu komponentlarni yagona metodik tizim sifatida integratsiyalash, ularning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asoslash va metodik modelini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot raqamli ta’lim texnologiyalari asosida dasturiy ta’minot muhandislarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish va ularning pedagogik imkoniyatlarini tizimli ravishda asoslashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega bo‘lib, unda raqamli ta’lim texnologiyalari asosida dasturiy ta’minot muhandislarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy, tizimli, amaliyotga yo‘naltirilgan va talaba markazli yondashuvlarga asoslandi. Kompetensiyaviy yondashuv dasturiy ta’minot muhandislarida kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma va mustaqil faoliyat yuritish malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tizimli yondashuv raqamli ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari – maqsad, mazmun, metod, vosita, nazorat va baholash bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqishga imkon berdi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, modellashtirish va metodik loyihalash metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil metodi yordamida raqamli ta’lim texnologiyalari, dasturiy injiniring ta’limi, virtual laboratoriyalar, elektron ta’lim platformalari, loyiha asosida o‘qitish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga oid ilmiy-metodik manbalar o‘rganildi.

Xususan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “ICT Competency Framework for Teachers” hujjatida ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchi va talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish omili sifatida asoslangan [1]. ACM/IEEE “Computing Curricula 2020” hujjatida esa hisoblash ta’limida bilim, ko‘nikma va kasbiy munosabatlarni uyg‘un rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan [2].

Taqqoslash metodi orqali an’anaviy o‘qitish shakllari va raqamli ta’lim texnologiyalariga asoslangan o‘qitish yondashuvlari o‘zaro solishtirildi. Bunda ma’ruza, laboratoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim jarayonlarining raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv topshiriqlar, onlayn baholash tizimlari, GitHub kabi hamkorlik muhitlari va bulutli texnologiyalar bilan boyitilgan holati tahlil qilindi. Taqqoslash natijasida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning mustaqil ishlashi, dasturiy loyiha yaratishi, jamoaviy faoliyatda ishtirok etishi, kodni tahlil qilish va testlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda keng imkoniyat yaratishi aniqlandi.

Umumlashtirish metodi asosida dasturiy ta’minot muhandislarini tayyorlashga oid xalqaro o‘quv-metodik tavsiyalar va ilmiy manbalarda ko‘rsatilgan asosiy kompetensiyalar tizimlashtirildi. ACM/IEEE tomonidan ishlab chiqilgan “Software Engineering 2014” hujjatida dasturiy ta’minot talablarini tahlil qilish, dasturiy ta’minotni loyihalash, ishlab chiqish, testlash, sifatni ta’minlash, dasturiy jarayonlarni boshqarish va loyiha faoliyatini tashkil etish kabi bilim sohalari muhim tarkibiy qismlar sifatida belgilangan [3]. SWEBOK qo‘llanmasida esa dasturiy injiniring faoliyatining asosiy bilim sohalari va muhandislik jarayonlari keng yoritilgan [4]. Ushbu manbalar asosida maqolada dasturiy ta’minot muhandislarini o‘qitishda raqamli ta’lim texnologiyalarini kasbiy kompetensiyalar bilan bog‘lash zarurligi asoslandi.

Pedagogik kuzatish metodi yordamida dasturiy injiniring yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning o‘quv faoliyati, laboratoriya mashg‘ulotlarida ishtiroki, mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayoni, dasturiy loyiha yaratishdagi qiyinchiliklari va jamoaviy ishlash ehtiyojlari tahlil qilindi. Kuzatish jarayonida talabalar, ko‘pincha, nazariy tushunchalarni amaliy dasturiy mahsulot yaratish jarayoni bilan bog‘lashda, dastur kodini testlashda, loyiha hujjatlarini yuritishda, versiyalarni boshqarishda va jamoaviy ishlab chiqish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi aniqlashtirildi. Bu holat raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv topshiriqlar va feedback mexanizmlarini o‘quv jarayoniga tizimli kiritish zarurligini ko‘rsatadi.

Modellashtirish metodi asosida dasturiy ta’minot muhandislarini raqamli ta’lim texnologiyalari yordamida o‘qitishning metodik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model quyidagi tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi: o‘quv maqsadi, kasbiy kompetensiyalar, o‘quv mazmuni, raqamli ta’lim vositalari, interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriya ishlari, loyiha faoliyati, onlayn monitoring, feedback va baholash mezonlari. Modelda raqamli texnologiyalar oddiy yordamchi vosita sifatida emas, balki talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantiruvchi metodik mexanizm sifatida qaraldi.

Metodik loyihalash metodi orqali raqamli ta’lim texnologiyalariga asoslangan o‘qitish jarayonining bosqichlari belgilandi. Unga ko‘ra, dastlab, o‘quv maqsadlari va shakllantirilishi lozim bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar aniqlanadi. Keyingi bosqichda mavzuga mos raqamli resurslar, elektron platformalar, virtual laboratoriyalar va amaliy topshiriqlar tanlanadi. Shundan so‘ng talabalarning individual va jamoaviy faoliyati tashkil etiladi, topshiriqlar bajarilishi onlayn monitoring qilinadi, feedback beriladi va natijalar baholanadi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalar tahlil qilinib, o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari raqamli ta’lim texnologiyalari asosida dasturiy ta’minot muhandislarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish zarurati va imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga qaratildi. Olib borilgan nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatish, modellashtirish va metodik loyihalash natijasida dasturiy injiniring ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonini texnik jihatdan boyitishi, balki talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik mexanizm sifatida qaralishi lozimligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, dasturiy ta’minot muhandislarini tayyorlashda o‘quv jarayoni faqat nazariy bilimlarni berish yoki alohida laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish bilan cheklanmasligi kerak. Bo‘lajak mutaxassislar dasturiy tizimni loyihalash, dasturlash, testlash, jamoada ishlash, versiyalarni boshqarish, hujjatlashtirish, foydalanuvchi talablarini tahlil qilish va dasturiy mahsulot sifatini baholash kabi kasbiy faoliyat turlariga tayyor bo‘lishlari zarur.

Tadqiqot natijasida raqamli ta’lim texnologiyalari asosida dasturiy ta’minot muhandislarini o‘qitishning quyidagi asosiy metodik komponentlari belgilandi: ta’lim maqsadi, kasbiy kompetensiyalar, o‘quv mazmuni, raqamli ta’lim vositalari, interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriya ishlari, loyiha faoliyati, feedback, onlayn monitoring va baholash mezonlari. Mazkur komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi dasturiy injiniring ta’limini tizimli tashkil etish imkonini beradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan o‘qitish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq deb topildi:

Maqsad va kompetensiyalarni aniqlash bosqichi. Ushbu bosqichda fan yoki mavzu doirasida talabalarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar aniqlanadi. Bunda dasturlash, algoritmik fikrlash, dasturiy loyiha yaratish, testlash, hujjatlashtirish, jamoaviy ishlash va muammo yechish ko‘nikmalari asosiy mezon sifatida belgilanadi.

Bu bosqichda mavzuga mos raqamli ta’lim platformalari, dasturlash muhitlari, virtual laboratoriyalar, GitHub kabi hamkorlik vositalari, onlayn test tizimlari va interaktiv topshiriqlar tanlanadi. Tanlangan vositalar o‘quv maqsadiga va talabalarning tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi zarur.

Interaktiv va loyiha topshiriqlarini ishlab chiqish bosqichi. Ushbu bosqichda talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajaradilar. Masalan, kichik dasturiy mo-

dul yaratish, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash, veb yoki mobil ilova ishlab chiqish, kodni testlash va GitHub orqali loyiha versiyalarini boshqarish kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Bu jarayonda talaba o‘qituvchi rahbarligida yoki mustaqil tarzda raqamli platformalarda ishlaydi, virtual laboratoriya topshiriqlarini bajaradi, jamoaviy loyiha faoliyatida ishtirok etadi va o‘z natijalarini raqamli muhitda taqdim etadi.

Feedback va onlayn monitoring bosqichi. Talabalarning faoliyati doimiy ravishda kuzatib boriladi. O‘qituvchi yoki raqamli tizim tomonidan xatolar, kamchiliklar va bajarilgan ishlar yuzasidan fikr-mulohaza beriladi. Feedback talabani faqat baholash uchun emas, balki uning xatosini tushunishi, tuzatishi va keyingi topshiriqlarda yaxshiroq natija ko‘rsatishi uchun xizmat qiladi.

Baholash va takomillashtirish bosqichi. Yakuniy bosqichda talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalari belgilangan mezonlar asosida baholanadi. Baholash natijalari asosida o‘qitish jarayoni, topshiriqlar mazmuni, raqamli vositalar va metodik yondashuvlar takomillashtiriladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda raqamli ta’lim texnologiyalari asosida dasturiy ta’minot muhandislarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilindi va tizimlashtirildi. Tadqiqot davomida zamonaviy raqamli ta’lim vositalari, virtual laboratoriyalar, loyiha asosida o‘qitish texnologiyalari, GitHub kabi hamkorlik platformalari hamda kompetensiyaviy yondashuvlarning dasturiy injiniring ta’limidagi o‘rni va pedagogik imkoniyatlari o‘rganildi.

Tadqiqot natijasida dasturiy ta’minot muhandislarini o‘qitishning raqamli ta’lim texnologiyalariga asoslangan metodik modeli taklif etildi. Mazkur model o‘quv maqsadlari, kasbiy kompetensiyalar, raqamli ta’lim vositalari, virtual laboratoriyalar, loyiha faoliyati, onlayn monitoring, feedback va baholash mexanizmlarining o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi. Taklif etilgan metodika talabalarning dasturlash, dasturiy mahsulotlarni loyihalash, testlash, hujjatlashtirish va jamoaviy ishlab chiqish bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi dasturiy ta’minot muhandislarini tayyorlashda raqamli ta’lim texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, GitHub platformalari va feedback mexanizmlarini yagona metodik tizim sifatida integratsiyalashning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, mazkur komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli tizimli ravishda asoslandi.

Shunday qilib, raqamli ta’lim texnologiyalaridan kompleks va maqsadli foydalanish dasturiy ta’minot muhandislarini tayyorlash sifatini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalari sohasining ehtiyojlariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim pedagogik omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris, UNESCO, 2018, 64 p.

(2). ACM/IEEE Joint Task Force on Computing Curricula. Computing Curricula 2020: Paradigms for Global Computing Education. New York, Association for Computing Machinery, 2020, 160 p.

(3). ACM/IEEE Joint Task Force on Computing Curricula. Software Engineering 2014: Curriculum Guidelines for Undergraduate Degree Programs in Software Engineering. New York, ACM; IEEE Computer Society, 2015, 185 p.

(4). Bourque P., Fairley R.E. Guide to the Software Engineering Body of Knowledge (SWEBOK Guide), Version 3.0. Los Alamitos: IEEE Computer Society, 2014, 332 p.

(5). Feliciano J., Storey M.A., Zagalsky A. Student Experiences Using GitHub in Software Engineering Courses: A Case Study. Proceedings of the 38th International Conference on Software Engineering Companion (ICSE-C). 2016, p. 422–431.

(6). Li J., Liang W. Effectiveness of Virtual Laboratory in Engineering Education: A Meta-Analysis // PLOS ONE. 2024, vol. 19, № 12, Article e0316269.

(7). OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. Paris, OECD Publishing, 2018, 23 p.

(8). Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. California: The Autodesk Foundation, 2000, 46 p.

(9). Blumenfeld P.C., Soloway E., Marx R.W., Krajcik J.S., Guzdial M., Palincsar A. Motivating Project-Based Learning: Sustaining the Doing, Supporting the Learning. Educational Psychologist. 1991, vol. 26, № 3–4, p. 369–398.

(10). Kokotsaki D., Menzies V., Wiggins A. Project-Based Learning: A Review of the Literature // Improving Schools. 2016, vol. 19, № 3, p. 267–277.

(11). Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. Edmonton: Athabasca University Press, 2008, 472 p.

(12). Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Vancouver, BCcampus, 2019, 540 p.

(13). Moore M.G., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. 4th ed. Boston, Cengage Learning, 2021, 368 p.

(14). Kalliamvakou E., Gousios G., Blincoe K., Singer L., German D.M., Damian D. The Promises and Perils of Mining GitHub. Proceedings of the 11th Working Conference on Mining Software Repositories. 2014, p. 92–101.

(15). Ma J., Nickerson J.V. Hands-On, Simulated, and Remote Laboratories: A Comparative Literature Review. ACM Computing Surveys. 2006, vol. 38, № 3, Article 7.

(16). Potkonjak V., Gardner M., Callaghan V., Mattila P., Guetl C., Petrović V.M., Jovanović K. Virtual Laboratories for Education in Science, Technology, and Engineering: A Review. Computers & Education. 2016, vol. 95, p. 309–327.

(17). Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston, Center for Curriculum Redesign, 2019, 48 p.

(18). Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence. The Future of Education for the 21st Century. London: UCL Institute of Education Press, 2018, 256 p.

Raximov Gayrat Buvaxanovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
e-mail: gayratraximov941@gmail.com)

TALABALARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik shart-sharoitlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi talabalarning sog‘lom hayot faoliyatiga oid bilimlari, qadriyatli munosabati, amaliy ko‘nikmalari va barqaror xulq-atvorini bir butun tizim sifatida rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik modelni asoslashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, kontent-tahlil, tizimli va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanildi. Tahlil natijasida sog‘lom turmush tarzi madaniyatining motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy, refleksiv-baholash hamda ijtimoiy-kommunikativ tarkibiy qismlari ajratildi. Shuningdek, oliy ta’lim sharoitida mazkur madaniyatni shakllantirishning bosqichlari, mezonlari, ko‘rsatkichlari va pedagogik vositalari belgilandi.*

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi, salomatlik madaniyati, talaba, jismoniy faollik, ratsional ovqatlanish, ruhiy salomatlik, raqamli gigiyena, pedagogik model, sog‘lomlashtiruvchi ta’lim muhiti, o‘zini o‘zi boshqarish.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретико-методологические основы, педагогические условия и практические механизмы формирования культуры здорового образа жизни у студентов высших образовательных учреждений. Цель исследования заключается в научном обосновании педагогической модели, направленной на комплексное развитие знаний студентов о здоровом образе жизни, их ценностного отношения к сохранению здоровья, практических навыков и устойчивых моделей поведения как единой системы. В ходе исследования использовались методы анализа научно-педагогической литературы, сравнительного анализа, обобщения, контент-анализа, а также системный и компетентностный подходы. В результате исследования были выделены мотивационно-ценностный, когнитивный, деятельностно-практический, рефлексивно-оценочный и социально-коммуникативный компоненты культуры здорового образа жизни. Кроме того, определены этапы, критерии, показатели и педагогические средства формирования данной культуры в условиях высшего образования.*

Ключевые слова: *здоровый образ жизни, культура здоровья, студент, физическая активность, рациональное питание, психическое здоровье, цифровая гигиена, педагогическая модель, здоровьесберегающая образовательная среда, самоуправление.*

PEDAGOGICAL METHODS FOR DEVELOPING A HEALTHY LIFESTYLE CULTURE AMONG STUDENTS

Annotation*. This article analyzes the theoretical and methodological foundations, pedagogical conditions and practical mechanisms for developing a healthy lifestyle culture among university students. The purpose of the study is to substantiate a pedagogical model aimed at developing students’ knowledge,*

value-based attitudes, practical skills and sustainable behavior related to healthy living as an integrated system. The study used analysis of scientific and pedagogical sources, comparison, generalization, content analysis, as well as systemic and competency-based approaches. As a result, motivational-value, cognitive, practical-activity, reflective-evaluative and social-communicative components of healthy lifestyle culture were identified. The stages, criteria, indicators and pedagogical means for developing this culture in higher education were also determined.

Keywords: *healthy lifestyle, health culture, student, physical activity, rational nutrition, mental health, digital hygiene, pedagogical model, health-promoting educational environment, self-management.*

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini saqlash masalasi nafaqat tibbiy, balki pedagogik va ijtimoiy muammo sifatida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim davri shaxs hayot tarzining barqaror stereotiplari shakllanadigan, mustaqil qaror qabul qilish, vaqtni boshqarish, kasbiy va ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish jarayonlari jadallashadigan bosqichdir. Shu sababli aynan talabalik yillarida shakllangan ovqatlanish, jismoniy faollik, uyqu, mehnat va dam olish tartibi, stressni boshqarish hamda zararli odatlarga munosabat keyingi hayot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy faollikning yetishmasligi global miqyosda muhim xavf omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Kattalarning qariyb uchdan bir qismi va o'smirlarning katta qismi tavsiya etilgan faollik darajasiga erishmaydi [1;2-b.]. Mazkur holat talaba yoshlar orasida ham uzoq vaqt o'tirib qolish, ekran qarshisida ko'p vaqt o'tkazish, uyqu rejimining buzilishi, nosog'lom ovqatlanish va psixoemotsional zo'riqish bilan namoyon bo'ladi. Oliy ta'limda faqat jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishning o'zi bu muammoni to'liq bartaraf eta olmaydi. Chunki sog'lom turmush tarzi – bu bilim, qadriyat, motivatsiya, amaliy odat va ijtimoiy mas'uliyatning integrativ birligi sanaladi.

UNESCO sog'liq va farovonlikni ta'lim tizimining kundalik vazifalariga integratsiya qilish, xavfsiz, inkluziv va salomatlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishni zamonaviy ta'lim siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilaydi [3;4-b.]. Bu yondashuvdan kelib chiqib, talabalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish faqat tibbiy profilaktika yoki sport tadbirlari bilan cheklanmasligi, balki o'quv jarayoni, tarbiyaviy ishlar, kampus infratuzilmasi, raqamli ta'lim, tyutorlik faoliyati va talabalar o'zini-o'zi boshqarish tizimi bilan uzviy bog'lanishi lozim.

Sog'lom turmush tarzi madaniyati shaxsning salomatlikni oliy qadriyat sifatida anglashini, sog'liqni asrashga oid ilmiy tasavvurlarga ega bo'lishini, kundalik hayotida sog'lom xulq-atvor me'yorlariga amal qilishini va o'z salomatligi uchun mas'uliyatni zimmasiga ola bilishini ifodalaydi. Mazkur tushuncha "sog'lom turmush tarzi", "salomatlik savodxonligi", "jismoniy madaniyat", "valeologik kompetensiya" va "o'zini o'zi boshqarish" tushunchalari bilan mazmunan yaqin bo'lsa-da, ulardan kengroq bo'lib, shaxsiy hamda ijtimoiy xulq-atvor darajasini qamrab oladi.

Mazmuni. Mavzusi oliy ta'lim muassasalarida talabalarni jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan sog'lom shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladigan pedagogik yondashuv, metod va vositalarning mazmunini yoritadi. Ushbu yo'nalishda talabalarda sog'lom turmush tarziga oid bilimlar, ijobiy munosabat, mustahkam ko'nikma va barqaror odatlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari o'rganiladi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, tarbiyaviy suhbatlar, treninglar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish orqali talabalarning sog'lom ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, ruhiy salomatlikni asrash, zararli odatlardan voz kechish va bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish borasidagi madaniyati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'qituvchi, oila va ijtimoiy muhitning o'zaro hamkorligi asosida talabalarda sog'lom turmush tarzini hayotiy qadriyat sifatida qaror toptirish, ularda mas'uliyat, o'z salomatligiga ongli munosabat hamda sog'lom hayot tamoyillariga sodiqlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Talabalarning sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya, tibbiyot va jamoat salomatligi sohalarida keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sog'lom turmush tarzi shaxs salomatligini mustahkamlash, jismoniy va ma'naviy barkamollikni ta'minlash hamda sog'lom avlodni tarbiyalashning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotlarda sog'lom turmush tarzining tarkibiy qismlari sifatida oqilona ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, ruhiy salomatlikni saqlash, zararli odatlardan voz kechish va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish alohida ta'kidlanadi.

Pedagogik adabiyotlarda talabalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish ta'lim va tarbiya jarayonining uzviy qismi sifatida qaraladi. Ilmiy manbalarda interfaol ta'lim metodlari, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, treninglar, tarbiyaviy tadbirlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foy-

dalanish sog‘lom turmush tarziga oid bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni samarali shakllantirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Shu bilan birga, talabalarning motivatsiyasini oshirish, mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom hayot tarziga nisbatan mas’uliyatli munosabatni rivojlantirish pedagogik samaradorlikning muhim omillari sifatida baholanadi.

O‘zbekiston va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki amaliy faoliyat, sog‘lom ta’lim muhiti, oila, ta’lim muassasasi va jamiyatning o‘zaro hamkorligi orqali amalga oshirilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin. Biroq mavjud tadqiqotlarda oliy ta’lim muassasalari talabalarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning zamonaviy pedagogik usullarini takomillashtirish, ularning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish masalalari hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy-amaliy ehtiyojni qondirishga qaratilgan.

Natijalar. Ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish natijasida talabalarda sog‘lom turmush tarzi madaniyati besh o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismdan iborat integrativ sifat tarzida belgilandi.

Motivatsion-qadriyatli tarkibiy qism talabaning salomatlikni shaxsiy va ijtimoiy qadriyat sifatida qabul qilishi, sog‘lom yashashga ichki ehtiyoj sezishi, o‘z sog‘lig‘i uchun mas’uliyatni anglashini ifodalaydi. Bu tarkibiy qism shakllanmagan holatda talaba sog‘lom hayot haqidagi bilimlarga ega bo‘lsa ham, ularni kundalik xulq-atvorga aylantirmasligi mumkin.

Kognitiv tarkibiy qism jismoniy faollik, ratsional ovqatlanish, uyqu gigiyenasi, shaxsiy gigiyena, kasalliklarning oldini olish, ruhiy salomatlik, stressni boshqarish, reproduktiv salomatlik va raqamli gigiyena bo‘yicha ilmiy asoslangan bilimlarni qamrab oladi. Salomatlik savodxonligi talabaning turli axborot manbalarini tanqidiy baholashi, sog‘liq bilan bog‘liq yolg‘on yoki manipulyativ axborotni ajrata olishi bilan ham tavsiflanadi [1;2-b.].

Faoliyatli-amaliy tarkibiy qism sog‘lom xulq-atvorning kundalik faoliyatda namoyon bo‘lishini bildiradi. Bunga muntazam jismoniy mashqlar, faol transportdan foydalanish, ovqatlanish rejimiga rioya qilish, yetarli uyqu, zararli odatlardan tiyilish, profilaktik ko‘riklarda qatnashish, ish joyini ergonomik tashkil etish va dam olishni to‘g‘ri rejalashtirish kiradi.

Refleksiv-baholash tarkibiy qismi talabaning o‘z jismoniy va ruhiy holatini kuzatishi, kun tartibi va odatlarini tahlil qilishi, xavf omillarini aniqlashi, maqsad qo‘yishi va zarur hollarda o‘z xulq-atvoriga tuzatish kiritish qobiliyatini anglatadi. Bu jarayonda kundalik, mobil ilova, qadam o‘lchagich, uyqu monitoringi yoki o‘zini baholash kartalaridan foydalanish mumkin.

Ijtimoiy-kommunikativ tarkibiy qism sog‘lom turmush tarzini tengdoshlar, oila, akademik guruh va ta’lim muassasasi bilan hamkorlikda qo‘llab-quvvatlashni ifodalaydi. Talaba sog‘lom muhit yaratuvchi, boshqalarga ijobiy namuna bo‘luvchi va sog‘liqni qadrlovchi ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etuvchi subyektga aylanishi lozim.

Axborot-ma’rifiy bosqichda sog‘lom hayotning ilmiy asoslari fanlararo shaklda o‘rgatiladi. Bunda ma’ruza va an’anaviy targ‘ibot bilan cheklanmasdan, muammoli vaziyatlar, keyslar, sog‘liq bilan bog‘liq axborotni tekshirish, miniloyihalar va ekspert uchrashuvlaridan foydalanish muhim. Masalan, talabalarga oziq-ovqat yorliqlarini tahlil qilish, bir haftalik ekran vaqtini baholash, uyqu gigiyenasi rejasini ishlab chiqish yoki akademik stressni kamaytirish bo‘yicha individual strategiya tuzish topshirilishi mumkin [1;3-b.].

Faoliyatli-amaliy bosqichda bilimlar kundalik odatga aylantiriladi. Buning uchun “faol tanaffus”, piyoda yurish chaqiriqlari, sog‘lom ovqatlanish haftaligi, sport klublari, turistik yurishlar, nafas mashqlari, relaksatsiya treninglari, ergonomik ish joyi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar va guruhiy sog‘lomlashtirish loyihalari tashkil etiladi. Jismoniy faollik bo‘yicha tavsiyalar talabaning yoshi, salomatlik holati va tayyorgarlik darajasiga moslashtirilishi kerak. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti kattalar uchun haftasiga kamida 150–300 daqiqa o‘rtacha shiddatdagi yoki 75–150 daqiqa yuqori shiddatdagi aerob faollikni tavsiya etadi [1;5-b.].

Refleksiv-korreksion bosqichda talabalar o‘z natijalarini baholaydi, muvaffaqiyat va qiyinchiliklarni tahlil qiladi, individual sog‘lomlashtirish rejasiga o‘zgartirish kiritadi. Ushbu bosqichda raqamli texnologiyalar maqsad emas, balki o‘zini nazorat qilish vositasi sifatida qo‘llanadi. Raqamli monitoring shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi, ortiqcha nazorat va raqamli qaramlik xavflarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish uchun uch guruh pedagogik shart-sharoitlar talab etiladi. Birinchi guruh – mazmuniy shart-sharoitlar: o‘quv dasturlari-

ga salomatlik savodxonligi, jismoniy faollik, ovqatlanish, ruhiy salomatlik va raqamli gigiyenaga oid integrativ mavzularni kiritish. Ikkinchi guruh – tashkiliy shart-sharoitlar: sport va sog‘lomlashtirish infratuzilmasi, tibbiy-psixologik xizmat, tyutorlik, talabalar klublari va sog‘lom ovqatlanish imkoniyatlari. Uchinchi guruh – metodik shart-sharoitlar: interfaol, loyiha, trening, refleksiya, o‘zini nazorat va individual yo‘naltirish metodlarini qo‘llash.

1-jadval

Sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning pedagogik modeli

Model bloki	Mazmuni	Kutiladigan natija
Maqsadli blok	salomatlikni qadrlovchi, bilimli va mas’uliyatli talaba shaxsini rivojlantirish	sog‘lom hayotga barqaror yo‘nalganlik
Diagnostik blok	salomatlik xulqi, motivatsiya, faollik va xavf omillarini aniqlash	individual ehtiyojlar xaritasi
Mazmuniy blok	jismoniy faollik, ovqatlanish, uyqu, gigiyena, ruhiy salomatlik, raqamli gigiyena	tizimli salomatlik bilimlari
Texnologik blok	trening, loyiha, keys, sport tadbiri, o‘zini nazorat, raqamli monitoring	amaliy ko‘nikma va odatlar
Muhit bloki	sog‘lom kampus, qulay infratuzilma, qo‘llab-quvvatlovchi jamoa	sog‘lom xulq uchun qulay sharoit
Nazorat-korreksiya bloki	mezonlar asosida monitoring, refleksiya va individual tuzatish	barqaror ijobiy dinamika
Natijaviy blok	motivatsiya, bilim, xulq, refleksiya va ijtimoiy faollik birligi	sog‘lom turmush tarzi madaniyati

Olingan nazariy natijalar sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish masalasiga faqat jismoniy tarbiya yoki tibbiy profilaktika doirasida yondashish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Sog‘lom xulq-atvor ko‘p omilli hodisa bo‘lib, bilim, motivatsiya, ijtimoiy muhit, infratuzilma va shaxsning o‘zini boshqarish qobiliyatiga bog‘liq. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida “sog‘lom turmush tarzi” alohida tadbirlar to‘plami emas, balki ta’lim sifatining tarkibiy ko‘rsatkichi sifatida qaralishi kerak [2;3-b.].

Jismoniy faollik mazkur madaniyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lsa-da, talabaning sog‘lom hayotini faqat sport natijalari bilan baholash to‘g‘ri emas. Faol bo‘lgan talaba uyqu yetishmasligi, nosog‘lom ovqatlanish, kuchli stress yoki raqamli qaramlik sabab salomatlik xavfiga duch kelishi mumkin. Demak, baholash kompleks bo‘lishi, jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va xulqiy ko‘rsatkichlarni qamrab olishi zarur.

Talabalar orasida sog‘lom odatlarni shakllantirishda tashqi nazoratga asoslangan majburiy yondashuv qisqa muddatli natija berishi mumkin, biroq ichki motivatsiya va shaxsiy ma’no shakllanmasa, xulq-atvor barqaror bo‘lmaydi. Shu sababli pedagogik ta’sir “buni qilish kerak” degan buyruqbozlikdan “bu men uchun nima beradi?” degan refleksiv anglashga olib kelishi lozim. Talabaning o‘z maqsadini belgilashi, kichik va erishish mumkin bo‘lgan qadamlarni tanlashi, natijani kuzatishi hamda muvaffaqiyatini his qilishi motivatsiyani mustahkamlaydi.

UNESCO tomonidan ilgari surilayotgan salomatlikni qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti tamoyili mazkur tadqiqot xulosalari bilan uyg‘unlashadi. Ta’lim muassasasida sog‘lom tanlov qilish qiyin, nosog‘lom tanlov esa oson bo‘lsa, faqat targ‘ibot bilan barqaror o‘zgarishga erishib bo‘lmaydi. Masalan, kampusda xavfsiz piyoda yo‘laklari, sport maydonlari, ichimlik suvi, sog‘lom ovqatlanish imkoniyati, psixologik maslahat va dam olish zonalari bo‘lishi talabalar xulqiga bevosita ta’sir etadi [3;4-b.].

Raqamli texnologiyalar sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda katta imkoniyatga ega. Mobil ilovalar jismoniy faollik, uyqu, suv iste’moli va kun tartibini kuzatishga yordam beradi; onlayn kurslar salomatlik savodxonligini oshiradi; guruhiy chaqiriqlar ijtimoiy motivatsiyani kuchaytiradi. Biroq bunday vositalar ortiqcha raqobat, tashqi ko‘rsatkichlarga qaramlik, shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi yoki sog‘liq holatini noto‘g‘ri talqin qilish xavfini ham tug‘diradi. Shuning uchun raqamli vositalar pedagogik maqsadga bo‘ysundirilishi va sog‘lom raqamli xulq me’yorlari bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Mazkur modelni joriy etishda pedagog, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, psixolog, tibbiyot xodimi, tyutor va talabalar yetakchilari o‘rtasidagi hamkorlik muhim. Fan o‘qituvchilari ham o‘z mashg‘ulotlarida sog‘lom mehnat rejimi, ergonomika, stressni boshqarish va kasbiy salomatlik masalalarini yoritishi mumkin. Bu holat sog‘lom turmush tarzini faqat bir fan yoki bo‘limning vazifasi emas, balki butun universitet jamoasining umumiy mas’uliyati sifatida qarashga olib keladi.

Xulosa. Talabalarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish oliy ta’limning tarbiyaviy va sog‘lomlashtiruvchi vazifalarini integratsiyalashni talab qiladigan kompleks pedagogik jarayondir. Mazkur

madaniyat motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy, refleksiv-baholash va ijtimoiy-kommunikativ tarkibiy qismlarning birligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilim berish zarur, biroq u yetarli shart emas. Barqaror natija talabaning shaxsiy motivatsiyasi, amaliy tajribasi, o‘zini o‘zi nazorat qilishi va sog‘lom tanlovni qo‘llab-quvvatlaydigan ta’lim muhiti mavjud bo‘lgandagina yuzaga keladi.

Taklif etilgan pedagogik model maqsadli, diagnostik, mazmuniy, texnologik, muhit, nazorat-korreksiya va natijaviy bloklardan tashkil topadi. Uni amalga oshirishda jismoniy faollik, ratsional ovqatlanish, uyqu, ruhiy salomatlik, zararli odatlarning oldini olish, raqamli gigiyena va ijtimoiy faollik o‘zaro integratsiya qilinadi.

Oliy ta’lim muassasalarida sog‘lomlashtiruvchi ta’lim muhitini yaratish, fanlararo dasturlarni ishlab chiqish, talabalar sport va sog‘lomlashtirish klublarini qo‘llab-quvvatlash, tyutorlik hamda psixologik xizmatlarni kuchaytirish, individual sog‘lomlashtirish rejalarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). World Health Organization. Physical activity. Fact sheet. Geneva, WHO, 2024.

(2). World Health Organization. Global status report on physical activity. 2022. Geneva, WHO, 2022.

(3). UNESCO. Education for health and well-being. Paris, UNESCO, 2025.

(4). UNESCO. Integrating health and well-being into education policy and planning: Handbook. Paris, UNESCO, 2025.

(5). Bull F.C., Al-Ansari S.S., Biddle S. et al. World Health Organization 2020 guidelines on physical activity and sedentary behavior. British Journal of Sports Medicine. 2020, vol. 54, p. 1451–1462.

(6). Chaput J.P., Willumsen J., Bull F. et al. 2020 WHO guidelines on physical activity and sedentary behaviour for children and adolescents aged 5–17 years. International Journal of Behavioral Nutrition and Physical Activity. 2020, vol. 17, Article 141.

(7). Ismoilova Z.K. Sog‘lom turmush tarzi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2014. 180-bet.

(8). Karimova V.M. Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari. “Pedagogika” jurnali, Toshkent, 2018, 3-son, 45–52-betlar.

(9). Rasulov A. Yoshlar sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muammolari. “Xalq ta’limi” jurnali, Toshkent, 2020, 2-son, 33–39-betlar.

(10). Davronov N. Talabalarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishning pedagogik tamoyillari. “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali, 2025 3(12).

Murodova Nafisa San’atjonovna (Buxoro davlat Pedagogika instituti 3-bosqich tayanch doktoranti; Nafisa.mns@mail.ru)

“ZARDO‘ZLIK SAN’ATI, TIKUV BUYUMLARINI ZARDO‘ZLIK USULI BILAN BEZASH” MAVZUSINI O‘QITISHDA TALABALARNING DIZAYNERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KAHOOT DASTURIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Zardo‘zlik san’ati, tikuv buyumlarini zardo‘zlik usuli bilan bezash” mavzusini o‘qitishda Kahoot interaktiv ta’lim platformasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari hamda uning talabalarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Kahoot dasturining vizual tafakkurni rivojlantirish, kompozitsion fikrlashni shakllantirish, kreativ yondashuvni qo‘llab-quvvatlash va kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishdagi o‘rni ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, zardo‘zlik san’ati namunalarini o‘rganishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kahoot, zardo‘zlik san’ati, dizaynerlik qobiliyati, gamifikatsiya, vizual ta’lim, kreativ kompetensiya, badiiy bezash, kasbiy tayyorgarlik, interaktiv ta’lim.*

Муродова Нафиса Санъатжоновна (Базовый докторант 3-го курса Бухарского государственного педагогического института: Nafisa.mns@mail.ru)

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММЫ KAHOOT ДЛЯ РАЗВИТИЯ ДИЗАЙНЕРСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕМЕ «ИСКУССТВО ЗОЛОТОГО ШИТЬЯ И УКРАШЕНИЕ ШВЕЙНЫХ ИЗДЕЛИЙ ЗОЛОТОШВЕЙНЫМ МЕТОДОМ»

Аннотация. *В данной статье проанализированы педагогические возможности использования интерактивной образовательной платформы Kahoot при обучении теме «Искусство золотого шитья и украшение швейных изделий золотошвейным методом», а также её значение в развитии дизайнерских способностей студентов. В ходе исследования научно и методически обоснована роль*

программы Kahoot в развитии визуального мышления, формировании композиционного мышления, поддержке творческого подхода и совершенствовании профессиональных компетенций обучающихся. Кроме того, раскрыты преимущества использования элементов геймификации в процессе изучения образцов искусства золотого шитья.

Ключевые слова: *Kahoot, искусство золотого шитья, дизайнерские способности, геймификация, визуальное обучение, творческая компетенция, художественное оформление, профессиональная подготовка, интерактивное обучение.*

Murodova Nafisa Sanatjonovna (Third-Year Doctoral Student (PhD) Bukhara State Pedagogical Institute, Uzbekistan; Nafisa.mns@mail.ru)

POSSIBILITIES OF USING THE KAHOOT PROGRAM IN DEVELOPING STUDENTS' DESIGN SKILLS WHILE TEACHING THE TOPIC "THE ART OF GOLD EMBROIDERY AND DECORATING GARMENTS WITH GOLD EMBROIDERY TECHNIQUES"

Annotation. *This article analyzes the pedagogical opportunities of using the interactive educational platform Kahoot in teaching the topic "The Art of Gold Embroidery and Decorating Garments with Gold Embroidery Techniques" and its significance in developing students' design skills. The study scientifically and methodologically substantiates the role of Kahoot in enhancing visual thinking, developing compositional thinking, supporting creative approaches, and improving students' professional competencies. Furthermore, the advantages of integrating gamification elements into the study of gold embroidery art samples are highlighted.*

Keywords: *Kahoot, gold embroidery art, design skills, gamification, visual learning, creative competence, artistic decoration, professional training, interactive learning.*

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning kreativ tafakkuri, estetik didi va dizaynerlik qobiliyatlarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, san'at va dizayn yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda.

"Zardo'zlik san'ati, tikuv buyumlarini zardo'zlik usuli bilan bezash" mavzusi xalq amaliy bezak san'atining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki bezak kompozitsiyasi, naqsh elementlari, rang uyg'unligi va badiiy loyihalash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni ham egallashlari zarur. Shu nuqtayi nazardan, Kahoot platformasidan foydalanish talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, dizaynerlik tafakkurini rivojlantirish va kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilash imkonini beradi. Raqamli pedagogikaning rivojlanishi natijasida gamifikatsiya texnologiyalari ta'limning samarali vositalaridan biriga aylandi [1]. Kahoot platformasi o'quv jarayoniga o'yin elementlarini integratsiya qilish orqali talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Zardo'zlik san'ati kabi vizual-amaliy fanlarni o'qitishda Kahootdan foydalanish naqshlarni tanib olish, kompozitsion yechimlarni baholash va dizayn variantlarini tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur imkoniyatlar talabalarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuni o'rganish maqsadida ko'pgina ilmiy manbaalar o'rganildi va tahlil qilindi. Jumladan, dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish, dizaynerlik kasbiy faoliyatini shakllantirish hamda, talabalarda ijodkorlik xususiyatlar to'g'risida N.M.Sharipova, G.U.Ernazarova, A.Z.Rashidov, J.B.Rahimgulov va boshqalarning ishlari o'rganildi [3]. Texnologiya fani o'qituvchilarining dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha M.I.Belyayeva, V.N.Munisabirovalarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Yuqoridagi ilmiy ishlar izlanishning metodik qismiga asos slogan bo'lib, dars jarayonida aynan Kahoot platformasidan foydalanish, uning samaradorligi va talabalarda tanqidiy fiklashni shakllantirish bo'yicha A.A.Hasanova, N.A.Gulboyev, S.I.Malikov, A.T.Tuychiyevlarning ishlari ko'zda tutildi. Xorijiy manbalardan, A.I.Perevishko, Y.B.Yushkevich, S.A.Davidova, Z.Abutovalarning ilmiy ishlaridan Kahoot platformasini dars jarayonida qo'llash, Kahoot interaktiv o'qitish metodi sifatida o'rganildi.

Yuqoridagi ilmiy ishlardan farqli bizning ilmiy izlanishimiz Kahoot platformasi yordamida talabarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bu boradagi ilmiy izlanishlar deyarli bajarilmaganligi aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kahoot o'yin texnologiyalariga asoslangan interaktiv ta'lim platformasi bo'lib, o'quvchilarning bilimlarini baholash, mustahkamlash va nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Platformaning asosiy afzalligi o'quv jarayonini qiziqarli, interaktiv va raqobat muhitida tashkil etishidadir. Pedagogik nuqtayi nazardan Kahoot:

- motivatsiyani oshiradi;

• o‘quv faolligini kuchaytiradi;
• tezkor teskari aloqa beradi;
• mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
• vizual idrokni faollashtiradi;
• refleksiv faoliyatni rag‘batlantiradi.

Dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda Kahoot dasturi vizual tafakkurni rivojlantiradi, zardo‘zlik san’atini o‘rganishda naqshlar, bezak elementlari va kompozitsiyalar bilan ishlash muhim o‘rin tutadi. Kahoot platformasida rasmli testlardan foydalanish talabalarning vizual idrokini rivojlantiradi [2].

Masalan, talabalar ekranda namoyish etilgan naqsh elementlarini tahlil qilib:
• naqsh turini aniqlaydilar;
• kompozitsion yechimlarni baholaydilar;
• rang uyg‘unligini tahlil qiladilar.

Bu esa dizaynerlik faoliyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblangan vizual tafakkurni shakllantiradi.

Kompozitsion fikrlashni rivojlantirishda ta’lim jarayonida talabalarda zardo‘zlik buyumlarini bezashda kompozitsiya qonuniyatlariga amal qilish muhim hisoblanadi [4]. Kahoot platformasi yordamida talabalar turli kompozitsion variantlarni taqqoslash va eng maqbul dizayn yechimini tanlash bo‘yicha topshiriqlarni bajaradilar. Natijada ularda:
• proporsiya hissi;
• simmetriya va assimetriyani anglash;
• ritm va muvozanatni baholash ko‘nikmalari shakllanadi.

Tahlil va natijalar. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda Kahoot ochiq muhokamaga asoslangan savollar va dizayn variantlarini tanlash topshiriqlari talabalarni ijodiy fikrlashga undaydi. Masalan: “Milliy libosning yoqa qismida qaysi naqsh kompozitsiyasidan foydalanish estetik jihatdan maqsadga muvofiq?” Mazkur topshiriqlar talabalarni bir nechta variantlarni tahlil qilishga va original yechim topishga yo‘naltiradi [5].

Dizayn tahlili kompetensiyasini rivojlantirishda Kahoot yordamida tayyor zardo‘zlik mahsulotlarining rasmlari asosida ekspert baholash topshiriqlari tashkil etilishi mumkin. Talabalar:
• dizaynning estetik qiymatini;
• naqshlarning joylashuvini;
• rang uyg‘unligini;
• bezaklarning funksional mosligini baholaydilar[6].

Bu esa professional dizayner faoliyatida zarur bo‘lgan tahliliy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

1-jadval

Zardo‘zlik san’ati mavzusini o‘qitishda Kahoot dasturidan foydalanish metodikasi

Bosqich	O‘qituvchi faoliyati	Kahoot imkoniyatlari	Kutilayotgan natija
Motivatsion bosqich	Zardo‘zlik tarixi, mashhur ustalar va naqshlar haqida kirish suhbati tashkil etadi.	Qisqa viktorina va qiziqarli savollar orqali talabalarni jalb qiladi.	Talabalarda mavzuga qiziqish va motivatsiya shakllanadi
Nazariy bosqich	Zardo‘zlik san’ati va bezak elementlari bo‘yicha yangi bilimlarni tushuntiradi.	Rasmli testlar va interaktiv savollar yordamida tushunishni nazorat qiladi.	Nazariy bilimlar mustahkamlanadi va o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi.
Amaliy bosqich	Naqsh va kompozitsiyalarni tahlil qilish bo‘yicha topshiriqlar beradi.	Dizayn variantlarini tanlash va baholashga oid topshiriqlarni taqdim etadi.	Talabalarning ijodiy va dizaynerlik qobiliyatlari rivojlanadi.
Mustahkamlash bosqichi	O‘tilgan mavzularni umumlashtiradi.	Yakuniy Kahoot viktorinasi tashkil etadi.	Bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi.
Baholash bosqichi	Olingan natijalarni tahlil qiladi.	Statistik ma’lumotlar va reytinglar orqali baholashni amalga oshiradi.	Talabalarning bilim darajasi va dizaynerlik kompetensiyalari aniqlanadi.
Natija	—	—	Vizual tafakkur, kreativ fikrlash, dizaynerlik qobiliyati hamda kasbiy kompetensiyalar rivojlanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Kahoot platformasidan foydalanish:



Ayniqsa, rasmli topshiriqlar va naqshlarni tahlil qilishga qaratilgan interaktiv savollar dizaynerlik faoliyatiga oid ko‘nikmalarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, “Zardo‘zlik san’ati, tikuv buyumlarini zardo‘zlik usuli bilan bezash” mavzusini o‘qitishda Kahoot platformasidan foydalanish talabalarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Platforma orqali tashkil etilgan gamifikatsion faoliyat talabalar motivatsiyasini oshiradi, vizual tafakkurini rivojlantiradi, kompozitsion fikrlashni shakllantiradi hamda kreativ kompetensiyalarni takomillashtiradi. Shu bois Kahoot dasturini xalq hunarmandchiligi va badiiy bezash fanlarini o‘qitish metodikasiga integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Tolipov O.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2021.

(2). San’atjonovna M.N. Use of infographics method in teaching students design science. Sustainability of Education, socio-economic science theory. 2023, 1(11), p. 88–91.

(3). San’atjonovna M.N. The importance of developing special skills in preparing students for design activity //International journal of scientific researchers.

(4). Sharipova N.M. Talabalarda dizaynerlik mahoratini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 6-jild, 12-son, 13.12.2023.

(5). Murodova N. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik qobiliyatining mohiyati Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. 2024, т. 3, №.2, с. 19–21.

(6). Ishmuhamedov R. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent, 2022.

Jo‘rayev Oybek Sherali o‘g‘li (Malayziyaning University College Sedaya International universitetining ta’lim magistranti; jorayevoybek265@gmail.com),
Otajanova Manzura Omanboyevna (filologiya fanlari doktori, professor; Renessans ta’lim universiteti)

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA JADID ADABIYOTINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadid adabiyotini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishda multimerdia texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Jadid adabiyotining tarixiy-ma’rifiy mohiyati, uning yosh avlod ma’naviy kamolotidagi o‘rni hamda zamonaviy raqamli pedagogika bilan integratsiyalash imkoniyatlari yoritiladi. Multimedia vositalari sifatida audio va video materiallar, infografikalar, interaktiv xaritalar, virtual ekskursiyalar, Kengaytirilgan reallik va Virtual re-*

allik texnologiyalari hamda raqamli hikoyachilik metodlarining ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari multimedia vositalari jadid adabiyotini o'qitishda o'quvchilarning tarixiy tafakkuri, estetik didi, tanqidiy fikrlashi va mustaqil mushohada yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *jadid adabiyoti, multimedia texnologiyalari, adabiy ta'lim, raqamli pedagogika, virtual ekskursiya, interaktiv ta'lim, innovatsion metodika.*

Жураев Ойбек Шерали угли (магистрант образования Университетского колледжа Sedaya International (UCSI), Малайзия; jorayevoybek265@gmail.com),
Отажанова Манзура Оманбоевна (доктор филологических наук, профессор; Университет «Ренессанс»).

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ДЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и методические основы использования мультимедийных технологий при преподавании джадидской литературы в общеобразовательных школах. Освещаются историко-просветительская сущность джадидской литературы, её роль в духовно-нравственном развитии молодого поколения, а также возможности её интеграции с современной цифровой педагогикой. Научно обосновывается влияние таких мультимедийных средств, как аудио- и видеоматериалы, инфографика, интерактивные карты, виртуальные экскурсии, технологии дополненной и виртуальной реальности, а также методы цифрового сторителлинга на повышение эффективности образовательного процесса. Результаты исследования показывают, что мультимедийные средства являются важным фактором развития у учащихся исторического мышления, эстетического вкуса, критического мышления и навыков самостоятельного анализа при изучении джадидской литературы.*

Ключевые слова: *джадидская литература, мультимедийные технологии, литературное образование, цифровая педагогика, виртуальная экскурсия, интерактивное обучение, инновационная методика.*

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li (Master's Student in Education, University College Sedaya International (UCSI), Malaysia; jorayevoybek265@gmail.com),
Otajanova Manzura Omanboyevna (Doctor of Philological Sciences, Professor; Renaissance University of Education).

METHODOLOGY FOR USING MULTIMEDIA TOOLS IN TEACHING JADID LITERATURE IN SECONDARY EDUCATION SCHOOLS

Annotation. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of using multimedia technologies in teaching Jadid literature in secondary schools. It highlights the historical and educational significance of Jadid literature, its role in the spiritual and moral development of the younger generation, and the possibilities of its integration with modern digital pedagogy. The study scientifically substantiates the educational effectiveness of various multimedia tools, including audio and video materials, infographics, interactive maps, virtual excursions, augmented reality (AR) and virtual reality (VR) technologies, as well as digital storytelling methods. The findings demonstrate that multimedia technologies serve as an important factor in developing students' historical thinking, aesthetic appreciation, critical thinking skills, and independent reasoning abilities in the process of teaching Jadid literature.*

Key words: *Jadid literature, multimedia technologies, literary education, digital pedagogy, virtual excursions, interactive learning, innovative methodology.*

